

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

SHOIRA USMANOVA, SHOXISTAXON SHAMSIYEVA

PSIXOLINGVISTIKA

70230101 – Lingvistika (sharq tillari bo‘yicha) va 70230201 – Qiyosiy
tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (sharq tillari bo‘yicha)
magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha
darslik

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2022**

UO‘K: 81'23(075)

KBK: 81.2-5я7

Y 73

ISBN 978-9943-8541-6-1

Usmanova S.R., Shamsiyeva Sh.Q.

Psixolingvistika [Matn] : darslik / S.Sh.Usmanova, Sh.Q.Shamsiyeva. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 186 b.

O‘zbek tilshunosligida ilk bor tayyorlangan mazkur darslik “Psixolingvistika” fanining vujudga kelishi, uning psixologik va lingvistik manbalari, asosiy ta’limotlari va maktablari, nutqiy faoliyat va uning turlari, nutqning yaratilishi va idrok qilinishi, nutq ontogenezi, matnni psixolingvistik yondashuv asosida o‘rganish, psixolingvistik eksperiment turlari, amaliy psixolingvistika, ijtimoiy psixolingvistika, patopsixolingvistika hamda etnopsixolingvistika masalalari yoritilgan.

Shuningdek, darslikning so‘nggida psixolingvistik terminlar lug‘ati (glossariy) keltirilgan.

Darslik filologiya fakultetlarining talabalari, magistrantlari, tadqiqotchilari hamda o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Qudratilla Omonov,

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Durdona Xudoyberganova, filologiya fanlari doktori, professor

Nilufar Xodjayeva, PhD, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat
berilgan.

© **Usmanova S.R., Shamsiyeva Sh.Q.**

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2022.**

KIRISH

Psixolingvistika psixologiya va tilshunoslik fanlarinig kesishmasida o'tgan asrning 50-yillarida shakllandi. Rus psixolingvistikasi maktabining asoschilaridan biri bo'lgan A.A. Leontev o'zining tadqiqotlarida mazkur fanning vujudga kelishini kishilik jamiyati rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari, xususan, insonning aqliy-psixik faoliyati tabiatini ilmiy bilishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'lagan. Inson aqliy faoliyatining tarkibi va oliy psixik funksiya bo'lgan nutq hamda nutqiy faoliyat va tafakkur jarayonini amalga oshirishning asosiy vositasi bo'lgan til XIX va XX asrlar davomida psixologlar va tilshunoslarining alohida e'tiborini tortgan predmet hisoblanadi.

Bir qator nazariy va eksperimental tadqiqotlar zahirida psixologik va lingvistik qonuniyatlarni, xususan, tilni o'zlashtirish, inson nutqiy faoliyatining shakllanishi, jamiyatda nutqiy kommunikatsiyani amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi ulkan gnosologik va daliliy materiallar to'planib boyitildi.

XX asrning o'rtalariga kelib, psixologiya va tilshunoslikda nutq va nutqiy muloqotda tildan foydalanish jarayonlarini o'rganish yuzasidan qator muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lishiga qaramay, qayd qilingan masalalarni hal qilishda psixolog va tilshunoslarning butun kuchlarini birlashtirish zarurati tug'ildi. Binobarin, nutqiy kommunikatsiya jarayonida til va nutqning dialektik birligini aks ettiradigan "universal" ilmiy nazariyani yaratish uchun mazkur fanlarning alohida yo'nalishdagi ilmiy bilish vositasi yetarli bo'lmadi. Psixologiya va lingvistikada til va nutq hodisalarini nazariy va eksperimental tadqiqini o'zida birlashtiradigan ilmiy tadqiqotning yangi, zamonaviy metodologiyasini ishlab chiqishga zaruriy ehtiyoj paydo bo'ldi. Mazkur ehtiyoj psixolingvistikani mustaqil fan sifatida shakllantirdi.

O'zbek tilshunosligida ilk bor tayyorlangan mazkur darslikning maqsadi – magistrantlarga insonning nutqiy faoliyati zahirida yotgan struktura va jarayonlarni, xususan, nutqni hosil qilish, nutqni qabul qilish, kodlash va dekodlash, lisoniy qobiliyat, tilni egallash, kommunikatsiya, shuningdek, individning ichida kechayotgan psixik hodisalarni psixologik va lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilishni o'rgatishdan iborat.

"Psixolingvistika" kursi magistrantlarga psixolingvistikaning vujudga kelish tarixi, uning mavjud asosiy yo'nalishlari, maktablari haqida ma'lumot berish; til va tafakkur munosabati, til qobiliyati,

nutqning qo'llanishi, nutq faoliyati va uning harakatga kelish jarayonining normadan chiqib ketish sabablarini aniqlash; ta'lim oluvchilarda matnlarning psixolingvistik tahlilida eksperiment usullardan foydalanish malakasini hosil qilish; bugungi kundagi nazariy yo'nalishlar, yangi g'oyalar hamda psixolingvistik jarayonlar xususida ijodiy mulohaza yuritish, ilmiy yondashuvni tarbiyalash vazifasini qo'yadi.

Darslik 15 ta ma'ruzani o'z ichiga olgan 8 ta bobdan tarkib topgan. Unda "Psixolingvistika" fanining vujudga kelishi, uning psixologik va lingvistik manbalari, asosiy ta'limotlari va maktablari, nutqiy faoliyat va uning turlari, nutqning yaratilishi va idrok qilinishi, nutq ontogenezi, matnni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish, psixolingvistik eksperiment turlari, amaliy psixolingvistika, ijtimoiy psixolingvistika, patopsixolingvistika hamda etnopsixolingvistika masalalari yoritilgan.

Mavzularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoritishga harakat qilingan. Har mavzuning so'nggida nazorat uchun savollar va adabiyotlar ro'yxati berilgan. Shuningdek, darslikka psixolingvistik terminlar lug'ati hamda testlar ilova qilingan.

Ushbu darslikdan filologiya fakultetlarining talabalari, magistrantlari, tadqiqotchilari, o'qituvchilari, shuningdek, defektologlar, logopedlar, psixologlar va nutqiy faoliyatning psixolingvistik nazariyasi bilan qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

I BOB. PSIXOLINGVISTIKANING NAZARIY MASALALARI

1-MA'RUZA PSIXOLINGVISTIKANING AHAMIYATI VA UNING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI

Reja:

1. Psixolingvistikaning obyekti va predmeti
2. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari
3. Psixolingvistika psixologik fan sifatida
4. Psixolingvistika va tilshunoslik

Tayanch so'z va iboralar: obyekt, predmet, freym, individ, kommunikatsiya, nutq subyekti, nutq obyekti, motiv, ehtiyoj, niyat, nutqiy maqsad, nutqiy faoliyat, nutqni yaratish, nutqni qabul qilish, inson omili, vaziyat omili, eksperiment tamoyili, til sistemasi, til materialli.

1. 1. Psixolingvistikaning obyekti va predmeti

Psixolingvistikaning asosiy tadqiqot **obyekti** nutqiy faoliyat subyekti bo'lgan shaxs, til egasidir. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasini "tilning amal qilinishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish" bo'lishi kerakligini ta'kidlagan edi¹.

Psixolingvistika fanining **obyekti** – u o'rganadigan individual obyektlar majmuyidan iborat. Turli fanlarda umumiy, bir tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin. Biroq ularning predmeti bir-biridan farq qilishi, ya'ni ayni obyektga bo'lgan qarashi turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, inson ham tibbiyot, ham psixologiyaning tadqiqot obyekti sanaladi. Lekin har bir fan unga o'zining qarashidan kelib chiqqan holda yondashadi. Til va til belgilarining tizimi lingvistika, adabiyotshunoslik, antropologiya, dasturlash va psixolingvistika fanlarining tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin. Ya'ni mazkur fanlarning umumiy obyekti –

¹ Залевская А.А. Введение в психоллингвистику. Учебник для студентов высших учебных заведений. –М., 1999. –С.25.

turli maqsadlarda va turli vaziyatlarda qo‘llaniladigan inson tili va nutqi bo‘lishi mumkin².


Psixolingvistika fanining obyektini aniqlashtirishda A.A.Leontev qayd qilgan *freym* tushunchasini keltirish maqsadga muvofiqdir. Freym u yoki bu obyekt yoxud hodisani tasvirlovchi o‘lchovlar tizimini ifodalaydi. Masalan, “Ishlovchining shaxsiy varaqasi” (o‘lchovlari aniq shaklda keltirilgan)da mazkur shaxsning eng kamida uni ishga qabul qilinishi bilan bog‘liq xususiyatlarini tasvirlovchi freym mavjud bo‘ladi. Fanda modellashirilgan aniq hodisalar, odatda, freym tamoyiliga ko‘ra tavsiflanadi. Masalan, psixologiyada aksariyat hollarda “faoliyat freymi” ishlatiladi. Unda hodisalarga muayyan savollar (Maqsad? Motiv? Sharoit? Qanday faoliyat turi? va h.k.) beriladi va mazkur o‘lchovlar asosida hodisalar tavsiflanadi. Psixolingvistikadagi turli yo‘nalishlar uning obyekti bo‘lgan aniq nutq hodisalariga turli freymlarning “prizmasi” orqali yondashishadi³.

Biroq har qanday holatda, nutqqa har qanday metodologik yondashuvda ushbu freymning tuzilishida nutq subyekti, nutq obyekti yoki adresat, motiv yoki ehtiyoj, niyat yoki nutqiy maqsad, nutqiy muloqotning mazmuni va predmeti, lisoniy yoki semiotik vositalar tavsifi e‘tiborga olinadi. Xullas, psixolingvistikaning obyekti qanday tushunilishidan qat’iy nazar, har doim nutqiy hodisalar yoki nutqiy vaziyatlar majmuyidan iborat bo‘ladi. Bu obyekt tilshunoslik va boshqa nutqiy faoliyat bilan bog‘liq fanlar bilan umumiy hisoblanadi.

² Белянин В. П. Психоллингвистика. – М., 2004. – С. 8.

³ Леонтьев А.А. Основы психоллингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999. –С. 15-16.

Psixolingvistikaning vazifalariga quyidagi tadqiqot va modellashtirishlar kiradi:



Psixolingvistikaning **predmeti** turli – obyektlarning mavhum tizimi yoki ayrim obyektlarning mavhum tizimi hisoblanadi. Psixolingvistika fanining predmetini belgilashda ayrim psixolingvistlarning qarashlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi. Amerikalik psixolingvistlarning fikricha, “psixolingvistika so‘zlovchilar niyatining mazkur madaniyatda qabul qilingan kodda signallarga aylanishi va bu signallarning tinglovchilar tushunchasiga aylanishi jarayonlarini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, psixolingvistika kodlash va dekodlash jarayonlarini o‘rganadi”⁴. Shunga o‘xshash qarashlarni yevropalik psixolingvistlarning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, P.Fress psixolingvistikani “til orqali taqdim etiladigan bizning ekspressiv va kommunikativ ehtiyojlarimiz va vositalarimiz o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi fan”, - deb izohlagan⁵. T.Slama-Kazaku psixolingvistikaning predmeti xususida “muloqot vaziyatining xabarga ta’siri” degan qisqacha xulosaga keladi⁶. Rus psixolingvistikasi nazariyasining asoschisi A.A. Leontev shunday yozadi: “Psixolingvistika – til tizimi va lisoniy qobiliyat orasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan”⁷. Bu o‘rinda tubandagi sharh lozim bo‘ladi. A.A.Leontev F.de Sossyurning til va nutqni farqlashi xususida to‘xtalib, bu farqlash ikki mezondan: til (ijtimoiy) – nutq (individual) va

⁴ Osgood Ch.E., Sebeok T. Psycholinguistics. A Survey of Theory and Research Problems. 2nd ed. –Bloomington, 1965. – P. 3.

⁵ Fraisse P. La psycho-linguistique // Problems de psycho-linguistique. – Paris, 1965. – P. 5.

⁶ Slama-Cazacu T. Introduction to Psycholinguistics. –The Hague-Paris, 1973. – P. 57.

⁷ Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М., 1969.

til (abstrakt) - nutq (konkret)dan o'tishini ta'kidlaydi. Bu ikkala qarama-qarshilikni faqat ikki tushuncha doirasida birlashtirish qiyin. Shuning uchun bu yerda uchinchi tushuncha, hatto F. de Sossyurning o'zida ham mavjud bo'lgan "lisoniy qobiliyat" tushunchasi kerak bo'ladi. Lisoniy qobiliyat ijtimoiy hodisa bo'lgan tildan farqli o'laroq, har bir individga tegishlidir. Biroq u nutqdan farqli o'laroq, mavhumdir. Lisoniy qobiliyat – individual til, u mavhum ijtimoiy tildan konkret individual nutqqa o'tish imkonini beradigan ko'prik hisoblanadi. Chunki, nutqda darhol bevosita ijtimoiy til emas, balki ongda mavjud bo'lgan uning nusxasi – lisoniy qobiliyat qo'llaniladi. A.A.Leontevning belgilashicha, psixolingvistikaning predmeti ijtimoiy til va individual lisoniy qobiliyat orasidagi o'zaro munosabatdir. U psixolingvistikani yanada kengroq tavsiflab: "Nutqiy faoliyat va uni kompleks modellash qonuniyatlari psixolingvistikaning predmeti hisoblanadi", - deb qayd qiladi. Shuning uchun ayrim adabiyotlarda *psixolingvistika* termining sinonimi sifatida *nutqiy faoliyat nazariyasi* termini qo'llaniladi. A.A.Leontevning ta'kidlashicha, *nutqiy faoliyat nazariyasi* termini psixolingvistika shug'ullanadigan masalalar doirasini aniqroq belgilab beradi.

Psixolingvistika nutqiy faoliyatni nutq akti mazmuni bilan so'zlovchining maqsad-niyati orasidagi aloqadorlik nuqtayi nazaridan o'rganadigan fan. U nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni o'rganadi. Psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. Unga ko'ra, so'zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o'zi o'ylagan niyatini ma'lum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, nutq ifodalarining tashqi shaklida o'z aksini topgan ma'noni chiqarib oladi.

Charlz Osgudning fikricha, "Psixolingvistika so'zlovchi niyatining muayyan madaniyat kodida (tilida) qabul qilingan signalga aylanishi va bu signallar tinglovchining interpretatsiyasida qaytadan namoyon bo'lishi jarayonlarini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, psixolingvistika kommunikatsiyaning kodlash va dekodlash jarayonlari bilan shug'ullanadi"⁸. Shuni ta'kidlash joizki, psixolingvistikaning tadqiqot predmeti faqat kod (til) strukturasi va signal bo'lib qolmay, balki matn yaratish va uni tushunish bilan bog'liq jarayonlar, kishilar muloqotidagi barcha murakkab omillar hisoblanadi.

⁸ Osgood Ch. E. & Sebeok T. A. Psycholinguistics. A Survey of Theory and Research Problems. 2nd ed. –Bloomington, 1965. – P. 4.

Inson tilni to'liq egallash imkoniyatiga ega bo'lib tug'iladi. Biroq bu imkoniyatni amalga oshirish kerak bo'ladi. Buni qanday yuz berishini tushunish uchun psixolingvistika bolalar nutqining rivojlanishini o'rganadi. Psixolingvistika, shuningdek, nutqiy faoliyat va uning harakatga kelish jarayonining me'yordan chiqib ketish sabablarini tadqiq qiladi. Kattalar va bolalar nutqidagi buzilishlarni o'rganadi.

Psixolingvistika ba'zan til va tafakkurni o'rganadigan fan sifatida belgilanadi. Psixolingvistikaning asosiy maqsadi insonning so'zlash va tilni tushunish qobiliyati zahirida yotgan struktura va jarayonlarni aniqlashdan iboratdir. Psixolingvistlarning kishilar orasidagi o'zaro til munosabatlari bilan qiziqishlari shart emas. Ular, avvalo, individning ichida kechayotgan hodisalarni tadqiq qilishga harakat qiladi.

Psixolingvistika o'rganadigan mavzular nihoyatda keng bo'lgani uchun Oksford universiteti professori, psixolingvist Jean Aitchison ular orasidan quyidagilarni ajratib olishni taklif qiladi⁹:

1) *Tilni o'zlashtirish*. Kishilar tilni ular ma'lum til bilimlari bilan ta'minlanib tug'ilganliklari uchun o'zlashtirishadimi? Yoki ular turli muammolarni hal qila oladigan o'ta aqlli mahluq bo'lganliklari uchun tilni o'rgana olishga qodirmilar? 2) *Til bilimi va tilni qo'llash o'rtasidagi aloqa*. Tilshunoslar ko'pincha aslida bilimni qanday qo'llashdan ko'ra, kishining til haqidagi (til bilimi) tasavvurining tasvirlanishi ko'proq, deb da'vo qilishadi. Unda tilni qo'llash va til bilimi qanday bog'lanadi? Agar bunga boshqacharoq yondashilsa, til o'rgangan har qanday kishi uch narsani qila oladi deyish mumkin:

1) Jumlani tushunish (decode)	TILNI
2) Jumlani hosil qilish (encode)	QO'LLASH
3) Til bilimlarini yig'ish	TIL BILIMI

Tilshunoslarning aksariyati (1) yoki (2) dan ko'ra (3) bilan ko'proq qiziqishlarini qayd qiladilar. Psixolingvistning bularning qaysi birini bilishi kerak: Tilshunoslar taklif qilgan grammatikaning turlari haqiqatan kishi o'zlashtirgan til bilimlarini aks ettiradi, deyish to'g'ri bo'ladimi? Shuningdek, kishilar kundalik nutqida til bilimidan qanday foydalanadi?

⁹ Aitchison Jean. The Articulate Mammal. An introduction to psycholinguistics. 5th edition. – New York: Routledge, 2008. – P. 2-3.

3) *Nutqni yaratilishi va idrok qilinishi*. Tilni qo‘llash haqiqatan til bilimidan farqlanadimi, kishi kodlar yoki dekodlar ekan aslida nima yuz beradi?

Umuman, psixolingvistikaning predmeti ko‘p qirrali va cheksizdir. Shuning uchun ham bu fan ma’juziy ma’noda ko‘p boshli mahluqqa qiyoslaniladi. Hatto bir tadqiqotchi buni kinoya bilan shunday ifodalagan: «Qochib qutulib bo‘lmaydigan savol bilan yuzma-yuz kelganda: “Psixolingvistlar nima qiladi?” va bunga noiloj tarzda: “Hamma narsa” deb javob beriladi»¹⁰. Yoki boshqa bir psixolingvistning ta’biricha, “Psixolingvistika bilan bog‘liq fikrlarni yozishga urinish qaysidir jihatdan politsiya fotorobotidagi yuzni qayta tiklashga harakat qilishga o‘xshaydi. Siz qaysi qismni tanlashingizdan qat’iy nazar, u to‘g‘ri kelmaydi va siz bu qismlarning hammasidan foydalanolmaysiz”¹¹.

1. 2. Psixolingvistikaning o‘ziga xos xususiyatlari

Psixolingvistikaga qiziqish bildirgan tilshunoslarning maxsus adabiyotlar bilan tanishish jarayonida o‘ziga xos psixik to‘siqlarga duch kelishi tabiiy holdir. Chunki, muayyan “ilmiy paradigma” doirasida “tarbiyalangan” tilshunosning boshqa “ilmiy paradigma”ga kirishi, yangi terminologiya, tushunchalar, materiallar va noan’anaviy vazifalarni qabul qilishi qiyin kechadi. Shunda tilshunos o‘zi uchun qulay bo‘lgan yondashuvdan kelib chiqqan holda shunday xulosaga keladi: “Psixolingvistika shug‘ullanadigan masalalar juda qiziqarli bo‘lishi mumkin. Lekin bu tilshunoslik emas!”. Bu o‘rinda psixolingvist L.V.Saxarniy tomonidan qayd qilingan zamonaviy nazariy tilshunoslikning quyidagi ziddiyatini keltirish o‘rinli bo‘ladi: “Tilshunos tilni kishilarning aloqa qilishi va fikrlash vositasi ekanligini e’lon qiladi, biroq tilni tadqiq etishda til egalarining umuman keragi bo‘lmaydi. Til strukturasi uni yaratgan, undan foydalanayotgan inson faoliyatidan mustaqil ravishda tasvirlanadi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikning ziddiyati shundaki, **inson** tilini o‘rganayotgan tilshunoslik **insonsiz** ish ko‘radi”¹². O‘z davrida mashhur psixolog, nutq bo‘yicha mutaxassis N.I. Jinkin shunday yozgan edi:

¹⁰ Maclay H. Linguistics and psycholinguistics. In B.J. Kachru R.B., Lees Y. Malkiel. A. Pietrangeli and S. Saporta (eds) // Issues in Linguistics. –Chicago, IL:Illinois University Press, 1973. – P. 574.

¹¹ Tanenhaus M.K. Psycholinguistics: an overview. In F.J. Newmeyer (ed.) // Linguistics: The Cambridge Survey. Vol. 3. –Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – P. 1.

¹² Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1989. – С.6.

“Agar lingvistika va psixologiya aniq tafakkur jarayonini tadqiq etishni rad etsa, ular juda katta yo‘qotishga, ya’ni inson va uning nutqi tushib qolgan yo‘qotishga uchraydi”¹³. Afsuski, bunday yo‘qotishni tilshunoslik tarixida kuzatish mumkin. Binobarin, XX asrning boshida F. de Sossyur (1857-1913) va uning izdoshlari nutqiy faoliyatni “til” va “nutq”, aniq va mavhum, ijtimoiy va individual hodisalarga ajratganda vaziyat murakkablashgan edi¹⁴.

Psixolingvistikaning diqqat markazida inson turadi. Uning eng muhim xususiyati **inson omili** hisoblanadi. Binobarin, inson nutqni yaratadi va uni idrok qiladi. Psixolingvistika bu omilni nafaqat nutqning, balki eng muhimi – tilning o‘zini ham xarakterini, mohiyatini aniqlaydigan majburiy omil sifatida o‘z modellarining tavsiflari, asos qilib olingan hukmlariga faol tatbiq qiladi. Bunda qandaydir mavhum “umuman odam” emas, balki real harakatdagi xotiraga ega real odamlar, ularning yoshiga oid xususiyatlari, shaxsiy tajribasi, ijtimoiy roli va h.k. nazarda tutiladi.

Psixolingvistika nutqni F. de Sossyur tushunchasidek cheklab o‘rganmaydi. Agar inson omili hisobga olinsa, nutqiy faoliyatdagi til tilshunoslar tasavvuridagidan butunlay boshqacha “g‘aroyib olam” ekanligi ko‘zga tashlanadi. Sossyur va uning izdoshlari tomonidan tuzilgan til modellarida yaxshi “ishlaydigan” til va nutqni farqlash nutqiy faoliyatni psixolingvistik modellashirishda jiddiy tahrir talab qiladi.

Psixolingvistikaning o‘ziga xos xususiyatlariga inson omilini kiritish – bu muhim, biroq u nutqiy faoliyatga psixolingvistik yondashuvni tavsiflovchi yagona jihat emas. Modomiki, so‘zlovchi va tinglovchi omili kiritilgan ekan, o‘z-o‘zidan **vaziyat omili** ham kiritilgan sanaladi. Binobarin, kishi qandaydir vaziyatda gapiradi va eshitadi. Buning ustiga shunchaki qandaydir vaziyatda emas, balki belgilangan, aniqlangan vaziyatda gapiradi va eshitadi. Agar til va nutqni klassik qarama-qarshi qo‘yishda barcha vaziyatlar faqat nutqqa taalluqli, tilga esa vaziyatlardan holi, barqaror tizim sifatida qaralgan bo‘lsa,

¹³ Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи // Вопросы языкознания. 1964. - № 6. – С.28.

¹⁴ Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики // Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – М., 1977. – С. 52-55.

psixolingvistik yondashuvda murakkab va harakatdagi vaziyat omili inson omilidek nafaqat nutqda, shuningdek, tilda ham mavjud bo‘ladi¹⁵.

Nihoyat uchinchi jihat psixolingvistik tadqiqot xususiyatini amalda tushunish mumkin bo‘lgan **eksperiment omilidir**. Psixolingvist ham, tilshunos ham psixolingvistikani o‘rganishga jalb qilinadi. Har ikkalasi ham sotsiolog hisoblanadi. Shu tomondan ularning masalaga yondashuv usuli ham bir xil bo‘ladi. Barcha sotsiologlar gipotezalarni shakllantirish va sinash bilan shug‘ullanishadi. Boshqa tomondan esa psixolingvistlar o‘z gipotezalarini, asosan, sinchiklab boshqariladigan eksperimentlar orqali tekshirishadi. Tilshunoslar o‘z gipotezalarini “kabinet” usulida tekshirishadi. Ular eksperiment usuliga shubha bilan qarashadi va eksperimental vaziyatlarning keskinligi ba’zan noto‘g‘ri natijalarga olib keladi, deb o‘ylashadi. Boshqacha aytganda, eksperimentlardan “g‘alati” kutilmagan natijalar olinganda, tilshunosda darhol mazkur eksperiment natijalari asosida mavjud til qoliplarida qandaydir tuzatishlar qilish kerak bo‘ladi, degan shubha tug‘iladi. Holbuki, eksperimental natijalar asosida nutqiy faoliyatning yanada kuchli va haqiqiy qoliplarini qurish mumkin bo‘ladi¹⁶.

1. 3. Psixolingvistika psixologik fan sifatida

Rus psixolingvistikasi nazariyasining asoschisi A.A. Leontevning ta’kidlashicha, “psixolingvistika o‘zining rivojlanishining zamonaviy bosqichida uzviy ravishda psixologik fanlar tizimiga kiradi”. Agar A.N.Leontev izidan borgan holda psixologiyani “individlarning hayotini bevosita aks ettiradigan reallikning psixik ifodasining shakllanishi, harakatda bo‘lishi va tuzilishi haqidagi aniq fan” (A.N.Leontev, 1977, 12-b.), deb tushuniladigan bo‘lsa, u holda, til va nutqiy faoliyat mazkur psixik ifodaning shakllanishi va harakatda bo‘lishi, kishilar faoliyatini aks ettirish jarayonida ishtirok etadi. Shu sababdan psixolingvistika va psixologiyaning boshqa sohalari kategoriya va tushuncha jihatidan birlashadi. *Nutqiy faoliyat* tushunchasining o‘zi faoliyat turlari (mehnat, bilish, o‘yin va h.k.)ga, uning strukturalari va xususiyatlarining umumpsixologik talqiniga kiradi. Nutqiy faoliyat o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi bilan birga, har qanday faoliyatning shakllanishi, harakatda bo‘lishi va tuzilishi singari umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

¹⁵ Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1989. – С.7-8.

¹⁶ Aitchison Jean. The Articulate Mammal. An introduction to psycholinguistics. 5th edition. – New York:Routledge, 2008. –P. 1-2.

Shaxsning u yoki bu talqini bevosita psixolingvistikada aks etadi. Biroq psixolingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan *ma'no* bevosita psixik ifoda bilan, xususan, dunyo obrazi konsepsiyasi bilan bog'liq. Bunda psixolingvistika psixologiyaning boshqa sohalari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlardagi tushunchalar va natijalardan shunchaki foydalanib qolmaydi, balki bu sohalarni ular uchun imkonsiz bo'lgan nazariy va amaliy masalalarni hal qilish orqali to'ldiradi¹⁷.

Psixolingvistika psixologik fan sifatida *umumiy psixologiya*, ayniqsa, *shaxs psixologiyasi* va *kognitiv psixologiya* bilan chambarchas bog'liq. Psixolingvistika muloqot bilan bevosita munosabatda bo'lgani uchun *ijtimoiy psixologiya* va *muloqot psixologiyasi* bilan ham aloqada bo'ladi. Lisoniy qobiliyat va nutqiy faoliyatning shakllanishi va rivojlanishi psixolingvistika doirasida o'rganilgani uchun u *bolalar va kattalar psixologiyasi* bilan chambarchas bog'lanadi. Shuningdek, u *etnopsixologiya* bilan ham o'zaro munosabatga kirishadi.

Amaliy jihatdan psixolingvistika psixologiyaning barcha amaliy sohalari: *pedagogik psixologiya*, *patopsixologiya*, *tibbiyot psixologiyasi*, *neyropsixologiya*, *psixiatriya*, *defektologiya*, *harbiy psixologiya*, *sud va yuridik psixologiya*, *siyosiy psixologiya*, *ommaviy kommunikatsiya psixologiyasi*, *reklama va targ'ibot psixologiyasi* bilan o'zaro bog'liq. Aynan ana shu amaliy vazifalar psixolingvistikani mustaqil fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan.

1. 4. Psixolingvistika va tilshunoslik

Tilshunoslikka tilni muloqot vositasi sifatida o'rganadigan fan, deb qaraladi. Shunga ko'ra, uning predmeti aniq belgilanmagan.

Ma'lumki, tilshunoslik obyekti nutqiy faoliyat (nutq aktlari, nutq reaksiyalari) hisoblanadi. Lingvistikaning predmeti kommunikatsiyada qo'llaniladigan til vositalarining tizimi sanaladi. Psixolingvistikaning predmeti lingvistikanikidan farq qiladi. Psixolingvistikani mazkur belgilar tizimining ishlash jarayoni, xususan, belgilarning yaratilish va qabul qilinish jarayonlari qiziqtiradi. Psixolingvistika nutqiy faoliyat haqidagi fan bo'lib, uning obyektni u o'rganadigan individual obyektlar majmuyi tashkil qiladi. Lingvistika nutq tuzilishini til qonunlariga ko'ra o'rganadi. Psixolingvistika esa nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish,

¹⁷ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999. – С. 20-21.

shuningdek, ona tili va chet tilini o‘zlashtirish jarayonlariga murojaat qiladi.

Hozirgi kunda ko‘p tilshunoslar til faktlarini to‘liq tushunish uchun lingvistika ramkasidan chiqib, individning psixik jarayonlari doirasiga kirish lozimligini tan olishadi. Binobarin, til materiali kishi miyasida tashkil topadi va kerak paytda chiqariladi. Bunday psixik jarayonlar psixolingvistikaning predmeti hisoblanadi.

Psixolingvistika tilni psixikaning fenomeni sifatida o‘rganadi. Psixolingvistika qarashicha, so‘zlovchi va tinglovchi, yozuvchi va o‘quvchining ichki dunyosi qanday bo‘lsa, til ham shu darajada mavjud. Shu bois, psixolingvistika faqat matnlargina saqlanib qolgan, bu matn yaratuvchilarining psixik olamlari bo‘lmagan o‘lik tillar (masalan, eski slavyan yoki yunon tillari)ni o‘rganish bilan shug‘ullanmaydi.

Psixolingvistika tilni o‘rgangani uchun tilshunoslik fanlariga, tilni alohida aspektda, xususan, psixikaning fenomeni sifatida o‘rgangani uchun esa psixologiya fanlariga aloqador bo‘lgan kompleks fan hisoblanadi¹⁸.

Psixolingvistika til va tafakkurni o‘rganadigan fan bo‘lgani uchun ham u psixologiya va lingvistikani birlashtiradi. Bir guruh tadqiqotchilar qayd etishganidek: “Fanning nomi barchasini aytib turibdi... u – ayni paytda psixologiya va lingvistikadir. Fanning asosida asrlar davomida o‘zining tadqiqot an‘analariga ega bo‘lgan bu ikki sohaning o‘zaro munosabati yotibdi... Ularga nisbatan psixolingvistika ancha yosh... biz bilgan bugungi psixolingvistika fan sifatida XX asrning o‘rtalarida maydonga kelgan”¹⁹.

Xullas, psixolingvistika umumiy tilshunoslik bilan chambarchas aloqada bo‘ladi. Bundan tashqari, u sotsiolingvistika, etnolingvistika, amaliy tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi bilan ham o‘zaro bog‘langan.

Nazorat uchun savollar:

1. Psixolingvistika fanining obyekti nima?
2. “Freym” tushunchasini nimani ifodalaydi?
3. Psixolingvistika fanining predmeti nima?

¹⁸ Aitchison Jean. The Articulate Mammal. An introduction to psycholinguistics. 5th edition. – New York: Routledge, 2008. –P. 1.

¹⁹ Cutler A., Klein W. and Levinson S. The cornerstones of twenty first century psycholinguistics. In A. Cutler (ed.) Twenty-first Century Psycholinguistics: Four Cornerstones. –Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2005. –P. 269–292.

4. Psixolingvistikaning sinonimi sifatida qanday termin qo'llaniladi?
5. Psixolingvistikaning asosiy xususiyatlarini ta'riflang.
6. A.A. Leontevning fikriga ko'ra, psixolingvistika qaysi fanlar tizimiga kiradi?
7. Nutqiy faoliyat qanday umumiy qonuniyatlarga bo'ysunadi?
8. Psixolingvistika qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?
9. Qanday amaliy vazifalar psixolingvistikani mustaqil fan sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan?
10. Tilshunoslik va psixolingvistikaning obyekti va predmeti o'rtasidagi farqlarni ko'rsating.

Asosiy adabiyotlar

1. Aitchison Jean. The Articulate Mammal. An introduction to psycholinguistics. 5th edition. – New York: Routledge, 2008. – 320 p.
2. Белянин В. П. Психоллингвистика. –М., 2004.
3. Леонтьев А.А. Основы психоллингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999.
4. Сахарный Л.В. Введение в психоллингвистику. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1989.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Cutler A., Klein W. and Levinson S. The cornerstones of twenty first century psycholinguistics. In A. Cutler (ed.) Twenty-first Century Psycholinguistics: Four Cornerstones. –Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2005. –P. 269–292.
2. Fraisse P. La psycho-linguistique // Problems de psycholinguistique. –Paris, 1965.
3. Maclay H. Linguistics and psycholinguistics. In B.J. Kachru R.B., Lees Y. Malkiel. A. Pietrangeli and S. Saporta (eds) // Issues in Linguistics. –Chicago, IL:Illinois University Press, 1973.
4. Osgood Ch. E. & Sebeok T.A. Psycholinguistics. A Survey of Theory and Research Problems. 2nd ed. –Bloomington, 1965.
5. Slama-Cazacu T. Indroduction to Psycholinguistics. –The Hague-Paris, 1973.
6. Tanenhaus M.K. Psycholinguistics: an overview. In F.J. Newmeyer (ed.) // Linguistics: The Cambridge Survey. Vol. 3. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.
7. Жинкин Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи // Вопросы языкознания. 1964. -№ 6.

8. Залевская А.А. Введение в психолингвистику. Учебник для студентов высших учебных заведений. –М., 1999.

9. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность.–М., 1969.

10. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики // Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. –М., 1977.

2-MA'RUZA

PSIXOLINGVISTIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

Reja:

1. Psixolingvistikaning falsafiy manbalari
2. Psixolingvistikaning psixologik manbalari
3. Psixolingvistikaning lingvistik manbalari
4. Psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi
5. L.S.Vigotskiy – rus psixolingvistikasining asoschilaridan biri

Tayanch soʻz va iboralar: tushunchalar nazariyasi, aqliy faoliyat, umumiylik, xususiylik, jamoa, shaxs, faoliyat, nutqiy harakat, lisoniy qobiliyat, organizmning psixofiziologik faoliyati, individlar psixikasi, individlar tili, nutqiy faoliyat, til tizimi, til materiali, geshtalt, bixeviorizm, stimul, reaksiya, reaktivlik, atomizm, individualizm, avtonom psixolingvistika, kognitiv psixologiya.

2. 1. Psixolingvistikaning falsafiy manbalari

Tilga boʻlgan qiziqish juda qadim davrlarga borib taqalsa-da, psixolingvistik nuqtayi nazarlar qachon paydo boʻlganligini javoblash anchayin murakkab masaladir. Shimoliy amerikalik olimlar psixolingvistika tarixini 1950-yillardan boshlanganligini qayd etishadi. Yevropalik olimlar psixolingvistikaning kelib chiqishini qadimgi Yunonistonga: Aflotunga bogʻlashni asosli deb hisoblashadi. Aflotun tushunchalar nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariya aynan Jerry Fodor (1987) nazariyasining oʻzi boʻlgan. Faqat Aflotun “tugʻma” tushunchalar bizning (sirli) ideal shakllar dunyosi bilan aloqalarimizdan kelib chiqqanligini aytishga uringan. Jerry Fodor esa bu masalada sukut saqlashni maʼqul koʻrgan. Ehtimol, u Vittgensteyinning (1921/1961) sukut saqlash kerak, bu masalada biron bir fikr bildirish bemaʼnilik (yoki falsafiy asardagi 7-gʻoyani har kim ham tarjima qilishni xohlaydi) degan maslahatiga amal qilgandir. Bu oʻrinda shuni taʼkidlash joizki, Aflotunning tushunchalar nazariyasi aqliy faoliyatga bogʻlangan. Darhaqiqat, uning tushunchalar nazariyasi J. Fodorning 1950-yillardagi psixolingvistik tadqiqotlari bilan juda oʻxshash.

Bir tomonda Aflotun yoki bir tomonda “gʻoyalar” nazariyasi boʻlgan, XIX asrning oxirlarigacha boʻlgan davrda tilga boʻlgan

qiziqishlarning aksariyat qismi psixologik jihatlariga yo'naltirilmagan edi.

Til qo'llanishi – kishining faoliyati, jumladan, aqliy faoliyati ekanligi aniq bo'lsa ham aksariyat olimlar til tadqiqi tarixining katta bir qismida tilga Jerri Katsning (1981) “mavhum obyekt” degan iborasi sifatida qarashdi. Qizig'i shundaki, bunday tasavvur “aflotunchilik” deb atalgan bo'lishi ham mumkin. Tilga bo'lgan qiziqishlarning 2500-yillik tarixi davomida Mesopatamiya, Xitoy, arab tilida so'zlashadigan mamlakatlar, qadimgi Yunoniston va avvalo, Hindiston an'analari grammatikani taqqiq etish keng tarqalgan edi. Mazkur an'analardagi aksariyat til va mantiq tadqiqotlari orasida chambarchas aloqa mavjud bo'lgan. Tilga bo'lgan bunday munosabat natijalari Boole va Fregelarning hamda formal mantiqiy tizimlarni tabiiy til bilan muayyan o'xshashligini aks ettirgan boshqa tadqiqotlarning rivojlanishiga olib keldi. Natijada formal vositalar qaysidir ma'noda tabiiy tilga tatbiq etildi va ular ilk bor Richard Montaguening (Thomason, 1974) ishlarida aniq tillardagi ayrim murakkabliklarda jiddiy ko'rsatib berishga harakat qilindi.

Boshqa an'analarning diqqati tabiiy tillardagi chalkashliklar va til birliklariga qaratildi, natijada Villiam Jones va XIX asrdagi boshqa tilshunoslarning qiyosiy metodi, keyinchalik F.de Sossyur, strukturalizm va zamonaviy tilshunoslikdagi yo'nalishlar rivojlandi²⁰.

2. 2. Psixolingvistikaning psixologik manbalari

Psixologiya XIX asrning birinchi yarmida mustaqil fan sifatida mavjud emasdi. U mustaqil fan sifatida XIX asrning oxirida yuzaga keldi. V. Vundtning Leypsigdagi laboratoriya fondiga an'anaviy tarzda psixologiyaning boshlanishi va uning mustaqil fan sifatida shakllanishi deb qaraladi. Haqiqatan, XIX asrda Germaniya universitetlarining fakultetlari psixologiya va falsafa bo'limlariga ajralib, ularda empirik tadqiqotlarning dasturlari kengaytirildi. XIX asrning boshlarida tibbiyot sohasidagi katta o'zgarishlar, xususan, psixologik yetishmovchiliklarning turlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar psixolingvistikaning fan sifatida rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, P.Broka (1861) va C.Vernikelarning (1874) afaziya xususidagi tadqiqotlari psixolingvistika uchun muhim ahamiyat kasb etdi. V.Vundtning laboratoriya fondi va uning 1879-yilda tashkil topgani

²⁰ Matthew J.Traxler, Morton A. Gernsbacher. Handbook of Psycholinguistics. 2nd edition. – London: Elsevier, 2006. – P. 1-2.

barchaga yaxshi ma'lum bo'lishiga qaramay, uning laboratoriyasida til psixologiyasi yuzasidan amalga oshirilgan eksperimental ishning ravnaqi yaxshi ma'lum emas edi. V.Vundt 1900-yilda "Til o'limi" nomli asarini chop ettiradi. Bu kitob 1912-1913-yillarda ko'paytirilgan nusxada nashr qilinadi²¹.

V.Vundtning dastlabki psixolingvistik asari hamda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida nemis psixologlariga ta'sir ko'rsatgan boshqa nemis tilidagi tadqiqotlar Artur Blumental tomonidan batafsil hujjatlashtirildi²². Keyinroq A. Blumental til psixologiyasining dastlabki davridagi parchalanish o'rtasidagi simmetriyani taklif qildi va uni vaqtdan oldin ovoza qilingan zamonaviy psixolingvistikaning tanazzuli deb atadi²³. A. Blumentalga ko'ra, ayrim tilshunoslar V. Vundtning laboratoriyasida amalga oshirilgan tilning empirik va falsafafiy tadqiqotlariga jalb etilgan edi. V.Vundtning ma'ruzalariga L.Blumfeld, F.de Sossyur va F.Boas kabi tilshunoslar muntazam ravishda qatnashdilar.

Shuningdek, XIX asrning 60-yillarida Leypsigda maydonga kelgan "yosh grammatikachilar" (G.Paul, K.Brugman, A.Leskin, B.Delbryuk, G.Ostgofg) ham bu jarayonga jalb qilingan edi. "Yosh grammatikachilar" Germaniya universitetlarining gumanitar fanlardagi an'analarga qarshi chiqdilar. "Yosh grammatikachilar" nazariyasining asosini individual psixologiya tashkil etgan bo'lib, ular til hodisalarini ana shu tamoyilga ko'ra hal qilishga urindilar. Ular so'zlovchi shaxsning nutqiy faoliyat mexanizmi, psixologiyasi, tilning ichki taraqqiyoti singari masalalarga e'tibor qaratdilar. "Yosh grammatikachilar" tilni organizmning psixofiziologik faoliyati sifatida talqin etdilar. Ular tildagi o'zgarishlar sabablarini jamiyatdagi o'zgarishlardan emas, balki inson ruhiyatidagi o'zgarishlardan izlashgan. Masalan, ular zamonaviy rus tili uni o'rganmagan bola uchun o'lik tildir, lekin o'lik til hisoblangan lotin tili esa bu tilni mukammal bilgan filolog-klassik uchun tirik til sifatida namoyon bo'ladi, deb hisoblashgan.

Farqli yo'ndashuvlar va nemis laboratoriyalarining turli qarashlari psixologiyaning o'zida ham ziddiyatli muammolarni yuzaga keltirdi.

²¹ Matthew J.Traxler, Morton A. Gernsbacher. Handbook of Psycholinguistics. 2nd edition. – London: Elsevier, 2006. – P. 2-3.

²² Blumenthal A. L. Language and psychology: Historical aspects of psycholinguistics. – New York: Wiley, 1970.

²³ Blumenthal A. L. The emergence of psycholinguistics // Synthese. -№ 72. 1987. – P. 313–323.

A.Blumentalning fikricha, bu ba'zi tilshunoslar orasidagi tortushuvlarga olib keldi. Xususan, V. Delbryuk "tilshunoslar psixologlardan mustaqil holda ishlashlari kerak"²⁴ degan fikrni ilgari surgan bo'lsa, shunga o'xshash: "zamonaviy psixolingvistika (xomskiychilar) tanazzulining sabablaridan biri tilshunoslarning o'zaro kelishmovchiligidir, psixologlar ham mustaqil ravishda yaxshi ishlashlari mumkin edi", degan fikr A. Reber²⁵ tomonidan aytilgandi.

Ma'lumki, Birinchi jahon urishi va uning oqibatlari Yevropa qit'asidagi psixologik fanlarga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shimoliy Amerikada bixeviorizmning vujudga kelishi bilan V.Vundtning ta'siri kamaydi. Yevropada V.Vundtning bahs-munozaralarga sabab bo'lishi AQSHda to'g'ridan-to'g'ri bixeviorizmga – xususan, introspektiv (o'z-o'zini kuzatish) metodlardan foydalanishga olib kelgandi. V.Vundtning o'zi qat'iy eksperimentlar tarafdori edi, biroq Vursburg guruhi introspektiv metodlardan foydalanishni ma'qul ko'rdi. Aynan shu guruhdan yevropalik buyuk psixolingvist Karl Buhler yetishib chiqdi. K. Buhler funksionist edi, garchi u bu oqimga qarshi chiqqan bo'lsa-da, uning g'oyalari Vursburg maktabidan chiqqan Gestalt psixologlari bilan aksariyat umumiy jihatlariga ega edi²⁶.

"Psixologiya geshtalti" (nem. "gestalt" – "obraz") maktabining vakillari M.Vertgeymer, K.Koffka, K.Byuler va boshqa olimlar inson psixikasidagi "kechinmalar ortida" yotadigan kechinmalar dunyosini va jismoniy dunyoni chegaralab oldilar. Ular kechinmalar dunyosini ikki: jismoniy reallik (miyadagi jarayonlar) va tafakkurning psixik (fenomen) realligi nuqtayi nazaridan tadqiq etishdi. Binobarin, tafakkur dinamik bir butun "maydon", uning tahlil birligi "geshtalt" – butun bir obraz sifatida talqin qilindi.

Jahon psixologiyasida XX asr boshlaridagi ikkinchi muhim yo'nalish bixevioristik (ingl. behavior "xulq, xatti-harakat") psixologiya edi. Bu yo'nalishning ko'zga ko'ringan namoyondalari J.Uotson va E.Torndayklar edi. Bixevioristik psixologiya ko'p jihatdan materialistik psixologiya bilan hamfikir bo'lgan va shunga ko'ra, uning asoschilaridan biri rus fiziologi I.P.Pavlov hisoblangan. Bixevioristik psixologiya

²⁴ Delbrück B. Grundfragen der Sprachforschung; mit rücksicht auf W. Wundt's Sprachpsychologie. – Strassburg: Trabner, 1901.

²⁵ Reber A. S. The rise and (surprisingly rapid) fall of psycholinguistics // Synthese. -№ 72. 1987. – P. 325-339.

²⁶ Matthew J.Traxler, Morton A. Gernsbacher. Handbook of Psycholinguistics. 2nd edition. – London: Elsevier, 2006. – P. 3.

psixikani tadqiq etishning faqat obyektiv metodlarini qabul qiladi. Psixikaga kishining hayoti va faoliyati kontekstini kiritadi va uni tashqi ta'sirlar hamda organizmning fiziologik xususiyatlari bilan bog'laydi. Biroq bixevioristlar agar psixikadagi biron narsani bevosita kuzatib yoki o'lchab bo'lmasa, u holda, bu narsa umuman mavjud emas, deb da'vo qilishdi. Bixeviorizmga ko'ra, mahluqqa (bu odam yoki jonivor bo'lishi mumkin va h.k.) ta'sir qiladigan qandaydir stimul (S) va ushbu stimulga qandaydir reaksiya (R) bor.

Qizig'i shundaki, bixeviorimz til tadqiqiga psixologiyada ham, tilshunoslikda ham o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lishiga qaramay, ular orasida o'zaro aloqa davom etishini ta'minlay olmadi. L.Blumfildning umumiy tilshunoslik masalariga bag'ishlangan "Til o'rganishga kirish" (Introduction to the study of language, 1914) nomli birinchi asari uzil-kesil V.Vundtning qarashlariga yo'nalgan edi. L.Blumfildning mazkur asarida "yosh grammatikachilar" an'analari bilan birga, V. Vundt psixologik-lingvistik nazariyalarining ta'siri sezilib turardi²⁷. Keyinroq uning "Til" (Language, 1933) deb nomlangan asarida bixeviorizmning ta'siri kuzatiladi. L.Blumfildning o'zi bir necha marta "lisoniy mexanizmlar" haqidagi qarashlarini A.P Veysning bixeviorizmiga yaqinligini ta'kidlagan. L. Blumfild kishining hayoti va faoliyatini ehtiyojlar va bu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan harakatlar, deb talqin qildi. Kishilar bir-birlari bilan amaliy (nutqsiz) va nutqli stimullar yordamida o'zaro munosabatga kirishadi. Ular mazkur stimullarga ikki xil: nutqli va nutqsiz harakatlar bilan javob qaytarishadi:

nutqsiz reaksiya $S \longrightarrow R$

nutq vositasidagi reaksiya $S \longrightarrow r \dots\dots\dots s \longrightarrow R$.

Blumfildga ko'ra, nutq amaliy vazifalarni hal qiluvchi vosita va uning asosiy funksiyasi – inson faoliyatini boshqarishdir²⁸.

Umuman, XX asr boshlaridagi bixeviorizm muayyan evolyutsiyaga erishdi va psixolingvistikaning shakllanishiga zamin yaratdi.

2. 3. Psixolingvistikaning lingvistik manbalari

Tilshunoslikdagi dastlabki psixolingvistik g'oyalar Vilgelm fon Gumboldning antinomiyasida shakllangan edi. Chunonchi, nutqiy faoliyat va tilning jamoa va shaxs munosabatlarini chambarchas bog'lashga xizmat qilishi haqidagi g'oya Gumboldtga tegishlidir. V. fon

²⁷ Matthew J.Traxler, Morton A. Gernsbacher. Handbook of Psycholinguistics. 2nd edition. – London: Elsevier, 2006. – P. 3-4.

²⁸ Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 1968. – С. 38-42.

Gumboldtning talqinicha, tillar xalqlar va alohida shaxslarning ijod mahsuli, chunki til nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladi. U til va uning sohibi bo'lgan jamoa munosabatini bilish zarurligini ta'kidlaydi, zero, til tizimidagi umumiylik va xususiylik belgilari aynan jamoa va shaxs munosabatlariga borib taqaladi. Bu munosabatlar asosida, o'z navbatida, til tizimining ijtimoiy va individual xususiyatlari qarama-qarshiligi (antinomiyasi) shakllanadi.

Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini V. fon Gumboldt ular bajaradigan vazifalar hamohangligida ko'radi. Binobarin, til ham xuddi tafakkur singari ijodiy jarayondir. V. fon Gumboldtning fikricha, til paydo bo'lishining eng birinchi sababi insonning ichki ehtiyoji, ya'ni olam va boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishishidir.

V. fon Gumboldtning tilning ijodkorona faoliyati, o'zgaruvchanlik tabiati kabi xususiyatlari haqidagi fikrlari nutqiy faoliyat nazariyasi yoki psixolingvistika kabi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari uchun tayanch nuqta vazifasini o'tadi. V. fon Gumboldt tilni "tashqi dunyo hodisalari va inson botiniy dunyosi" oralig'idagi dunyo sifatida ta'riflagan edi. Faoliyatning til dunyosiga ko'chishi haqidagi g'oya Gumboldtning muhim kashfiyotlaridan biridir. Ushbu g'oya ko'p jihatdan mashhur psixolingvistlar L.S.Vigotskiy va A.R.Luriyalarning g'oyalari uchun asos bo'ldi. Haqiqatdan ham, V. fon Gumboldt aytganidek, nutqiy faoliyat negizida "lisoniy qobiliyat" yotadi. V. fon Gumboldt individual nutqiy harakatlar vositasida bajariladigan lisoniy ijod faoliyatining uzluksizligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Uning ta'kidicha, til mavjudligining shakli taraqqiyotdir va "tilga qandaydir o'lik mahsulot sifatida emas, balki ijodiy jarayon holida qarash lozim", u – "to'xtovsiz faoliyatdir"²⁹.

Tilshunoslikning rivojlanishiga va psixolingvistikaning shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri I.A. Boduen de Kurtenedir. U tilni turli-tuman tasavvur guruhlaridan tarkib topgan murakkab psixososial mohiyat sifatida talqin qildi. Boduen de Kurtene fikricha, til muayyan bir jamiyatni tashkil qilgan individlar ongida, individlar psixikasida, individlar tili sifatida yashaydi. Shuning uchun Boduen de Kurtene o'z tadqiqotlarida individ nutqiga asosiy e'tiborni qaratdi. Boduen de Kurtenega ko'ra, "inson tilining mohiyati faqat psixikdir. Tilning mavjudligi va uning rivojlanishi sof psixik

²⁹ Фон Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 82.

qonuniyatlar bilan bog‘langan. Inson nutqida yoki tilida bironta ham psixik bo‘lmagan hodisa mavjud emas va mavjud bo‘lishi ham mumkin emas”³⁰.

Hozirgi zamon psixolingvistikasi uchun Boduen de Kurtene qarashlarining eng muhim tomoni uning “nutq faoliyatidagi aniq qiymat odamdan ajratilgan til emas, balki odamdir” degan fikri edi. “Havoda uchib yuruvchi qandaydir tillar emas, aksincha til va tafakkurga ega bo‘lgan odamlar mavjud”. Shu bilan birga, u tilda individuallik bilan umumiylikning ajralmasligini, individual xususiyatda bir vaqtning o‘zida umumiy umuminsoniylik mavjud ekanligini bayon qiladi. U insoniyat ijtimoiy guruhlar majmuasi ekanligini e‘tirof etadi.

XX asr tilshunosligining asoschisi shvetsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatni (langage) ikki qarama-qarshi mohiyat: til (langue) va nutq (parole)ga ajratdi. Uning fikricha, til nutqiy faoliyatning faqat bir tomonini tashkil etadi. Til nutqqa ziddir. Til – ijtimoiy hodisa. U til jamoasining barcha a‘zolari uchun majburiy belgilar sistemasidir. Til kishilik jamiyatida aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Nutq – individual hodisa. Nutq – xohish va fikrni ifodalash akti.

F. de Sossyurning ta‘limoti L.V.Shcherba tomonidan rivojlantirildi. U mazkur ta‘limotga “individning psixofiziologik nutqiy tuzilishi” tushunchasini kiritdi. L.V.Shcherbaning psixolingvistikaga qo‘shgan hissasi uning “Til hodisalarining uch jihat va tilshunoslikda eksperiment haqida” (1974) asari bilan belgilanadi. Mazkur asarda tilshunoslikning predmeti sifatida tilning quyidagi uch jihat taklif qilinadi:

Birinchi jihat nutqiy faoliyat bo‘lib, unda olim so‘zlashuv va tushunishni nazarda tutadi. Shcherba belgilarni tushunish va talqin qilish jarayonining tovushlarni talaffuz qilish va so‘zlashuv jarayonidan faolligiga ko‘ra sira ham kam emasligini ta‘kidlaydi.

Ikkinchi jihat til tizimi bo‘lib, birinchi navbatda lug‘at va grammatikani qamraydi. L.V.Shcherba “to‘g‘ri tuzilgan lug‘at va grammatika mazkur til bilimini to‘liq yoritishi lozim”, - deb yozadi.

Til hodisalarining uchinchi jhati til material, ya‘ni “mazkur ijtimoiy guruh hayotining u yoki bu davridagi muayyan sharoitda so‘zlashuv va tushunishlar majmuyi” hisoblanadi.

³⁰ Глухов В.П. Основы психоллингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2008. – С. 14.

L.V.Shcherba nutqiy faoliyat va til materiali o'rtasidagi munosabatni quyidagicha belgilaydi: "Nutqiy faoliyat til materialini yaratadi. Til tizimi tilshunoslar tomonidan til materialidan chiqarib yuboriladi. Nutqiy faoliyat ham til materialini ishlab chiqaradi, ham til tizimiga o'zgartish kiritadi. Shu bilan birga, til hodisalarining barcha uch jihati bir-biri bilan chambarchas bog'langan"³¹.

2.4. Psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllanishi

Psixolingvistikaning birinchi avlodi. "Psixolingvistika" termini birinchi marta amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan 1946-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. "Psixolingvistika" *psixologiya* (yunon. *psyche* "ruh") va *lingvistika* (lotin. *lingua* "til") kesishgan nuqtadagi metafan, ya'ni psixologiya va lingvistikaning sintezi hisoblanadi.

1953-yilda AQShning Blumington shahridagi Indiana universiteti huzuridagi Lingvistika va psixologiya qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan universitetlararo seminarda psixolingvistika mustaqil fan sifatida e'lon qilindi. Mazkur seminar mashhur amerikalik psixologlar Charlz Osgud, Djon Kerroll hamda tilshunos, etnograf va adabiyotshunos olim Tomas Sibeoklarning tashabbusi bilan tashkil qilingan edi. 1954-yilda nashr qilingan "Psixolingvistika. Nazariya va tadqiqot muammolari ocherki" (Psycholinguistics: A survey of theory and research problems) nomli kitobida seminar jarayonida qabul qilingan psixolingvistikaning asosiy nazariy masalalari, eksperimental tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari belgilandi va u qator fanlararo psixolingvistik tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynadi³².

Psixolingvistika birinchi avlodining o'ziga xos xususiyati *reaktivlik* bo'lib, u sof psixologiyaga yo'naltirilgan edi. U bixevioristik "stimul – reaksiya" sxemasiga, muayyan muomala jarayonini, xususan, nutqiy muomala jarayonini talqin qilishga asoslangan edi.

Psixolingvistika birinchi avlodining ikkinchi o'ziga xos xususiyati *atomizm* edi. U alohida so'zlar, grammatik bog'lanishlar yoki grammatik shakllar bilan ish ko'rdi.

Psixolingvistika birinchi avlodining uchinchi o'ziga xos xususiyati *individualizm* bo'lib, unda individning nutqiy muomala nazariyasi

³¹ Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2008. – С. 15.

³² Matthew J.Traxler, Morton A. Gernsbacher. Handbook of Psycholinguistics. 2nd edition. – London: Elsevier, 2006. –P. 5.

jamiyatdan, hatto muloqot jarayonidan “yulib olingan” texnik kommunikatsiya sxemasi edi.

Psixolingvistikaning ikkinchi avlodi: N.Xomskiy va J.Miller. 1950-yillarning oxirlarida Ch. Osgud psixolingvistikasining kuchli muxoliflari – N.Xomskiy va J.Miller maydonga chiqdi. Ch.Osgud o‘zining psixolingvistik modelini psixologiyadan kelib chiqqan holda tuzgan bo‘lsa, N.Xomskiy o‘zining transformatsion modelini lingvistika asosida yaratdi. N.Xomskiyning dastlabki tadqiqotlarida hech qanday psixologiya yo‘q edi. Uning transformatsion modeli tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solish imkoniyatinigina yaratgandi. Biroq xuddi shu yillarda J. Miller va uning tarafdorlari transformatsion model g‘oyasini ushlab olishdi. J.Miller nutqning kelib chiqishini assotsiativ aloqalar bilan emas, balki rejalashtirilgan xatti-harakatning xususiyati bilan aniqladi. U transformatsion qayta hosil qilishda shunchaki reaktivlikka emas, insonning aktivligiga urg‘u berdi. J.Millerning psixolingvistikasida nutqni qabul qilish va nutqni ishlab chiqish jarayonlarining birligi haqidagi tasavvurga qadam tashlanadi.

Psixolingvistikaning uchinchi avlodi yoki “yangi psixolingvistika” 1970-yillarning o‘rtalarida shakllandi. Psixolingvistikaning uchinchi avlodi Amerikada psixolingvist J.Verch va psixolog J. Bruner, Fransiyada J.Meler, J.Nuaze, D.Dyubua, Norvegiyada talantli psixolingvist R.Rummetfeytlarning nomi bilan bog‘liq³³.

“Avtonom psixolingvistika”ni ishlab chiqish zarurati J.Nuazening asosiy tezislaridan biriga aylandi. Bunda avtonomiya deganda, lingvistik modellardan holilik nazarda tutildi. J.Nuazega ko‘ra, avtonom psixolingvistik amallar ayni paytda ham kognitiv, ham kommunikatsion tabiatga ega bo‘ladi. Ular aniq muloqotda, nutqiy o‘zaro munosabatda amalga oshib, kognitiv xarakter kasb etadi. J.Meler ham psixolingvistikani kognitiv psixologiyaning tarkibi, deb hisoblaydi. J.Verch xabarni qayta ishlashda lingvistik va psixologik jihatlarni baravar yuz berishiga e’tiborini qaratadi.

Psixolingvistikaning uchinchi avlodi N.Xomskiyning ihtotalangan maktabini yengib o‘tib, psixolingvistik jarayonlarni tafakkur, muloqot, xotira singari keng qamrovda o‘rganadi. Shuning uchun ham ularning tadqiqotlarida, asosan, kognitiv psixologiyani rivojlantirishga qaratilgan nazariy asos yaratildi.

³³ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999. – С. 46.

Shunday qilib, psixolingvistikaning uchinchi avlodi o'zlaridan oldingi psixolingvistlarning nafaqat atomizm, balki individualizm nazariyasini ham yengib, o'z ustunliklarini ko'rsatishga muvaffaq bo'lishdi.

2. 5. L.S.Vigotskiy – rus psixolingvistikasining asoschilaridan biri

Psixolingvistikaning nazariy va metodologik asoslarini yaratilishida XX asrning yetuk olimlaridan bo'lgan Lev Semenovich Vigotskiyning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. L.S.Vigotskiy A.N.Leontev, A.R.Luriya, A.N.Sokolov, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, L.I.Bojovich, A.V.Zaporojes va h.k. olimlar faoliyat olib borgan rus psixolingvistika maktabining asoschisi hisoblanadi. Mazkur maktabning an'analari A.V.Petrovskiy, V.V.Davidov, N.I.Jinkin, V.P.Zinchenko, A.A.Leontev kabi olimlar tomonidan davom ettirildi. L.S.Vigotskiy va uning maktabi nafaqat rus, balki jahon psixologiyasi va pedagogikasining taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Rus psixolingvistikasining psixologik manbayi L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy ta'limoti bilan bog'liq. L.S. Vigotskiyga ko'ra, psixika moddiy mavjudod bo'lgan insonning funksiyasi, xususiyatidir. Inson psixikasi ijtimoiy bo'lib, uning o'ziga xosliklarini biologiyadan yoki "ruhlar qonuni"dan emas, kishilik tarixi, jamiyat tarixidan izlash kerak. L.S. Vigotskiyning qayd qilishicha, insonning psixik rivojlanishi uning umuminsoniy madaniy tajribani o'zlashtirish (bu asosan moddiy dunyoni, to'g'rirog'i narsa – buyumlarni o'rgana borishi) bilan bog'liq ravishda ro'y beradi. Inson butun hayoti davomida – bu, ayniqsa, uning bolalik yillarida yaqqol kuzatiladi. Dastlab bolalar fikrlayotganini biz ularning so'zlari va pichirlashi orqali bilib turamiz, chunki bu vaqtda ularning og'zi va lablari harakatda bo'ladi. Faqat 5-6 yoshlardagina bolalarda ichki nutq faol rivojlanadi va ular endi o'zi bilan o'zi ovoz chiqarib gaplashmasdan fikr qila ola boshlaydi. Bolalikda tafakkur va nutq bir-biriga chambarchas bog'liq, keyinchalik inson rivojlana borishi bilan tafakkur ma'lum ma'noda tildan ajrala boradi, mustaqil ko'rinishga ega bo'ladi (u yoki bu darajada ichki nutqiy reaksiyalardan holi bo'la boradi).

L.S.Vigotskiy o'zini psixologiyaning materialistik yo'nalishi vakillari qatoriga kiritgan edi. L.S.Vigotskiy insonning nutqiy faoliyatini o'rganish bilan eng ko'p shug'ullangan olim bo'lib, uning nutqqa psixologik yondashuvi psixolingvistik nazariyani

shakllantirishga olib keldi. Jumladan, L.S.Vigotskiyning “elementlar bo‘yicha tahlil” va “birliklarga ko‘ra tahlil” farqlari ta’limotining fanga kiritilishi, turli psixolingvistik maktablar tomonidan yaratilgan nutq yaratilishi va idrok qilinishining qator modellariga, shuningdek, nutqiy faoliyat tuzilishi unsurlarining ajratilishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

L.S. Vigotskiy ong tuzilishining tizimliliigi haqidagi tezisni shakllantiradi. Unga ko‘ra, belgilar tizimni tashkil qiladi. Belgilar bolalarga tug‘ma berilmagan, aksincha, ular ijtimoiy faoliyat jarayonlarida (dastlab juda ibtidoiy) o‘zlashtiriladi. Belgilar aynan tizim sifatida vujudga keladi, shuning uchun ham bolada shunchaki avval birinchi belgi, keyin ikkinchisi va h.k. paydo bo‘lmaydi. Har qanday yangi belgi oldindan tuzilgan tizimga kiradi va har gal tizimni o‘zgartiradi, aniqlashtiradi, mukammallashtiradi hamda murakkablashtiradi.

Nazorat uchun savollar:

1. V. fon Gumboldtning qaysi fikrlari nutqiy faoliyat nazariyasi uchun tayanch nuqta vazifasini o‘tadi?
2. V. fon Gumboldtning qaysi g‘oyasi L.S.Vigotskiy va A.R.Luriyalarning g‘oyalari uchun asos bo‘ldi?
3. “Yosh grammatikachilar” til hodisalarini qaysi tamoyilga ko‘ra hal qilishga urindilar?
4. I.A. Boduen de Kurtene tilni qanday mohiyat sifatida talqin qildi?
5. F. de Sossyur nutqiy faoliyatni qanday mohiyatlarga ajratdi?
6. L.V.Shcherba tilshunoslikning predmeti sifatida tilning qaysi jihatlarini ko‘rsatib berdi?
7. “Geshtalt” tushunchasi nimani ifodalaydi?
8. Bixeviorizm qanday ta’limot?
9. L. Blumfild kishining hayoti va faoliyatini qanday talqin qildi?
10. “Psixolingvistika” termini birinchi marta qachon va kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi?
11. Psixolingvistika qachon mustaqil fan sifatida e’lon qilindi?
12. Psixolingvistika birinchi avlodining o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
13. Qaysi olimlar psixolingvistikaning ikkinchi avlodi hisoblanadi?
14. Psixolingvistikaning uchinchi avlodi qanday psixologiyani rivojlantirishga asos soldi?
15. L.S.Vigotskiy ta’limotining ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?

Asosiy adabiyotlar

1. Blumenthal A. L. Language and psychology: Historical aspects of psycholinguistics. – New York: Wiley, 1970.
2. Matthew J. Traxler, Morton A. Gernsbacher. Handbook of Psycholinguistics. 2nd edition. – London: Elsevier, 2006. – 1184 p.
3. Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2008.
4. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Blumenthal A. L. The emergence of psycholinguistics // Synthese. -№ 72. 1987. – P. 313–323.
2. Osgood Ch. E. & Sebeok T.A. Psycholinguistics. A Survey of Theory and Research Problems. 2nd ed. – Bloomington, 1965.
3. Reber A. S. The rise and (surprisingly rapid) fall of psycholinguistics // Synthese. -№ 72. 1987. – P. 325-339.
4. Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 1968. – 608 с.
5. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч.: в 8 т. Т.2 – М., 1982.
6. Фон Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984.

3-MA'RUZA

AMERIKA PSIXOLINGVISTIK MAKTABI: BIXEVIORIZM, NEOBIXEVIORIZM

Reja:

1. Psixolingvistika – 54
2. Bixeviorizm, neobixeviorizm

Tayanch soʻz va iboralar: psixika, fiziologiya, bixeviorizm, neobixeviorizm, stimul, reaksiya, oraliq oʻzgaruvchi, assotsiativ munosabat, assotsianistik nazariya.

3. 1. Psixolingvistika – 54

1953-yilda AQShning Blumington shahridagi Indiana universitetida Charlz Osgud, Djon Keroll, Tomas Sibeok singari Amerikalik olimlarning tashabbusi bilan universitetlararo seminar tashkil qilindi va mazkur seminarda *psixolingvistika* termini rasman fan sifatida muomalaga kiritildi.

Bu davrda bir tomondan, deskriptiv lingvistika rad etilar, ikkinchi tomondan, deskriptiv anʼanalar bosim oʻtkazar edi. Deskriptivistlar va nodeskriptivistlar orasidagi eng shiddatli munoqashalardan biri “soʻz” masalasi edi, yaʼni soʻz oʻzi nima, soʻz til birligi sifatida mavjudmi? Deskriptivistika tomonidan ishlab chiqilgan tahlil amallari deskriptivistlarning “morfema” tushunchasi bilan kifoyalanib, “soʻz” tushunchasini inkor qilinishiga olib keldi. Vaholanki, til soʻzlashuvchilari soʻzning obyektiv reallik ekanligini his qilishadi. Pirovardida psixologiya “soʻz” tushunchasini, deskriptivistika esa “morfema” tushunchasi afzal koʻrdi. Deskriptiv lingvistikada eng kichik birlik fonema hisoblanadi. Holbuki, real vaziyatda segmentlangan nutq oqimining “tabiiy” birligi boʻgʻin hisoblanadi. Masalan, *dada* soʻzi fonemalarga (*d-a-d-a*) emas, boʻgʻinlarga (*da-da*) ajraladi. Sintaksis darajasiga chiqar ekan, deskriptiv lingvistika konstruksiya tushunchasini olib kirdi. Psixologlar esa yanada “sezilib, koʻrinib turadigan” gap bilan ishlashdi. Shunday qilib, ikki: lingvistik (fonema, morfema, konstruksiya) va psixologik (boʻgʻin, soʻz, gap) birliklar qatori yuzaga keldi. Psixolingvistika – 54 da ana shu ikki qatorning toʻqnashuvi muqarrarlashdi.

Boshqa tarafdin, XIX-XX asrlarda Yevropa psixologiyasining an'analarida tanazzul holati vujudga kelgan edi. Tabiiy fanlar, xususan, fizika, fiziologiyaning shiddatli rivojlanishi natijasida miya tuzilishi, uning mexanizmlar faoliyati haqidagi neyrofiziologik tasavvurlar jiddiy ishlab chiqilgandi. Bu bilan bir qatorda, psixik faoliyat sohasi ochiq, tushunarsiz edi. Psixika nima degani? Inson qanday o'ylaydi? Inson tafakkuri, tasavvuri, emotsiyalarining asosi nima? Bu sof fiziologiyami? Unda nima? Bular fanda yangicha talqin "psixofizik muammo"ni paydo qildi. Jumladan, fiziologik va psixologik hodisalar mavjud bo'lib, fiziologiyani aniq eksperimental metodlar bilan o'rganish mumkin. Bu "tabiat", "materiya". Uning yonida esa qandaydir ilg'ab bo'lmas psixologik jarayonlar. Odamlarning miyasi va bioximik jarayonlar bir xil ko'rinsa-da, har bir odam o'ziga xos psixikaga ega. Amerika bixeviorizmi (behavior "xulq, xatti-harakat") Yevropa klassik psixologiyasiga qarshi o'ziga xos reaksiya sifatida yuzaga keldi.

Shu bilan birga, 40-50-yillarda aholining keng ko'lamdagi ko'chishi natijasida turli qatlamlarga mansub kishilarga chet tillarni o'rgatishda qator muammoli savollar yuzaga keldi: Bolalarga necha yoshdan chet tilini o'rgatish mumkin? O'zga madaniyatlarni qanday o'zlashtirish mumkin? Yangi tilning tuzilishini o'rganishda ona tilidan tarjima amalga oshiriladimi yoki yangi tafakkur tuzilishi shakllanadimi? Tabiiyki, bunday savollarga chet tili o'qituvchilari javob bera olmasdilar. Ularni javoblash uchun psixologik bilim talab qilinardi. Aqli zaif, gung va ko'zi ojiz bolalarning ta'limida ham qator muammolar tug'ilgandi. Bu kabi muammolarni hal qilishda ham psixologning yordami lozim edi. Shuningdek, nutq buzilishining sabablarini o'rganishda va nutqni qayta tiklashda faqat tibbiyot xodimlarining yordamigina emas, balki psixolingvistlarning ham yordami zarur edi.

Yuqorida qayd qilingan sabablarning barchasi seminarining tashkil qilinishiga va psixolingvistikaning yangi fan sifatida shakllanishiga turtki bo'ldi. Ikki oy davom etgan seminarda psixolingvistikaning nazariy asoslari ishlab chiqildi va uning kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlari belgilab olindi. Ushbu seminar natijalari Ch.Osgud va T.Sibeok tahriri ostidagi "Psixolingvistika. Nazariya va tadqiqot muammolari ocherki" (Psycholinguistics: A Survey of Theory and Research Problems/ Ch.E.Osgood & T.A.Sebeok. –Baltimore, 1954)da e'lon qilindi. Seminar natijalari (keyinroq "Psixolingvistika – 54" deb

nomlangan) butun dunyodagi psixolingvistik tadqiqotlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

3. 2. Bixeviorizm, neobixeviorizm

Yevropa psixologiyasidan farqli o'laroq, Amerika psixologiyasi (bixeviorizm) o'zining aniq pragmatik yo'nalishini insonni o'rganib, uning psixofiziologik imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga qaratdi³⁴. Bixeviorizmga ko'ra, mahluqqa (bu odam yoki jonivor bo'lishi mumkin va h.k.) ta'sir qiladigan qandaydir S (stimul) va ushbu stimulga qandaydir R (reaksiya) bor. Nutq tahliliga bixevioristik yondashuv namunasi sifatida amerikalik tilshunos Leonard Blumfildning "Til" (1968) asarini keltirish mumkin. L.Blumfild o'zining mazkur asarida "Djek va Djill" misoli orqali stimul va reaksiya munosabatini yoritib bergan. Kishilar bir-birlari bilan amaliy (nutqsiz) va nutqli stimullar yordamida o'zaro munosabatga kirishadi. Ular mazkur stimullarga ikki xil: nutqli va nutqsiz harakatlar bilan javob qaytarishadi:

nutqsiz reaksiya $S \longrightarrow R$

nutq vositasidagi reaksiya $S \longrightarrow r \dots\dots\dots s \longrightarrow R$.

Keyinroq bixeviorizmga yangi oqim – neobixeviorizm (yunoncha neos – “yangi” va inglizcha behaviour – “xulq, xatti-harakat”) vujudga keldi. Bu oqim “qora quti”ning ichiga kirish zarurati tufayli shakllandi. Neobixevioristik tadqiqotlarda bixeviorizmning prinsipial S – R sxemasi mohiyatan murakkablashtirilib, S – R orasida nimadir borligi aniqlandi va “oraliq o'zgaruvchi” tushunchasi paydo bo'ldi. Gap endi shunchaki tashqi stimul va reaksiya haqida emas, balki insonda tashqi reaksiya chaqira oladigan va insonning o'ziga xos individual tajribasini aks ettiradigan (shuning uchun ham turli kishilarning reaksiyalari farqli bo'ladi) oraliq o'zgaruvchi, ya'ni organizm ichidagi maxsus *ichki stimul* tushunchasi haqida boradi³⁵.

Xullas, oraliq o'zgaruvchining bilvosita ta'siri natijasida tashqi reaksiya yuzaga keladi: S1-r1..... Sn-Rn. Bu o'rinda obraz, maqsad, ehtiyoj, intellekt, kutish, muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik kabi tafakkur doirasining fenomeni bo'lgan tushunchalar faol qo'llaniladi.

Ch.Osgudning nazariyasi ana shu bixeviorizmga, aniqrog'i, neobixeviorizmga tayangan bo'lib, undan to'g'ri assotsiativ strukturalarga chiqildi. Ch.Osgud insonning psixikasida kuzatish va

³⁴ Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989. – С. 17.

³⁵ Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989. – С. 17-18.

tasvirlash mumkin bo'lmagan hech narsa yo'q, deb hisobladi. Shundan kelib chiqqan holda so'zlarning konnotativ ma'nosini (baholash, ekspressiv, uslubiy munosabat va h.k.) o'lchab ko'rishga harakat qildi va semantik differensiya metodini ishlab chiqdi. So'zlarning gradatsiyasini belgiladi. Masalan, 1-yaxshi, 2-neytraldan yaxshiroq, 3-yaxshidan neytralroq, 4-neytral, ya'ni yaxshi ham, yomon ham emas, 5-yomondan neytralroq va h.k. Shuningdek, so'zlarni turli mezonlarga ko'ra baholash amalga oshirildi: *ona* so'zi *otaga* nisbatan iliqroq, *ota* so'zi *onaga* nisbatan kuchliroq. Qayd qilinganlar bilan birga, har bir tovush ham muayyan emotsional reaksiyani keltirib chiqaradi.

Ch.Osgudning fikricha, insonning psixikasi uchun stimul va reaksiyaning assotsiativ munosabati, shuningdek, foydali stimullarga bo'lgan barcha reaksiyalarning majmuyi muhimdir. Bundan inson hayvondan faqat nutqi bilangina farqlanadi degan xulosa kelib chiqadi. Uni quyidagi sxema orqali izohlash mumkin:

S (stimul) – R (reaksiya). Ya'ni har qanday stimul insonda o'lchash mumkin bo'lgan reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

Nutqda individning psixikasiga xos xususiyatlar aks etadi; verbal munosabatlarning tuzilishi individning psixikasiga bog'liq bo'ladi. Ch.Osgud so'zlarning assotsiativ aloqalarini tadqiq qilish orqali kommunikatsiya samaradorligi masalasini hal qilishga urindi va o'zining nutq haqidagi ta'limotini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, nutq insonning turli nutqiy va nutqiy bo'lmagan stimullarga nisbatan bevosita va bivosita reaksiyalar tizimidir. Reaksiyalar tizimi nutqiy va nutqiy bo'lmagan stimullar orasidagi assotsiativ aloqalarning shakllanishi natijasida yuzaga keladi. Nutq faoliyati nutq stimulini (kirishda) yoki nutq reaksiyasini (chiqishda) ushlab turadigan va qayta shakllantiradigan maxsus filtrlar tizimi (tug'ma nutq qobiliyati) vositasida namoyon bo'ladi. Ya'ni inson genetik jihatdan nutqni qabul qilishga moyil va u nutqni turli shovqinlardan ajrata oladi. Nutq inson qabul qilayotgan informatsiyani chegaralashga yordam beradi.

Umuman, Ch.Osgudning assotsianistik nazariyasi uch manbaga asoslangan edi:

- 1) psixolingvistik manba – bixeviorizm;
- 2) lingvistik manba – deskriptiv lingvistika;
- 3) matematik manba – kommunikatsiya nazariyasi.

Ch.Osgud nazariyasida quyidagi kamchiliklar mavjud edi:

- 1) Osgud so'zlovchining niyatini o'rganmadi;

- 2) Osgud mazmun bilan bilimni chegaralamadi;
- 3) u til qobiliyatini kognitiv (bilish) bazasi bilan qiziqmadi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Psixolingvistika” termini qachon rasman fan sifatida muomalaga kiritildi?
2. Deskriptivistlar va nodeskriptivistlar munoqasha qilgan masala nima edi?
3. Qanday sabablar seminarining tashkil qilinishiga va psixolingvistikaning yangi fan sifatida shakllanishiga turtki bo‘ldi?
4. Seminar natijalari qaysi asarda nashr qilindi?
5. Bixeviorizm qanday yo‘nalish?
6. Neobixeviorizm oqimining mohiyati nimada edi?
7. Ch.Osgudning nazariyasi nimaga tayangan edi?
8. Ch.Osgud so‘zlarning assotsiativ aloqalarini tadqiq qilish orqali qaysi masalani hal qilishga urindi?
9. Ch.Osgudning assotsianistik nazariyasi qanday manbalarga asoslangan edi?
10. Ch.Osgud nazariyasida qanday kamchiliklar mavjud edi?

Adabiyotlar

1. Овчинникова И.Г. Ассоциации и высказывание: структура и семантика. – Пермь, 1994.
2. Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989.
3. Фрумкина Р.М. Психолингвистика. – М., 2001.
4. Osgood Ch. E. & Sebeok T.A. Psycholinguistics. A Survey of Theory and Research Problems. 2nd ed. – Bloomington, 1965.
5. Osgood Ch.E. Psycholinguistics // Psychology: a Study of Science. – New York, 1963. V.6.
6. <http://en.wikipedia.org/wiki/Psycholinguistic>.

4-MA'RUZA

JORJ MILLER VA NOAM XOMSKIY TRANSFORMATSION MAKTABI

Reja:

1. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi
2. Jorj Millerning kommunikatsiya modeli

Tayanch soʻz va iboralar: transformatsion grammatika, sintaktik model, yadro gap, transforma, aktiv konstruksiya, passiv konstruksiya, botiniy struktura, zohiriy struktura, lisoniy qobiliyat, lisoniy faollik, mantiqiy muammo, xatti-harakatni rejalashtirish, individualizm.

Amerika psixolingvistika maktablaridan yana biri J. Miller va Noam Xomskiy transformatsion yoʻnalishidir. Psixolingvistikaning ikkinchi avlodi hisoblangan mazkur yoʻnalish 60-yillarda shakllangan Transformatsion yoʻnalish namoyandalari Ch. Osgud psixolingvistikas baholab: “qoʻshni soʻzlar orasidagi assotsiatsiyalar nutqni va uning yuzaga kelishini tushuntirib bera olmaydi” degan xulosaga kelishdi.

4. 1. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi

Amerikalik tilshunos Noam Xomskiy (Noam Chomsky) transformatsion grammatika (yoki transformatsion-generativ grammatika), deb nomlanuvchi nazariyani taklif qildi. N.Xomskiyning fikricha, “til – til birliklari va ularning sinflari majmuyi emas, balki toʻgʻri jumlar tarkib toptiradigan mexanizm”. Sintaksisni Xomskiy jumlar tuzish tamoyillari va usullari haqidagi taʼlimot sifatida belgiladi.

N.Xomskiyning 1957-yilda nashr qilingan “Sintaktik strukturalar” (“Syntactic Structures”) asari jahon tilshunosligida yangi yoʻnalishga asos soldi. Mazkur tadqiqotda Xomskiy “tilning barcha gaplarini bilish mumkin emas, til asosida ayrim cheklangan qoidalar tizimi boʻlishi kerak” degan fikrni ilgari suradi. “Bu qoidalar tizimi esa tilning grammatikasi demakdir. Soʻzlovchi ham tinglovchi ham muloqot

jarayonida grammatikani uning vositasida “to‘g‘ri” ifoda qurish, yoki “to‘g‘ri” qurilgan ifodani tushunish uchun vujudga keltiradi”:

1) *pie little blue mud make eye girl was*

non kichkina moviy qum yasamoq ko‘zli qizcha

2) *The little pie with mud eyes was making a blue girl.*

Kichkina non qum ko‘zli moviy qizcha yasar edi.

3) *The little girl with blue eyes was making a mud pie.*

Moviy ko‘zli kichkina qizcha qumdan non yasar edi.

Eshitilgan tovushlar oqimi mazkur til grammatikasini bilgandagina ma’no kasb etadi.

Xomskiyga ko‘ra, har bir tilda mavjud bo‘lgan son-sanoqsiz gaplar, nutq so‘zlovchisining yangi-yangi gaplarni cheklanmagan darajada yarata olish qobiliyati bilan bog‘liqdir. Bu o‘rinda ma’no anglatmagan jumlar ham grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, har bir kishi o‘zining nutqiy faoliyati jarayonida shu paytgacha eshitilmagan yangidan-yangi gaplarni yaratishi mumkin va bu yangi gap tinglovchi tomonidan to‘g‘ri tushuniladi.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘ilishi mumkin: Tinglovchi qanday qilib shu paytgacha eshitmagan yangi gaplarni tushunadi? Buning asosiy sababi shundan iboratki, tilda mavjud bo‘lgan cheklanmagan miqdordagi gaplar, ma’lum miqdordagi gaplar, ma’lum miqdordagi elementar sintaktik modellardan paydo bo‘lgan va elementar sintaktik modellarning (yadro gaplar) soni chegarali va amalda bir nechta bo‘lishi mumkin³⁶.

Shunga ko‘ra, Xomskiy gaplarni *yadroli* va bu yadrodan qayta o‘zgargan, uning *transformasi* bo‘lgan gaplarga ajratdi. *Yadro* gaplar, deb sodda, yig‘iq, darak gaplar tushuniladi. Fe’l kesimli gap bo‘lsa, kesimi aniq nisbatda turadi. Bu eng kichik gaplar har bir tilning sintaktik tizimining asosini tashkil qiladi. Masalan, *Ishchilar uy qurishyapti* gapi *yadro* gapga misol bo‘ladi. Bunda N1 N2 V. Bu aktiv konstruksiya hisoblanadi.

Yadro gaplardan turli shakliy o‘zgarishlar asosida asosiy ma’noni saqlagan holda ikkilamchi sintaktik qurilmalarning hosil qilinishi transformasiya deyiladi. Masalan, *Uyni ishchilar qurishyapti*. N2 N1 V. Bu konstruksiya passiv bo‘lib, u transformasiya amali natijasida hosil qilingan.

Shuningdek, quyida keltirilgan misollar ham transformalar sanaladi:

³⁶ Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 126.

Qushlar sayrashyapti → Qushlarning sayrashi

(Kimdir) til o'rganyapti → Til o'rganish

(Kimdir) yozuvchini taklif qilyapti → yozuvchini taklif qilish

Qayd qilingan barcha transformatsiyalarda fe'l harakat nomiga aylangan, ya'ni otlashish amali vujudga kelgan.

Modelning 1-variantiga leksika ham fonetika ham kiritilmagan edi. Bularning barchasi bir necha yildan keyingi ikkinchi modelda paydo bo'ladi. Ushbu modelda bevosita kuzatishdan yashirin bo'lgan – *botiniy* struktura g'oyasi ilgari suriladi³⁷. N.Xomskiy transformatsion tahlil doirasida til tizimidagi har qanday jumlani *botiniy* va *zohiriy* strukturaga ajratadi. *Botiniy* strukturani tushunchalarning ma'no tomoni, *zohiriy* strukturani esa muomaladagi so'zlar bilan aloqador qiladi. Ya'ni *zohiriy* struktura bu – biz eshitadigan va o'qiydigan jumlar, *botiniy* struktura esa jumlaning ma'nosi bilan bog'liq tomoni. *Botiniy* strukturalar *zohiriy* strukturalarda shunchaki qayta tiklangan yoki transformalar shaklida qayta tiklangan bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, realizatsiya qilingan matnda aks etmagan, biroq qandaydir holatda, botinda nimadir mavjud. Masalan, *zohiriy* strukturasi turlicha bo'lgan va *botiniy* strukturasi esa bir xil bo'lgan gaplar (1 va 2), shuningdek, birgina *zohiriy* strukturaga (3) va ikkita *botiniy* strukturaga ega (4 va 5) jumlar mavjud:

(1) *Politsiya namoyishni tarqatib yubordi.*

(2) *Namoyish politsiya tomonidan tarqatib yuborildi.*

(3) *Uning hibsga olinishi.*

(4) *U hibsga olindi.*

(5) *U hibsga oldi.*

N. Xomskiyga ko'ra, transformatsion tahlil sintaktik strukturalarning *zohiriydan botiniyga* aylanish yo'li bilan tahlil qilishdir. Haqiqatan ham nutq va tafakkur jarayonlarida *botiniy* strukturaning o'rni mavjud. Biroq ushbu "*botiniylik*"ning qanday va qayerdan paydo bo'lganligi tadqiq qilinmaydi. Ya'ni Xomskiyning modelida hali "tafakkur" yo'q.

N. Xomskiyning dastlabki tadqiqotlarida hali hech qanday psixologiya yo'q edi. Uning transformatsion modeli tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solish imkoniyatinigina yaratgandi. Keyinroq N. Xomskiy asta-sekin insonning nutqiy faoliyati muammolari bilan qiziq boshladi.

³⁷ Chomsky N. Aspects of Theory of Syntax. – Cambridge, 1965. – P. 141.

N. Xomskiy F.de Sossyurning til-nutq dixatomiya-siga muqobil bo'lgan *lisoniy qobiliyat (linguistic competence)* va *lisoniy faollik (linguistic performance)* tushunchalarini rivojlantirdi. U lisoniy qobiliyatni tilshunoslik sohasiga, lisoniy faollikni psixologiya sohasiga aloqador qildi va lisoniy qobiliyatni mazkur tilda so'zlashish qobiliyatini tashkil qiluvchi, lisoniy faollikni esa til egasi tomonidan yaratiladigan ifodalar sifatida izohladi³⁸.

Ma'lumki, kishi tovushlar birikuvi, so'zlar bog'lanishi, umuman, tildagi so'zlar tizimining qo'llanishini onasidan, tevarak-atrofidagi yaqinlaridan eshitib o'z ona tilini o'zlashtiradi (ayni holat tilshunos yoki tilni o'rganuvchi har qanday kishida ham kuzatiladi). Bunday tizimdan foydalanish natijasida inson ona tilidagi cheksiz so'z turkumlari, jumlar va matnlarni hosil qilish qobiliyatini egallab boradi. Shunga ko'ra, lisoniy qobiliyatni so'zlovchi va tinglovchi til bilimining potentsiali, deb izohlash mumkin.

N. Xomskiy lisoniy faollikni "aniq sharoitlarda tilning kundalik qo'llanishi", - deb tushuntiradi. Lisoniy faollik nutqiy faoliyatda lisoniy qobiliyatni amalga oshirishda yuz beradigan jarayondir. Ya'ni lisoniy faollik ona tilini o'zlashtirgan kishi egallagan til bilimlarini amalda qo'llay olishidir.

N.Xomskiy "lisoniy qobiliyat birlamchi bo'lib, u lisoniy faollikni belgilaydi", - deb hisobladi. Transformatsion grammatika tarafdorlari ham asosiy urg'uni lisoniy qobiliyatga berishdi.

Umuman, N. Xomskiyning g'oyalari psixolingvistikani uch jihatdan shakllantirdi:

- tilning bixevioristik talqiniga va tilshunoslik nazariyalariga tanqidiy yondashishlar kognitiv fanlarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi;

- N.Xomskiy tomonidan tilni o'zlashtirish masalasi mantiqiy muammo sifatida shakllantirildi;

- eksperimental psixolingvistikaning asosida transformatsion model yotardi.

4. 2. Jorj Millerning kommunikatsiya modeli

Psixolingvistikada transformatsion yo'nalishning asoschisi nutqiy faoliyat sohasida qator tadqiqotlar olib borgan psixolog Jorj Miller

³⁸ Chomsky N. Aspects of Theory of Syntax. – Cambridge, 1965. – P. 141.

(George Miller) hisoblanadi. J.Millerning ta'limoti N.Xomskiyning transformatsion grammatikasiga asoslangan edi.

J.Miller kommunikatsiyaga quyidagicha yondashadi:

1. Inson o'z fikrini nutqqa chiqarishdan oldin aytadigan gaplarining dasturini tuzadi. Bunday dastur "reja", deb nomlanadi. Aytiladigan gaplarning rejasi bo'lganda, nima deyish haqida aniq tasavvurga ega bo'linadi. Boshqacha aytganda, so'zlovchi aytmoqchi bo'lganlari haqida qandaydir obrazga ega bo'ladi va rejani amalga oshirish jarayonida u bunga yaqinlashishga harakat qiladi.

Nutqning kelib chiqishi passiv reaktivlik uchun xos bo'lgan assotsiativ aloqalar tizimi bilan emas, balki rejalashtirilgan xatti-harakatning xususiyati bilan aniqlanadi. J.Miller transformatsion hosilalarni tahlil qilish orqali xatti-harakatni rejalashtirish jihatini ajratib ko'rsatadi va insonning shunchaki reaktivligiga emas, aksincha, aktivligiga urg'u beradi.

2. Ch.Osgud uchun asosiy hisoblangan xabarni ochib berishning statistik mezonlari J.Miller uchun muhim ahamiyat kasb etmaydi. U uchun ifodani transformatsion qayta hosil qilishning qat'iy algoritmik qoidalari muhimdir. Ushbu qoidalarni to'g'ri bajarish natijasida avtomatik ravishda grammatik to'g'ri transformatsiya olinadi.

3. J.Millerning psixolingvistikasida Ch. Osgud tomonidan oxiriga yetkazilmagan nutqni qabul qilish va nutqni ishlab chiqish jarayonlarining birligi haqidagi tasavvurga qadam tashlanadi.

4. Ch.Osgudning atomizm konsepsiyasi bartaraf qilinadi.

5. Assotsianistik psixolingvistika so'z strukturasi bilan shug'ullangan bo'lsa, transformatsion psixolingvistika so'zdan butun ifodalarga, jumalarga, yoxud transformatsion o'zgarishlarga ko'tariladi.

Ch.Osgud ta'limotida hamma narsa o'rganish g'oyasi asosida, J.Miller ta'limotida esa tug'ma mexanizmlar asosida har qanday strukturadagi tilni egallash mumkin. Hayvonlar orasida katta bo'lgan bolalarning nutqi bo'lmaydi. Agar bola 3-4 yoshgacha til asoslarini o'zlashtirmasa, u til o'rganish imkoniyatini biologik jihatdan yo'qotadi.

Transformatsion psixolingvistika uchun ham xuddi assotsianistik psixolingvistika singari nutq mexanizmlarini talqin qilishda individualizm xosdir. J.Millerning psixolingvistikasida so'zlovchi kishi Robinzon bo'lib qoladi. Til faoliyatida tug'ma qoidalar g'oyasi muhim o'rin tutadi (shuning uchun ham transformatsion yo'nalishning tadqiqotchilari bolalar nutqiga katta e'tibor berishadi).

Nazorat uchun savollar:

1. Psixolingvistikaning transformatsion yo‘nalishi nechanchi yillarda shakllandi?
2. Transformatsion yo‘nalish namoyandalari Ch.Osgud psixolingvistikasini qanday baholashdi?
3. Transformatsion grammatika nazariyasi kim tomonidan taklif qilindi?
4. Sintaksisni N.Xomskiy qanday ta’limot sifatida belgiladi?
5. N.Xomskiyning “Sintaktik strukturalar” asari nechanchi yilda nashr qilingan va mazkur tadqiqotda qanday fikr ilgari surildi?
6. Yadro gaplar deganda qanday gaplar tushuniladi?
7. Transformatsiya nima?
8. N.Xomskiy transformatsion tahlil doirasida til tizimidagi jummalarni qanday strukturalarga ajratdi?
9. N.Xomskiy F.de Sossyurning til-nutq dixatomiyasiga muqobil bo‘lgan qaysi tushunchalarni rivojlantirdi?
10. N.Xomskiyning g‘oyalari psixolingvistikaning qaysi jihatlarini shakllantirdi?
11. J.Millerning ta’limoti qaysi nazariyaga asoslangan edi?
12. J. Miller kommunikatsiyaga qanday yondashdi?

Adabiyotlar

1. Баскаков Н.А., Содиқов А.С., Абдуазизов А.А. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999.
3. Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989.
4. Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. –М., 1962. Вып. 2.
5. Chomsky N. Syntactic Structures. – Den Haag, 1957.
6. Chomsky N. On the notion “rule of grammer”// Proceedings of Symposia in applied mathematics V.12. – Providence, 1961.
7. Chomsky N. Aspects of Theory of Syntax. – Cambridge: Mass.,1965.

II BOB. NUTQIY FAOLIYAT NAZARIYASI ASOSLARI

5-MA'RUZA

NUTQIY FAOLIYAT INSON FAOLIYATINING MAXSUS TURI SIFATIDA

Reja:

1. “Nutqiy faoliyat” tushunchasi
2. Nutqiy faoliyatning tuzilishi
3. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi
4. Nutqiy faoliyat turlari
5. Nutqiy faoliyatning predmetlik (psixologik) mohiyati
6. Nutqiy faoliyatda til va nutqning funksiyalari

Tayanch soʻz va iboralar: faoliyat, nutqiy faoliyat, ongli faoliyat, nutqiy ifoda, til va nutq, muloqot shakli, til belgilari, stimul-vosita, xabar, soʻzlovchi va tinglovchi, bosqichli tuzilish, qoʻzgʻatuvchi-motivatsion, yoʻnaltiruvchi-tadqiqot, ijro, ehtiyoj, motiv, nutq niyati, faoliyatni dasturlash, nutqni rejalashtirish, mexanizm, miya mexanizmi, nutq mexanizmlari, nutqni anglash, nutqni xotirada tutish, nutqni oldindan aytish, soʻzlash, eshitish, yozish, oʻqish, verbal muloqot, tugʻma tayyorgarlik, kommunikativlik, nutqiy kommunikatsiya, ichki nutq.

5. 1. “Nutqiy faoliyat” tushunchasi

F. de Sossyur tomonidan til va nutqning farqlanishi psixolingvistik tadqiqotlarda “nutqiy faoliyat” tushunchasining yanada aniqroq boʻlishiga oʻz taʼsirini koʻrsatdi. A.A.Leontev fikriga koʻra, F.de Sossyur nutqiy faoliyatni til va lisoniy qobiliyatning birligi sifatida tushuntirgan. L.V.Shcherba esa nutqiy faoliyatni soʻzlash va tushunish jarayonlarining umumlashmasi, deb belgilagan³⁹. Ye.S.Kubryakovaning taʼkidlashicha, aynan L.V.Shcherba til hodisalariga oid boʻlgan nutq, uning real asosi hamda nutqiy jarayon mahsulini ajratib koʻrsatgan. Shuningdek, olim *nutqiy faoliyat* termini ostida nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha hodisalarni tushunish kerakligini alohida qayd etgan⁴⁰.

³⁹ Основы теории речевой деятельности. – М., 1974. – С. 64.

⁴⁰ Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – М., 1986. – С. 9.

A.A.Leontev nutqiy faoliyatni “nutqiy jummlarning nutqiy bo‘lmagan subyektiv kodlar orqali dasturlashtirilishi” sifatida baholaydi⁴¹ va uni predmetlik, aniq bir maqsadga qaratilganlik, motivlashganlik, pog‘onalilik hamda bosqichlilik singari alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan, boshqa inson faoliyatlari chog‘ida muloqot vositasi sifatida tildan foydalanish jarayoni, deb izohlaydi. “Nutqiy faoliyat o‘zining barcha mezonlariga ko‘ra, masalan, tashkil bo‘lishiga ko‘ra eng murakkab faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Nutqiy faoliyat mustaqil, tugallangan faoliyat akti sifatida kamdan-kam holatlarda namoyon bo‘ladi. U odatda, faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadi. Jumladan, odatdagi nutqiy ifoda boshqa odamning xatti-harakatini boshqaruvchi ifoda hisoblanadi. Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, bunday boshqaruv muvaffaqiyatli tamomlangandagina faoliyat tugallangan sanaladi. Masalan, stolda yoningizda o‘tirgan kishidan bir bo‘lak non uzatib yuborishini iltimos qildingiz. Agar bu holatga butunligicha qaraladigan bo‘lsa, faoliyat akti hali tugallanmagan. Yoningizda o‘tirgan kishi nonni sizga uzatib yuborgandagina maqsadga erishilgan bo‘ladi”⁴².

I.A.Zimnayaga ko‘ra, *nutqiy faoliyat* faol, aniq bir maqsadga qaratilgan, til vositasida amalga oshiriladigan va holatlardan kelib chiqqan holda insonlar o‘rtasida o‘zaro ta’sir qilish, muloqot qilish jarayonidir. Nutqiy faoliyat boshqa kengroq masalan, ijtimoiy-ishlab chiqarish (mehnat), bilish faoliyatiga ham kirishi mumkin. Biroq u mustaqil faoliyat bo‘lishi mumkin. Nutqiy faoliyatning har qaysi turi o‘zining “kasbiy timsoli”ga ega bo‘ladi, masalan, gapirish - ma’ruzachining, yozish - yozuvchining kasbiy faoliyatini ko‘rsatadi⁴³.

Umumiy psixologiyada nutq insonlar moddiy faoliyatining shakllanishi jarayonida tarixan vujudga kelgan til vositasidagi muloqot shakli, deb belgilanadi. Nutqiy faoliyat deganda til belgilari “stimulvosita” sifatida ishtirok etadigan faoliyatni tushunish mumkin. Bu faoliyatda nutqiy ifodalar shakllanadi va ulardan oldimizga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun foydalanamiz. Nutq to‘liq muloqot yoki

⁴¹ Леонтьев А.А. Речевая деятельность // Основы теории речевой деятельности. – М., 1974. – С. 25.

⁴² Леонтьев А.А. Психофизиологические механизмы речи //Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. – М., 1970. – С. 314-370.

⁴³ Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2008. – С. 33.

xususiy faoliyatni to'liq boshqarish va nazorat qilish uchun xabarni yaratish va uni qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy psixologiya nutqni universal muloqot vositasi, nutqiy ifodani hosil qiladigan va uni qabul qiladigan ikki subyekt ishtirok etadigan ongli faoliyatning murakkab shakli sifatida talqin qiladi. Psixolingvistikani tilning "subyektiv" jihat, uning aniq nutqiy ifodaning shakllanishidagi roli qiziqtiradi.

Nutqiy faoliyatga berilgan ta'riflardan ko'rinadiki, u ba'zan turg'un hodisa sifatida (masalan, matn), ba'zan esa harakatdagi hodisa sifatida (masalan, so'zlash va eshitish) talqin qilinadi. Nutqiy faoliyatga berilgan mazkur ilmiy ta'riflar bir-biridan turli jihatlariga ko'ra farq qilsa-da, ularning barchasida ikki omil, ya'ni so'zlovchi va tinglovchi faoliyati nazarda tutilganligini ko'rish mumkin⁴⁴.

5. 2. Nutqiy faoliyatning tuzilishi

Insonning barcha boshqa faoliyatlari kabi nutqiy faoliyat ham darajali yoki bosqichli tuzilishga ega. I.A.Zimnayaning fikricha, nutqiy faoliyat *qo'zg'atuvchi-motivasion, yo'naltiruvchi-tadqiqot* va *ijro* kabi uch bosqichdan tuzilgan bo'ladi.

Birinchi bosqichda faoliyat ehtiyojlar, motivlar va maqsadlarning o'zaro ta'sirida amalga oshadi. Bunda faoliyatning asosiy manbasi ehtiyojdir. Umumiy psixologiyada ehtiyoj shaxsni faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan xohishi, intilishi, urinishi, deb izohlanadi. Buni nutqiy faoliyatga "gapirishni xohlayman" yoki "jim turolmayman" ko'rinishida tatbiq qilish mumkin.

Nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlarida uning asosiy manbasi kommunikativ-bilish ehtiyoji va unga mos bo'lgan kommunikativ-bilish motivi hisoblanadi. Bu ehtiyoj nutqiy faoliyatning predmetida o'z o'rniga ega bo'lgandagina fikrlar mazkur faoliyatning motiviga aylanadi.


Nutqiy faoliyat birinchi bosqichining muhim tarkibiy qismlaridan biri *nutq niyati* bo'lib, u ehtiyojni nutqning turg'un motiviga aylanishida katta rol o'ynaydi. Nutq niyati nutqiy faoliyat subyektining bu faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan ongi, irodasi va hissidir.

Nutqiy faoliyatning *ikkinchi bosqichini* faoliyatni amalga oshirish sharoitlarini o'rganishga, faoliyat predmetini aniq belgilashga va uning xususiyatlarini yoritishga qaratilgan *yo'naltiruvchi-tadqiqot* (yoki

⁴⁴ Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – М., 1986. – С. 25.

analitik) qism tashkil qiladi. Ayni paytda bu bosqich nutqiy faoliyatning rejalashtirilishi, dasturlanishi va ichki-ma'noviy tuzilishidir.

Bu bosqichning birinchi unsuri nutqiy faoliyat subyekti bu faoliyatni sharoitlarda amalga oshirishdagi (birinchi galda nutqiy kommunikatsiya sharoitida) turlicha plandagi yo'nalishini ko'zda tutadi. U nutqiy faoliyat subyekti yo'nalishining quyidagi savollar bo'yicha "Kim bilan", "Qayerda", "Qachon", "Qaysi vaqt oralig'ida" nutqiy faoliyat amalga oshirishini ko'zda tutadi. Ikkinchi bosqichdagi mazkur unsurning sxemasini quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Mazkur bosqichning ikkinchi unsuri nutqiy faoliyat doirasidagi muhim ongli harakatlar – nutqiy ifodalarni rejalashtirish va dasturlashga asoslanadi. Psixologiyada rejalashtirish faoliyatning (nutqiy harakatlar va ularni tarkib toptiruvchilar) asosiy bosqichlarini ajratishga va ularni amalga oshirishdagi ketma-ketlikni aniqlashga qaratilgan aqliy harakat sifatida tushuniladi. Umuman, harakatlar ikki xil tashqi (masalan, amaliy) va ichki (aqliy) bo'ladi. Genetik jihatdan aqliy harakatlar (faoliyat tizimidagi) tashqi harakatlardan (masalan, nutq organlarining faolligi) kelib chiqqan bo'lib, ular oxirgi interiorizatsiya (lot. interior— ichki; tashqi ijtimoiy strukturalarni o'zlashtirish natijasida inson psixikasining ichki strukturasining shakllanishi) jarayonining natijasi sanaladi.

O'z navbatida faoliyatni dasturlash tuzilgan rejani kengaytirish, faoliyat dasturiga aylantirishni bildiradi. Bu o'rinda rejalashtirish

sifatida nutqning turli shakllari va ko‘rinishlari, dasturlash sifatida til belgilari ishtirok etadi.

Nutqni rejalashtirishga yoyiq nutqiy ifodaning (to‘liq matnning) rejasini tuzish, unda bayon qilinajak asosiy ma’noviy qismlarni (matn tarkibidagi ost sarlavhalar, abzaslarni) aniqlash misol bo‘la oladi. Bunga matnning kompozision tuzilishida ishtirok etadigan kirish, asosiy qism, xulosa va ularning asosiy ma’nosini umumlashtirish va aniqlash ham kiradi. Keyin ifodani dasturini tuzishda bu asosiy ma’noviy qismlar predmetlik mohiyati nuqtayi nazaridan (matnni mikromavzularga, ma’noli axborot unsurlarga va h.k. ajratish asosida) batafsil aniqlashtiriladi; shuningdek, nutqiy faoliyatdagi nutq predmetining ifoda shakli tanlanadi, nutq uslubi aniqlanadi, ba’zi til ifoda vositalari tanlanadi.


Uchinchi bosqich ijro bosqichidir. Bu bosqich nutqiy ifodalarni amalga oshirish (yoki qabul qilish va tushunish)ni, shu bilan birga, faoliyatni amalga oshishini va uning natijalarini nazorat qilish amallarini o‘z ichiga oladi.

5.3. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi

So‘nggi yillarda “mexanizm” so‘zi falsafa, psixologiya, psixolingvistika va lingvistika sohalarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Biroq tadqiqotchilarning hech biri mazkur so‘zga aniq ta’rif bermagan. Uning ma’nosini faqat kontekstga qarab chiqarib olish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar *mexanizm* ostida biron narsaning tuzilishini, uning struktura xususiyatlarini tushunishsa, boshqalari ayrim harakat va amallar yoki jarayonlar majmuyini, yana bir guruh mualliflar esa struktura va jarayonlarning o‘zaro munosabatini, struktura, jarayon va uning natijalari, funksiyalari va ijtimoiy sharoitlarni tushunishadi. I.A.Zimnayaning ta’kidlashicha, “*miya mexanizmi*”, *nutq mexanizmlari*” va h.k. metaforik ma’noda qo‘llaniladi. Aslida “mexanizm” tushunchasi “biron narsani biron nima vositasida harakatga keltirish”ni ifodalaydi⁴⁵.

Nutq oliy psixik funksiyalarning eng murakkab shakllaridan biri sanaladi. Nutqiy faoliyat ko‘p ma’nolilik, ko‘p darajali struktura, harakatchanlik va boshqa psixik funksiyalar bilan aloqadorligi bilan tavsiflanadi. Nutqiy faoliyatning amalga oshishi qator murakkab psixologik mexanizmlar bilan ta’minlangan bo‘ladi.

⁴⁵ Зимняя И. А. Психология обучения неродному языку. – М., 1989. –С. 166.



Nutqni anglash nutqiy faoliyatning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Bu mexanizm nutqning mazmun (birinchi navbatda) hamda tuzilish tomonini fikrlash analizi bilan ta'minlaydi. Nutqni anglash mexanizmi miya katta yarim shari qobig'ining analitik-sintetik faoliyati vositasida – barcha asosiy aqliy harakatlar va amallarning ta'siri (qiyoslash, taqqoslash, to'ldirish, tasniflash, analiz va sintez) orqali amalga oshiriladi. Anglash uchun birinchi navbatda nutq predmeti (nutqiy faoliyatda borliqdagi fragment, hodisa, voqealarni aks ettiradigan) lozim bo'ladi. Mazkur mexanizm asosida nutq kommunikatsiyasining motivi va maqsadi to'liq ravishda tushuniladi. Nutqiy faoliyat va uning natijalarini nazorat qilish mumkin bo'ladi. Shuningdek, bu mexanizmning ishtirokisiz nutqiy faoliyatni rejalashtirish va dasturlashni amalga oshirib bo'lmaydi.

Nutqni xotirada tutish, shuningdek, nutqiy xotira mexanizmining ahamiyati ham nutqni anglash mexanizminikidan qolishmaydi. U nutq jarayonining barcha tomonlarini, xususan, nutqning “mazmun jihati” va uning lisoniy ifodasini ta'minlaydi. Nutqda uning predmetining aks etishi, ya'ni borliqdagi u yoki bu hodisani – inson xotirasidagi bilimlari va atrofni o'rab olgan dunyo haqidagi tasavvurlarining faollashuvisiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, uning ongda mavjud bo'lgan til belgilari haqidagi obrazlar tasavvuri va ularni nutqiy muloqot jarayonida qo'llash qoidalarining faollashuvisiz ham bo'lishi mumkin emas.

Nutqni oldindan aytish mexanizmi psixolingvistikada hali to'liq o'rganilmagan. Bu o'rinda N.A.Bernshteyn tomonidan harakatni psixofiziologik tashkil qilish nazariyasi doirasida yaratilgan “kelajakning

modellari”dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. N.A.Bernshteyn erkin harakatni yuzaga kelishi va amalga oshishini tadqiq qilar ekan, uning ketma-ketligini quyidagi bosqichlarda ko‘rsatib beradi:

- 1) vaziyatni idrok qilish va baholash;
- 2) faollashuv natijasida vaziyat qanday bo‘lishini aniqlash;
- 3) buning uchun nima qilish kerak;
- 4) buni qanday qilish lozim.

Shunday qilib, nutqiy faoliyatning har qanday turi murakkab mexanizm vositasida amalga oshadi.

5.4. Nutqiy faoliyat turlari

Nutqiy faoliyat so‘zlash, eshitish, yozish va o‘qish vositasida amalga oshiriladi. Mazkur vositalar kishilarning o‘zaro munosabat turlari sifatida verbal muloqot jarayonida yuzaga chiqadi.

Nutqiy faoliyatning barcha turlari umumiy jihatlarga ega bo‘lish bilan birga, bir qator mezonlarga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. I.A.Zimnayaning fikricha, bunday o‘lchovlarning asosiylariga: a) verbal (nutqiy) muloqotning xarakteri; b) verbal muloqotda nutqiy faoliyatning roli; d) xabarni qabul qilish va uzatishda nutqiy faoliyatning biror maqsadga qaratilganligi; e) fikrni shakllantirish usuli bilan aloqasi; f) tashqi ifodalashning xarakteri; g) nutqiy faoliyatning qarama-qarshi aloqadorlik jarayonidagi o‘zaro ta’sir xarakteri kabilar kiradi.

Nutqiy faoliyat turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini qayd qilingan mezonlardan kelib chiqqan holda quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Nutqiy faoliyat nutqiy muloqotning o‘ziga xosligiga ko‘ra og‘zaki muloqot va yozma muloqot vositasida amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyatning birlamchi turlariga so‘zlash va eshitish kiradi. Nutqiy faoliyatning mazkur turlari ontogenezda insonni boshqalar bilan muloqot qilish usullari sifatida birinchi shakllanadi. Nutqiy faoliyatning bu turlariga nisbatan insonda “tug‘ma tayyorgarlik” mavjud bo‘ladi.


Birinchidan, ushbu “tug‘ma tayyorgarlik” insonda psixik intellektual faoliyatni amalga oshirishga mo‘ljallangan maxsus apparat – bosh miya qobig‘i katta yarim sharlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Insonni nutqiy faoliyatni egallash imkoniyati bilan ta’minlovchi miyaning ustki qobig‘ining qismlari tug‘ilishgacha ma’lum darajada (taxminan uchdan ikki) shakllangan bo‘ladi. U bola hayotining dastlabki yilida faol rivojlanadi va nutqiy faoliyatning “nutqgacha bo‘lgan davri”, deb nomlanadi.


Ikkinchidan, “tug‘ma tayyorgarlik” ko‘pincha inson organizmining muayyan anatomik qismlari, xususan, nutq apparatining periferik (sirtqi) tuzilishi bilan belgilanadi. Bolaning tug‘ilish vaqtida nutqning mazkur anatomik-fiziologik apparati ma’lum darajada shakllangan bo‘ladi. Bolaning “nutqgacha bo‘lgan davri”da uning “psixofiziologik tayyorgarligi” yuz beradi.

Nutqiy faoliyatning ikkilamchi turlariga o‘qish va yozish kiradi. Nutqiy faoliyatning ushbu turlari eshitish va so‘zlash asosida shakllanadi. Kelib chiqishiga ko‘ra ikkilamchi bo‘lgan o‘qish va yozish nutqiy faoliyatning murakkab turlari hisoblanadi. Pedagogik amaliyotning ko‘rsatishicha, bola nutqiy faoliyatning mazkur turlarini egallashi uchun aniq bir maqsadga qaratilgan maxsus ta’lim kerak bo‘ladi.

Muloqot jarayonida bajarayotgan rolga ko‘ra nutqiy faoliyat reaktiv va inisial turlarga bo‘linadi. So‘zlashish va yozish nutqiy muloqotning inisial jarayoni bo‘lib, ular eshitish va o‘qishni qo‘zg‘atuvchi omil hisoblanadi. O‘z navbatida, bunga javoban eshitish va o‘qish nutqiy muloqotning reaktiv jarayonini ifodalab, so‘zlashish va yozish jarayoni uchun zaruriy shartlardan sanaladi.

Nutqiy faoliyatning har xil turlari turfa fikrlarning shakllanish yo‘llari, nutq shakliga mos bo‘lgan nutqiy muloqot turli shakllarining yuzaga kelishini talab qiladi. I.A.Zimnayaning aniqlashicha, bunday shakllar uch xil: tashqi og‘zaki, tashqi yozma va ichki nutq ko‘rinishida bo‘ladi.





O‘ylashni fikrning ichki nutq vositasida shakllanish jarayoni sifatida, so‘zlash va yozuvni esa muloqotning og‘zaki va yozma shakllarida fikr yuzaga kelishining tashqi usullari sifatida talqin qilish mumkin.

Og‘zaki ekspressiv nutqning monologik, dialogik va guruhiiy shakllari mavjud.

Nutqiy faoliyatning turlari mazkur jarayonlarni boshqaruvchi qarama-qarshi aloqa xususiyatiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, nutqiy faoliyatning so‘zlash va yozuv turlarida ijrochi organ (artikulyasion organ, yozadigan qo‘llar)dan bu faoliyatni “tashkil qiluvchi” dasturga, bosh miya qismiga qaratilgan asab-mushakli qarama-qarshi aloqa amalga oshiriladi. Ushbu qarama-qarshi aloqa ichki nazorat va tahrir vazifasini bajaradi.

5. 5. Nutqiy faoliyatning predmetlik (psixologik) mohiyati

Ma’lumki, faoliyatning predmetlik mohiyatiga *predmet*, *vosita*, *qurol*, *mahsulot*, *natija* kabi unsurlardan tashkil topgan faoliyat shartlari kiradi.

Nutqiy faoliyatning *predmeti* atrof muhitdagi predmetlarning aloqa va munosabatlari hamda hodisalarning ifoda shakli bo'lgan fikr sanaladi. Fikrning shakllanishi va ifodasiga so'zlashish yo'naltirilgan bo'ladi, shuning uchun fikrning mavjudligi, shakllanishi va ifodalanish vositasi til va lisoniy tizim hisoblanadi. Nutq ichki vosita bo'lib, u nutqiy faoliyatning barcha turlarini bajaruvchi *qurol* sifatida namoyon bo'ladi. Aytilganlar va yozilganlar, shuningdek, nutqiy faoliyat subyektlari psixik holatining o'zgarishlari majmuyi nutqiy faoliyatning *mahsuloti* sanaladi. Nutqiy faoliyat reseptiv va mahsulot ko'rinishida bo'lgani uchun uning *natijasi* reseptiv ko'rinish – nutqiy ifoda mazmunini tushunish; mahsulot ko'rinishi – boshqalar tomonidan resepsiya (nutqni idrok qilish) xarakterini tushunish hisoblanadi.

Nutqiy faoliyat harakat, amal, ko'nikma va malaka singari unsurlardan tarkib topadi. Nutqiy ifoda va nutqiy ifodani idrok qilish hamda tushunish nutqiy faoliyat doirasidagi asosiy nutqiy harakatlarni anglatadi. Nutqiy faoliyatning o'ziga xos xususiyati uning harakatlari tarkibiga qator o'zaro aloqadagi amallarning kirishi bilan tavsiflanadi. Psixolingvistikada lisoniy amallar, semantik amallar hamda nutqiy amallar farqlanadi. Nutqiy faoliyat jarayonida amallar avtomatlashadi va nutqiy harakat ko'nikma darajasiga ko'tariladi. Butun faoliyat esa malakani shakllantiradi.

5.6. Nutqiy faoliyatda til va nutqning funksiyalari

Muloqot faoliyati nutq vositasida amalga oshadigan qator funksiyalar asosida yuzaga chiqadi. Nutqning markaziy funksiyasi kommunikativlikdir. Kommunikativlik fikrlarni ifodalash, o'ziga hamda boshqa kishilarga ta'sir qilish vositasida amalga oshiriladi. Inson birinchi navbatda boshqalarning xatti-harakati, fikri, ongi va hissiyotiga nutq orqali ta'sir ko'rsatish uchun gapiradi.

Kommunikativlik funksiyasidan ijtimoiy o'zaro bog'liqlik, faollik, maqsadlilik, niyatlilik kabi xususiyatlar kelib chiqadi. Ijtimoiy kommunikatsiya jarayonida nutqiy ifoda har doim kishilar tomonidan qandaydir natijani qo'lga kiritish maqsadida qo'llaniladi. Maqsadsiz, niyatsiz fikrni ifodalab bo'lmaydi.

Shunday qilib, nutq dastlab muloqotning ijtimoiy funksiyasida yuzaga chiqadi. Muloqotning ijtimoiy funksiyasi xabar hamda o'ziga va boshqa kishilarga ta'sir qilish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Nutqning boshqaruv funksiyasi boshqa psixik jarayonlarning birlashuvida ham yuzaga keladi.

Nutqning boshqaruv funksiyasidan u bilan chambarchas bogʻlangan rejalashtirish funksiyasi kelib chiqadi. Unda inson oʻzining faoliyatini, jamiyatdagi xatti-harakatlarini, atrofidagi insonlarning faoliyatlarini va xatti-harakatlarini rejalashtiradi.

Nutqiy faoliyatning ikkinchi oʻziga xos funksiyasi – insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini egallash funksiyasidir.

Nutqiy faoliyatning oʻziga xos xususiyatlaridan biri uning amalga oshishidagi ikki asosiy variant: nutqiy kommunikatsiya va ichki nutq shakllaridir. Bu yerdan nutqiy faoliyatning nutqiy fikrlash faoliyati sifatida belgilash kelib chiqadi.

Nutqiy faoliyatning oʻziga xos xususiyati uning vositasi sifatida til belgilarining ishtirok etishida ham namoyon boʻladi. Binobarin, nutqiy faoliyatning asosiy vositalari uning belgilik funksiyasida yuzaga chiqar ekan, nutqiy faoliyat belgilar faoliyati sifatida ham aniqlanadi.

Umuman, psixolingvistikada nutqiy faoliyat murakkab faoliyat turi sifatida tadqiq etiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. L.V.Shcherba nutqiy faoliyatni qanday taʼriflagan?
2. Ye.S.Kubryakova “nutqiy faoliyat” termini ostida qanday hodisalarni tushunish kerakligini taʼkidlagan?
3. A.A.Leontev nutqiy faoliyatni qanday baholagan?
4. I.A.Zimnayaga koʻra, nutqiy faoliyat qanday jarayon sifatida talqin qilingan?
5. Nutqiy faoliyatga berilgan ilmiy taʼriflarning barchasida qaysi omillarning nazarda tutilganligini koʻrish mumkin?
6. I.A.Zimnayaning fikricha, nutqiy faoliyat qanday bosqichlardan tuzilgan?
7. Nutqiy faoliyatning birinchi bosqichi qanday amalga oshadi?
8. Nutqiy faoliyatning ikkinchi bosqichini qaysi qism tashkil qiladi?
9. Nutqiy faoliyatning uchinchi bosqichi qaysi amallarni oʻz ichiga oladi?
10. “Mexanizm” termini ostida nima tushuniladi?
11. Nutqiy faoliyatning asosiy psixologik mexanizmlarini sanang.
12. Nutqiy faoliyat nimalar vositasida amalga oshiriladi?
13. Nutqiy faoliyat turlari qaysi mezonlarga koʻra bir-biridan farqlanadi?
14. Nutqiy faoliyatning birlamchi turlariga nimalar kiradi?

15. “Tug‘ma tayyorgarlik” qanday xususiyatlar bilan belgilanadi?
16. Nutqiy faoliyatning ikkilamchi turlariga nimalar kiradi?
17. Nutqning markaziy funksiyasi nima?
18. Muloqotning ijtimoiy funksiyasi qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

Adabiyotlar

1. Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2008.
2. Зимняя И. А. Психология обучения неродному языку. – М., 1989.
3. Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – М., 1986.
4. Леонтьев А.А. Психофизиологические механизмы речи //Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. – М., 1970.
5. Основы теории речевой деятельности. – М., 1974.

III BOB. NUTQ YARATILISHI VA IDROK QILINISHI JARAYONLARINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

6-MA'RUZA NUTQNING YARATILISHI

Reja:

1. Ch. Osgudning til darajasi nazariyasi
2. L.S.Vigotskiy modeli
3. A.R. Luriya modeli
4. A.A. Leontev modeli

Tayanch soʻz va iboralar: ifoda modeli, nutq yaratilishi, ichki soʻz, ichki nutq, ichki reja, yoyiq nutq, yigʻiq nutq, dinamik, motivatsiya, nutqiy maqsad, nutqiy ifoda, ichki dasturlanish, botiniy sintaktik struktura, zohiriy sintaktik struktura, tashqi nutqiy ifoda, semantik qayd, chiqish sxemasi, referent maʼno, fiziologik aktivlik, yuqori bosqich, quyi bosqich, evristik faoliyat, chiziqli xususiyat, predikatsiya akti, motorli dasturlash.

6.1. Ch. Osgudning til darajasi nazariyasi

Charlz Osgud nutqning yaratilishi va nutqni idrok qilish masalalarini til darajasi nazariyasi nuqtayi nazaridan hal qilishga urindi. U til darajasi nazariyasini taklif qilar ekan, nutqning yaratilish jarayonida (nutqni kodlashda) quyidagi toʻrt bosqichning mavjudligini taxmin qiladi:

1. Motivatsiya bosqichi (motivational level). Motivatsiya bosqichining birligi sifatida keng nogrammatik tushunchadagi gap tushuniladi. Bu bosqichda soʻzlovchi tomonidan umumiy xarakterdagi qarorlar qabul qilinadi:

- a) gapirish yoki gapirmaslik;
- b) agar gapiriladigan boʻlsa, qanday shaklda – darak, soʻroq yoki buyruq shaklida;
- d) agar shakl tanlangan boʻlsa, uni gapda ifodalash uchun qanday vositalardan foydalanish kerak – masalan, faol yoki nafaol shakl;
- e) mantiqiy urgʻuda nima ajratiladi, intonasiyaning qanday modeli tanlanadi.

2. Semantik bosqich (semantic level). Mazkur bosqichda soʻzlovchi gapdagi muayyan ketma-ketlikdagi soʻzlarni – funksional guruhlarini

tartibi bilan ajratadi. Osgudga ko'ra, har qanday gap kodlangan birliklarga ajralishi mumkin:

Talantli rassom – qiziqarli rasm – chizyapti.

3. Ketma-ketlik bosqichi (sequential level). Ushbu bosqichning birligi semantik birlik emas, balki so'z, ya'ni fonetik so'zdir. Kodlash jarayonining bu bosqichida ketma-ketlik sifatida quyidagi mexanizmlar ishtirok etadi:

a) tovushlar ketma-ketligini aniqlash;

b) "katta segmentlar" bilan ish ko'radigan grammatik ketma-ketliklar mexanizmi.

4. Integratsion bosqich (integrational level). Mazkur bosqichning birligi sifatida bo'g'in ishtirok etadi. Bu bosqichda kodlashning motor mexanizmlari faoliyat ko'rsatadi va o'rganib chiqilgan ifodaning tovush tomoni shakllanadi.

Taqdim qilingan ushbu model nutqning yaratilish jarayoni haqida umumiy tasavvur beradigan dastlabki urinish edi.

6.2. L.S.Vigotskiy modeli

L.S.Vigotskiy nutq yaratilishi jarayonining mohiyatini aniqlash uchun "fikrdan ma'noga, ma'nodan so'zga" degan ta'limotni ilgari surdi. L.S.Vigotskiyga ko'ra, "Markaziy g'oya umumiy formulada ifodalanishi mumkin: fikrning so'zga nisbatan munosabati, avvalo, narsa emas, jarayondir. Bu munosabat fikrdan so'zga va aksincha, so'zdan fikrga bo'lgan harakatdir... Fikrning ushbu yo'nalishi ichki harakat sifatida qator rejalar orqali amalga oshadi..."⁴⁶.

L.S.Vigotskiyning "ichki so'z" haqidagi g'oyasi ichki nutq to'g'risidagi fikrlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Unga ko'ra, ichki nutq "fikir va so'z o'rtasidagi dinamik munosabatlar oralig'i bo'lgan botiniy nutqning alohida ichki rejasidir". Olim ichki nutqning quyidagi xususiyatlarini qayd qiladi:

- u fonatsiyadan, ya'ni tovushlarning talaffuz qilinishidan xoli;
- u predikativ (ega tushiriladi va unda har doim kesim mavjud) bo'ladi;
- u qisqartirilgan nutq (so'zsiz nutq)dir⁴⁷.

Oxirgi xususiyatni o'rganish jarayonida L.S.Vigotskiy ichki nutq semantikasining shunday o'ziga xosliklarini ta'kidlaydi: ma'noning

⁴⁶ Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч.: в 8 т. – М., 1982. Т.2. – С. 305.

⁴⁷ Белянин В. П. Психолингвистика. – М., 2004. – С. 81.

soʻzdan ustunligi; soʻz maʼnolarining qoʻshilib ketishi; ichki nutq semantikasining soʻz semantikasi bilan mos kelmasligi.

“Har qanday fikr, - deb yozadi L.S.Vigotskiy, nimanidir nima bilan bogʻlashga intiladi va harakatga ega boʻladi. Fikrning mazkur oqimi va harakati yoyiq nutq bilan bevosita va bilvosita mos kelmaydi. Chunonchi, fikr birligi va nutq birligi nomutanosibdir”. Olimning qarashicha, “ichki nutqni tashqi nutqqa oʻtishi predikativ va idiomatik nutqning boshqalar uchun tushunarli, sintaktik boʻlakli nutqqa aylanadigan murakkab dinamik transformatsiyadir”.

L.S.Vigotskiyning fikricha, fikr nutqqa aylanguncha bir necha bosqichlarni oʻtishi lozim. 60-70-yillarda rus psixolingvistikasi tomonidan ishlab chiqilgan nutq yaratilishining barcha psixolingvistik modellarida L.S.Vigotskiy tomonidan taklif qilingan taʼlimotning rivojlantirilganligi va aniqlashtirilganligini koʻrish mumkin. Binobarin, nutq yaratilishining birinchi bosqichi uning motivatsiyasidir. Nutq yaratilishining ikkinchi bosqichi fikr boʻlib, u nutqiy maqsad (niyat) tushunchasiga mos keladi. Uchinchi bosqich fikrning ichki soʻz vositasida ifodalanishi bildirib, u zamonaviy psixolingvistikada nutqiy ifodaning ichki dasturlanishiga muqobil boʻladi. Toʻrtinchi bosqich fikrning tashqi soʻzlarning maʼnolari orqali ifodalanishi yoki ichki dasturning amalga oshishidir. Vanihojat, oxirgi beshinchi bosqich fikrning soʻzlar vositasida ifodalanishi yoki nutqning akustik-artikulyatsion amalga oshishidir.

6.3. A.R.Luriya modeli

L.S.Vigotskiy nutq yaratilishining shakllangan modelini taklif qilmagandi, u faqat umumiy psixologik tamoyillarnigina koʻrsatib bergandi. L.S.Vigotskiyning gʻoyalari keyinchalik neyrolingvistika yoʻnalishiga asos solgan rus psixologi Aleksandr Romanovich Luriya (1902-1977) tomonidan rivojlantirildi. Olim ifodaning dinamik sxemasi haqidagi taʼlimotni ishlab chiqadi. Unga koʻra, mazkur dinamik sxema ifoda fikr bosqichining qismi hisoblanadi.

A.R. Luriya modelida ifoda shakllanishining markaziy muammosi fikrning maʼnoga aylanishidir. Nutqiy ifodaning yaratilishi bir necha bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Jaryonning boshida motiv turadi. Undan soʻng fikr paydo boʻladi va u keyinroq ifodaga aylanadi. Soʻng jarayonga ichki nutq qoʻshiladi va u botiniy sintaktik strukturalarning

shakllanishiga olib keladi. Vanihojat, zohiriy sintaktik strukturalarga asoslangan tashqi yoyiq nutqiy ifodalar yuzaga keladi⁴⁸.

A.R. Luriya modelidagi bosqichlarning batafsil izohini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Birinchi bosqich "semantik qayd" yoki chiqish sxemasidir. Semantik qayd "keyinchalik bir-biri bilan uzviy bog'langan so'zlar tizimiga aylanishi lozim bo'lgan yig'iq nutqiy ifoda xususiyatiga ega bo'ladi". Ifodaning chiqish sxemasi yoki "semantik qaydi" ikki qism: tema va remadan tarkib topadi. Nutqiy ifodaning chiqish sxemasiga aylanishi ichki nutq vositasida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, nutq yaratilishining dastlabki jarayonida sxema o'ta yig'iq va bo'laklarga ajralmagan bo'lib, uning birliklar majmuyiga aylanishi keyinroq sodir bo'ladi.

2. Ichki nutq. Nutqiy ifoda shakllanishining ushbu bosqichida ichki fikr "nutqiy ma'nolarning yoyiq sintaktik tizimiga" o'tadi. "Semantik qayd"ning birgalik sxemasi bo'lajak yoyiq sintaktik ifodaning tarkibiy strukturasida qayta kodlashadi.

3. Yoyiq nutqiy ifodaning shakllanishi. A.R.Luriyaning fikricha, yoyiq nutqiy ifoda bir tomondan, muloqot va xabarni uzatish jarayoniga kiritilgan bo'lsa, boshqa tomondan, "uning tarkibiga bir emas, balki o'zaro aloqadagi bir necha gaplar silsilasi kiradi". Olimning ta'kidlashicha, yoyiq nutqiy ifoda tarkibiga kiradigan ibora yoki gaplarni kontekstdan tashqarida o'rganish mumkin emas. Bundan tashqari, yoyiq ifoda tarkibiga kiruvchi gaplar referent ma'no (til birligi ifodalaydigan tushuncha – Sh.Uzmanova) bilan birga, muloqot jarayonida yuzaga chiqadigan ijtimoiy-kontekst ma'nolariga ham ega bo'ladi. Aynan shuning uchun ham "ifoda shakllanish jarayonini lingvistik tahlil qilishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Bu jarayonni muloqot vaziyati, so'zlovchining motivi, xabarning mazmuni va bu xabarga tinglovchining munosabati va h.k. hisobga olgan holda keng qamrovli psixologik (hatto ijtimoiy-psixologik) tahlil qilish lozim bo'ladi"⁴⁹.

Qayd qilingan barcha xususiyatlar A.R.Luriyaga nutqiy ifodani boshqa psixik faoliyatlar kabi psixologik strukturaga ega bo'lgan nutqiy faoliyatning alohida turi sifatida tadqiq qilishiga asos berdi.

Shunday qilib, A.R.Luriyaga ko'ra, nutqiy ifoda o'zining motivlari, chiqish vazifalari ega bo'lgan muayyan faoliyat turidir.

⁴⁸ Лурия А.Р. Речь и мышление. – М., 1975.

⁴⁹ Белянин В. П. Психолингвистика. – М., 2004. – С. 82-83.

6.4. A.A.Leontev modeli

A.A. Leontev modelining mohiyatini to'liq tushunish uchun uning fiziologik aktivlik nazariyasiga e'tibor qaratgani xususida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. A.A. Leontev aktivlik nazariyasini (indivud faoliyatining) reaktivlik nazariyasiga (S-R) qarama-qarshi qo'ydi.

Hayvonlar va insonlarning faoliyati muayyan maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, trolleybus bekatiga borish maqsadini (N.A. Bernshteynning harakat fiziologiyasidan) olaylik. Mazkur maqsadga erishish uchun oldindan dastur tuziladi. Dastur bir nechta tadbirlarni o'z ichiga oladi (uydan chiqish, zinadan tushish, yo'lakdan chiqish, hovlidan o'tish, ko'chaga chiqish va h.k.). Inson ko'zlagan maqsadiga erishishi uchun har doim eng maqbul yo'lni tanlaydi. Bunda insonga tabiatni o'zi ham ko'maklashadi. Chunonchi, inson uchun tabiatan orqaga emas, balki oldinga (o'z tanasining yo'nalishiga ko'ra) harakatlanish qulay. Trolleybus bekatiga borguncha "oyoqni yerdan uzish", "uni oldinga tashlash", "tana og'irligini oldinga tashlash" va h.k vazifalarni bajarish kerak bo'ladi. Lekin kattalar bu harakatlarni bajarayotganda, ya'ni yurib ketayotganda nima qilayotganliklari haqida o'ylashmaydi. Chunki ularda bunday harakatlar avtomatlashgan bo'ladi. Biroq har doim ham bunday bo'lmaydi. Binobarin, endigina tetapoya qilayotgan bola oyoqni qanday qilib yerdan uzish, oyoqni qayerga qo'yish, qanday qilib muvozanatni saqlash, yiqilib tushmaslik kabi vazifalarni hal qilishiga to'g'ri keladi. Yoki kattalarda ham ayni holat kuzatilishi mumkin. Masalan, u sirpanchiq, muzli yo'lda ketayotganida odatdagidek tezroq trolleybus bekatiga yetib olishni emas, balki muzda yiqilmasdan muvozanatni saqlab qadam bosish haqida o'ylaydi.

Faoliyatning yuqori va quyi bosqichi farq qiladi. Keltirilgan misolda quyi bosqichda nimadir "to'xtab qoldi", bunday holatda kishi vaqtinchalik yuqori bosqichni nazorat qila olmaydi va u quyi bosqichga tushadi. Ayni holat nutqiy muomalada ham kuzatiladi. Nutqiy faoliyat bir-biri bilan uzviy bog'langan jarayonlar natijasidir. Har bir bosqichning o'z vazifasini to'la-to'kis mustaqil bajarishi to'g'ri matnlarning yaratilishi bilan yakunlanadi. Kishi o'z ona tilini yaxshi bilganda, uning nutqiy muomalasining yuqori bosqichi – bu strategik, aloqaviy nutq bosqichi bo'ladi. U nutq tuzilishini to'la nazorat qila oladi. Bunda nutqdagi so'zlar o'z-o'zidan quyilib keladi. Aytaylik, u

tutilib qoldi, biron soʻzni esidan chiqarib qoʻydi yoki mos bir soʻz izlayapti. Bunday holatda semantik doirada soʻz tanlash yuqori bosqich hisoblanadi. Agar soʻzlovchi biron soʻzning talaffuzida urgʻuning qaysi boʻgʻin berishga ikkilansa, u holda, nazorat quyi bosqichga tushadi.

Demak, yuqori bosqich tushunchasi oʻzgaruvchan, shartli boʻladi. Har qanday quyi bosqich yuqori boʻlishi mumkin. Nutqning bunday qarama-qarshi xususiyatidan til egasining soʻzga qarama-qarshi munosabatini koʻrsatish mumkin. Soʻz bir tomondan, biron yoyiq matnning yaratilishidagi qism, unsur hisoblanadi. Boshqa tomondan, kishi ongli nazorat mexanizmini oʻzgartirganda, u soʻzdan foydalanish amalidan soʻzni anglash amaliga oʻtadi. Tabiiyki, qayd qilingan qarama-qarshilik nafaqat soʻzga, balki sintaktik konstruksiyalar, morfemalar, fonemalar, intonatsiyalar va h.k.ga ham xosdir⁵⁰.

1960-yilning oxirlariga kelib, A.A. Leontev T.V. Ryabova (Axutina) bilan birgalikda ifoda yaratilishining mufassal modelini ishlab chiqdi. Mazkur modelning oʻziga xos xususiyatlarini quyidagicha koʻrsatish mumkin:

1. L.S. Vigotskiyning gʻoyasiga tayangan holda tahlil elementlar asosida emas, balki birliklar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqotning asosiy predmeti sifatida matnning segmenti emas, faoliyatning barcha xususiyatlariga ega boʻlgan ayrim oddiy harakatlar, oddiy “hujayra” olinadi. Masalan, ifodani bunday “hujayra” hisoblash mumkin. Shuning uchun ham model ifoda modeli sifatida tuziladi.

2. N.A Bernshteyn tomonidan ajratilgan faoliyatning barcha xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchidan, ifoda tuzilishiga koʻra faoliyatning uch bosqichi nazarda tutiladi: dasturni rejalashtirish; dasturni amalga oshirish; qiyoslash (nazorat, kerak boʻlganda tahrir qilish). Ikkinchidan, harakatning muayyan maqsadga qaratilganligi va motivlanganligi: inson faqat biron narsaga munosabat bildirish uchun gapirmaydi, u oʻz faoliyatini, xususan, nutqiy faoliyatini muayyan maqsadni koʻzlab amalga oshiradi. Uchinchidan, fiziologik tuzilishning darajali gʻoyalari bilan bogʻliq boʻlgan harakatning psixofiziologik shartlangan pogʻonali tuzilishi.

3. Evristik. Chunonchi, psixolingvistika insonning nutqiy faoliyatini uning boshqa aqliy va ruhiy qobiliyatlari bilan bir qatorda oʻrganadi. Ifoda yaratilishi modeli mohiyatan evristik faoliyatdir. Yaʼni

⁵⁰ Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989. – С. 41-43.

inson u yoki bu strategiyadan foydalanishi, o'ziga ma'qul bo'lgan yo'lni tanlashi mumkin.

4. Kelajakni oldindan aytish (prognoz qilish) ehtimolligi mexanizmini hisobga olish. Inson o'zi bo'lishni xohlagan kelajakni oldindan aytadi. Bu har qanday faoliyatning, jumladan, nutqiy faoliyatning ham tamoyilidir. Oldindan aytish har doim ba'zi ehtimollarni taxmin qiladi. Agar kishi qandaydir matn yaratmoqchi bo'lsa, u o'zi aytmoqchi bo'lgan narsaning o'zi xohlaganday ifodalab berishiga 100% ishona olmaydi.

A.A. Leontev va T.V. Ryabovalarning modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

1.*Ifodaning grammatik-semantik tomonlarini dasturlash.* Bu bosqichda birinchi navbatda ichki dastur tuziladi, shuningdek, mazkur dasturni ichki nutqdan farqlash lozim bo'ladi. Ichki dasturlash nutqiy faoliyatining eng botiniy mavhum bosqichini namoyon qiladi. Ichki dasturlashda muayyan aniq til bilan emas, balki nutqni bo'laklarga ajratishga, ifodalarni yaratishga qaratilgan qandaydir umuminsoniy qobiliyatlar bilan bog'liq elementlar mavjud bo'lishi mumkin. Ichki dasturlash bosqichining realligini nutqiy buzilish ma'lumotlari ham isbotlashi mumkin. Jumladan, dinamik afaziya holatlarida bemorlarda ichki dasturning yo'qligi bois ular xotiralaridagi so'z boyliklaridan kerakli so'zlarni topa olmaydilar, boshqa bir guruh bemorlar so'zlarni ajratib olsalar ham ularning morfologik shakllarini aniqlashda qiyinchiliklar sezadilar, yana bir guruh bemorlar sintaktik qurilmalar tanlashda ojizlik qiladilar va h.k.

Birinchi, dastur strukturasi chiziqli xususiyatga egaligi taxmin qilinadi. Bu tabiiy bir hol, chunki insonning tashqi nutqi ham chiziqli xususiyatga ega. Ikkinchi, dastur korrelyat (o'zaro bog'langan, munosabatdor bo'lgan ikki yoki undan ortiq til birliklaridan biri) so'zlarni emas, balki yirik korrelyatlar hisoblangan subyekt, predikat va obyekt (ya'ni kimdir nimagadir yo'nalgan nimadir qiladi)ni o'z ichiga oladi. Uchinchi dasturning strukturasi so'zlarning ijtimoiy mustahkamlangan ma'nolari bilan emas, balki shaxsiy "mazmunlar" bilan bog'liq bo'ladi. To'rtinchi, ichki dasturlash mohiyatan predikatsiya aktlarini, ya'ni nimaning nima bilandir bog'lanish amallarini namoyon etadi.

Demak, ichki dasturlash shunchaki bir turdagi elementlarning ketma-ketligi bo'lmay, balki ularning bog'lanish tizimi, qator predikativ

amallardir. Predikativ amallar *tun*, *sukunat*, *qahraton* singari soʻzlar majmuyini *Tun. Sukunat. Qahraton.* kabi gaplar tizimidan ajratadi. Masalan, *tun* – oddiy soʻz boʻlmasdan, balki *tun* boʻlganini tasdiqlashdir.

2. *Ifodaning grammatik realizatsiyasi va soʻz tanlash.* Mazkur bosqichda soʻzlovchi aniq til tomon jiddiy qadam tashlaydi, shuning uchun ham u tilni yaxshi, hech boʻlmaganda yetarli darajada bilishi lozim boʻladi. Biroq ushbu bosqichda qatʼiy majburiy amallar yoʻq. Kishi nutq yaratish uchun oldin soʻz tanlab oladi va unga mos morfologik shaklni aniqlaydi yoki bu amal aksincha ham boʻlishi mumkin. Bu kommunikatsiyaning xususiyatiga bogʻliq.

3. *Sintagmalarni motorli dasturlash.* Bu bosqich fonetik, tovush dasturlarini tuzish, tovush tanlash bilan bogʻliq boʻladi. Ana shundan keyin “chiqish”ga motor komandasi beriladi. Yaʼni ifoda ovoz va nutq organlari ishtirokida talaffuz qilinadi.

Xullas, nutq yaratilishi bir qancha murakkab ruhiy va jismoniy jarayonlarni oʻz ichiga oladi. Demak, nutq – faoliyatdir. Har qanday faoliyat biron motiv bilan bogʻliq. Inson oʻz niyatini amalga oshirish yoʻlida harakat qiladi. Har bir harakat oʻz oldiga biror maqsadni qoʻyadi: bir yoki bir necha maqsadning bajarilishi niyatning ushalishiga olib keladi. Biron maqsadni amalga oshirish oʻz navbatida bir qancha tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Qisqasi, niyatning ushalishi birin-ketin maʼlum tartibda joylashgan bosqichlardagi faoliyatlar yigʻindisi bilan bogʻliq.

Faoliyatning ikkita yetakchi va yordamchi turlari farqlanadi. Yetakchi faoliyatning bajarilishi ong ishtirokida, yordamchi faoliyatning bajarilishi ong ishtirokisiz amalga oshiriladi. Nutqning paydo boʻlishining boshlangʻich nuqtasi ruhiy, yakuniy nuqtasi jismoniydir, chunki u nutq organlarining harakati natijasida sodir boʻladi. Ana shu ikki nuqta orasidagi jarayon psixolingvistikani qiziqtiradigan masaladir.

Yuqorida koʻrib chiqilgan nutq yaratilishi nazariyalari va modellari bir-biriga juda yaqin boʻlib, mohiyatan ular bir-birini toʻldiradi. Ularni umumlashtirgan holda shunday koʻrsatish mumkin: motiv←botiniy semantik bosqich→zohiriy semantik bosqich→botiniy sintaktik bosqich→zohiriy sintaktik bosqich←botiniy morfologik bosqich→zohiriy morfologik bosqich→botiniy fonologik bosqich va nihoyat fonetik bosqich.

Shunday qilib, nutq yaratilishi jarayoni soʻzlovchining muayyan qoidalar asosida oʻz fikrlarini aniq tilning nutqiy birliklariga uzatishi bilan yakunlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ch. Osgudning modelida nutqning yaratilishi jarayonidagi qanday bosqichlar koʻrsatilgan?
2. L.S.Vigotskiy nutq yaratilishi jarayonining mohiyatini aniqlash uchun qanday taʼlimotni ilgari surdi?
3. L.S.Vigotskiyning “ichki soʻz” haqidagi gʻoyasi qanday fikrlarning rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi?
4. L.S.Vigotskiy ichki nutqning qaysi xususiyatlarini qayd qiladi?
5. Rus psixolingvistikasining nutq yaratilishi modellarida kimning taʼlimoti rivojlantirildi?
6. A.R. Luriya modelida ifoda shakllanishining markaziy muammosi nima?
7. A.R. Luriya modelidagi birinchi bosqichni izohlang.
8. A.R. Luriya modelidagi ikkinchi bosqichni tushuntirib bering.
9. A.R. Luriya modelidagi uchinchi bosqich qanday nomlanadi?
10. A.A. Leontev aktivlik nazariyasini qaysi nazariyaga qarama-qarshi qoʻydi?
11. N.A. Bernshteyn harakat fiziologiyasini qanday izohlaydi?
12. A.A. Leontev va T.V. Ryabovalar ifoda yaratilishi modelining oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. Белянин В. П. Психоллингвистика. – М., 2004.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч.: в 8 т. Т.2. – М., 1982.
3. Леонтьев А.А. Психофизиологические механизмы речи //Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка. – М., 1970. С. 112-125.
4. Леонтьев А.А. Основы психоллингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999.
5. Лурия А.Р. Язык и сознание. – М., 1979.
6. Сахарный Л.В. Введение в психоллингвистику. -Л., Изд. ЛГУ, 1989.

7-MA'RUZA

NUTQNI IDROK QILISH

Reja:

1. Nutqni idrok qilish va tushunish
2. Nutqni idrok qilish modellari
3. Matnni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish

Tayanch so'z va iboralar: nutq idroki, retsipyent, motorli nazariya, sensorli nazariya, kommunikatsiya, kod, xabar, peredatchik, aloqa kanali, signal, so'zlovchi, tinglovchi.

7.1. Nutqni idrok qilish va tushunish

So'zlovchi tomonidan yaratilgan matn talaffuz qilingach, havo to'liqlari orqali tinglovchining qulog'iga yetib keladi. Ana shu ondan boshlab nutq tovushlari birikmasidan tashkil topgan matn so'zlovchining jamiyatdoshi tomonidan idrok qilina boshlaydi. Idrok qilish ham uzundan-uzoq bir murakkab jarayonni tashkil qiladi. Tinglovchining oldida turgan vazifa bir to'la tovushlar birikmasidan uning asosida yotgan mazmunni chiqarib olib, unga yo nutqiy, yo jismoniy javob qaytarish, yoxud murojaatni e'tiborga olib qo'yishdir⁵¹.

Nutqni idrok qilish murakkab va ko'p qamrovli psixik jarayon bo'lib, u ham boshqa idrok turlari kabi umumobyektiv qonuniyatlar asosida yuz beradi. Nutqni idrok qilish faoliyatini: idrok obrazining birlamchi shakllanishi va shakllangan obrazni tanish kabi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin.

Nutqni idrok qilish til elementlarini eshitish yoki ko'rish resepsiyasi (qabul qilish), ularning o'zaro aloqasini aniqlash va ularning mazmuni haqidagi tasavvurlarning shakllanishini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, nutqni idrok qilish ikki bosqichda – nutqiy ifodani idrok qilish va tushunish orqali amalga oshadi⁵².

Psixologiyada tushunish bevosita idrok qilinadigan nutq (tovushlar) oqimi ortida turgan umumiy mazmunni ochish sifatida talqin qilinadi. Bu idrok qilinadigan nutq orqasida turgan ma'noning haqiqiy mazmunga aylanish jarayonidir. Masalan, "Sovuq!" ifodasining ma'nosi qanday

⁵¹ Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 248.

⁵² Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2005. –С.117.

“nutqsiz kontekstda” va kim tomonidan aytilganiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Agar bu onaning o‘z bolasiga murojaati bo‘lsa, u holda, bola uni issiqroq kiyinish haqidagi maslahat sifatida qabul qilishi mumkin. Agar mazkur ifoda biron kishi tomonidan ochiq turgan darchaga qo‘l bilan ishora qilib aytilgan bo‘lsa, u holda, uni oynani yopish haqidagi iltimos sifatida qabul qilish mumkin. Yoki ayni ifoda biron kishiga subyektiv (salbiy) munosabat bildirish maqsadida ham aytilgan bo‘lishi mumkin.

Tushunish jarayonida retsipyent mazkur ifodaning ma‘noviy mazmun majmuyini tashkil etuvchi so‘zlar o‘rtasidagi ma‘noviy bog‘lanishlarni aniqlaydi. Anglash natijasi o‘laroq retsipyent ifodaning ma‘noviy mazmunini tushunishi yoki tushunmasligi mumkin. Shuni qayd qilish joizki, tushunish jarayoning o‘zi psixologik nuqtayi nazardan teranlik va aniqlikning turlichaligi bilan tavsiflanadi.

Nutqni tushunish jarayoni axborotlar oqimidan muhim jihatni, muhim mazmunni ajratib olishdir. Inson o‘ziga yo‘naltirilgan nutqning har bir tarkibini alohida idrok etmay, undagi asosiy g‘oyalarni ajratib olib, ularni bir-biriga bog‘laydi va yaxlit mazmun yaratadi.

Nutqni tushunish nutqning faol qo‘llanishini ham o‘z ichiga oladi. L.S. Vigotskiyning fikricha, nutqning ma‘no jihatida tushunish o‘zining rivojlanishida butundan qismga, gapdan so‘zga tomon harakatlanadi, nutqning tashqi jihatida esa so‘zdan gapga tomon harakatlanadi⁵³.

A. A. Brudniy va L. S. Svetkovaning (35, 254), nazariy ta‘limotiga ko‘ra, tushunishning *dastlabki darajasi* faqat ifodaning asosiy predmetini tushunish, ya‘ni nima haqida gap borayotganidan iborat bo‘ladi. Mazkur darajada retsipyent faqat unga nima haqida gapirilganini aytishi mumkin, biroq aytilganning mazmunini qayta aks ettira olmaydi. Eshitilganning ma‘noviy mazmuni retsipyentning ifoda asosiy predmetini aniqlashida fon bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi daraja – ma‘noviy mazmunni tushunish bosqichi bo‘lib, u so‘zlovchi yoki yozuvchi fikrlari bayonidagi butun jarayonni, uning rivojlanishi va dalillanishini tushunish bilan belgilanadi. Mazkur daraja nafaqat nima haqida aytilganini tushunish, balki nima aytilganini (ya‘ni ifoda remalari) ham tushunish bilan tavsiflanadi.

Oliy daraja nafaqat nima haqida va nima aytilganini tushunish, balki nima uchun (ya‘ni qaysi maqsadda) aytilgani tushunish bilan


⁵³ Выготский Л.С. Мышление и речь. – М., 1996. – С. 117.

belgilanadi. Ta'bir joiz bo'lsa, so'zlovchining qanday lisoniy vositalar yordamida o'z fikrini ifodalagani ham aniqlanadi. Nutqning ma'noviy mazmuniga bunday yondashish tinglovchining so'zlovchi nutqi motivlarini, ifodaning ichki mantig'ini to'liq tushunishiga imkon beradi. Tushunishning ushbu darajasi so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan fikr ifodalashda foydalanilgan lisoniy vositalarni baholashni ham o'z ichiga oladi.

Nutqni idrok qilish haqidagi nazariyalar (modellar)ning aksariyatida idrok qilish jarayonining motor yoki sensor xarakteriga katta e'tibor qaratilgan. Motorli nazariyaga ko'ra, inson nutqni eshitish jarayonida xabarni yaratish uchun zarur bo'lgan motorli signallar bilan boshqariladigan ma'nolarni aniqlaydi. A.A. Leontevning fikricha, nutqni idrok qilishning sensorli nazariyasi "toza ko'rinishda" mavjud bo'lmaydi. Sensorli nazariyaga muvofiq, nutq idroki jarayonining motorli tarkibiga ikkinchi darajali hodisa sifatida qaraladi. Asosiy psixofiziologik mexanizm sifatida esa nutq signalini sensor etalon bilan akustik belgiga ko'ra qiyoslash belgilanadi.

7.2. Nutqni idrok qilish modellari

Psixolingvistikada nutqni idrok qilishning bir necha modellari mavjud. Charlz Osgud tomonidan nutqni idrok qilishning quyidagi modeli taklif qilingan:



Ch. Osgud tomonidan taklif qilingan mazkur modelni quyidagicha talqin qilish mumkin:

Soʻzlovchida qandaydir 1-xabar paydo boʻldi. Soʻzlovchi nutq organlari (peredatchik) yordamida bu xabarni kodlaydi. Signal (havo tebranishi) aloqa kanali orqali uzatiladi. U soʻzlovchining eshitish organlari (priyomnik)ga yetib keladi. Dekodlash amalga oshadi, yaʼni signal 2-xabarga aylanadi. Kommunikatsiya vujudga kelishi uchun kodlash va dekodlash bir kod (til) asosida olib borilishi kerak. Shuningdek, aloqa kanalida xabarning buzib talqin qilinishiga sabab boʻladigan shovqinlar ham vujudga kelishi mumkin. Natijada 1-xabar 2-xabarga mos kelmasligi mumkin.

Kommunikatsiyaga informatsiya nazariyasidan yondashish qiziq va muhim xulosaga olib keladi. Har qanday aloqa kanali muayyan oʻtkazish qobiliyatiga ega boʻlib, u informatsiya miqdoridan ortigʻini oʻtkaza olmaydi. Shuning uchun aloqa kanalidan foydalanish *samaradorligini* oshirish juda muhim. Masalan, bir xil xabarni aloqa kanali orqali tez yoki sekin uzatish mumkin. Tabiiyki, *samaradorlik* qancha koʻp boʻlsa, aloqa kanalidan shunchalik yaxshi foydalaniladi, xabarni uzatishda shuncha kam vaqt va kuch sarflanadi. Shuning uchun kishilar xabarlarni imkon qadar qisqa va loʻnda uzatishga harakat qilishadi. Bu lingvistikada *tejamkorlik* tamoyili, deb nomlanadi. Biroq kommunikatsiya jarayonida nafaqat tejamkorlik, balki *ishonchlilik* ham muhim tamoyil hisoblanadi. Turli shovqinlar tufayli har doim ham 1-xabar 2-xabarga mos kelavermaydi. Odatda, soʻzlovchi tinglovchi bilan qandaydir matnni tezda gapirib tugatish uchun emas, balki soʻzlovchi aytmoqchi boʻlgan narsani tinglovchi mos holda qabul qilishi uchun muloqotga kirishadi. Shuning uchun har qanday muloqotning vazifasi 2-xabarning 1-xabarga maksimal darajada mos kelishiga erishishdir. Demak, 2-xabarning 1-xabarga mos kelish darajasi *ishonchlilik* deb nomlanadi. Tinglovchi soʻzlovchini yaxshi tushunishi va xabar ishonchli boʻlishi uchun soʻzlovchi xabarni dona-dona, sekinroq, takrorlab uzatishi kerak. *Samaradorlik* va *ishonchlilik* oʻz xususiyatiga koʻra antagonistik oʻlchovlardir. *Samaradorlik* qancha yuqori boʻlsa, *ishonchlilik* shuncha past boʻladi yoki aksincha. Bir oʻlchovning ikkinchisidan oshib ketishi turli anglashilmovchiliklarga olib kelishi mumkin⁵⁴.

⁵⁴ Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. -Л., Изд. ЛГУ, 1989. –С. 19-20.

Buni quyidagi xanda misolida yaqqol ko‘rish mumkin:

Ona tili muallimi so‘radi:


- Men uxlayapman, sen uxlayapsan, u uxlayapti. Qaysi zamon?

O‘quvchi:

- Ayni tun!

Shuning uchun kommunikatsiya ishtirokchilari imkon qadar muvozanatni saqlashlari kerak.

Charlz Osgud va Vilbur Shxrammlarning navbatdagi modelida kommunikatsiya sirkulyar jarayon sifatida quyidagicha izohlangan:



Nutqni idrok qilish va tushunish jarayonlarining sodda va ixcham modeli L. S. Svetkova tomonidan taklif qilingan. Mazkur modelda nutq idrokining har ikki tomoni – nutqni idrok qilish jarayoni va uni tushunish jarayoni (ularning chambarchas o‘zaro aloqasini hisobga olgan holda) aks ettirilgan. Tadqiqotchi tomonidan nutqni idrok qilish jaryoni til belgilarini tushunish, tanish, nutqning tarkibiy qismlarini ajratish jarayoni sifatida talqin qilingan.

L. S. Svyetkova nutqni tushunish jarayonini quyidagicha izohlaydi: “Barcha tomonidan e’tirof qilingan qarashga ko‘ra, nutqni (ifodani) tushunish so‘zlar va ularning aloqasi, gaplar va abzaslarning aloqasini tushunishni ta’minlaydi. So‘zni tushunish uchun, avvalo, uni tarkib toptiruvchi tuvushlarni analiz va sintez qilish lozim bo‘ladi. Gap tarkibidagi so‘zlarning ma’nosini tushunish ularning shu gapdagi mantiqiy-grammatik aloqasiga bog‘liq bo‘ladi. Nutqni tushunish strukturasidagi mazkur uzviy qism mantiqiy-grammatik konstruksiyalarni ma’no birligida qayta shifrlanishini ta’minlaydi”.

L. S. Svetkova nutqni tushunishdagi ikki tomonning mavjudligiga e'tibor qaratadi. Nutqni tushunishning butun bir ifodani tarkib toptirgan so'z va so'z birikmalari ma'nolari hamda gaplarning ma'nolari vositasida ifodalanishidan tashqari, nutqiy faoliyatning ajralmas, boshqa tomoni ham mavjud. Bu insonning ifoda predmetiga nisbatan shaxsiy munosabatini belgilaydigan motivatsion sohadir. Qayd qilingan tarkibiy qismlar o'zaro chambarchas aloqada bo'lgandagina nutqni to'liq tushunishga erishiladi. Ulardan biri taqdim etilgan xabarning predmet mazmuni haqidagi axborotni dekodlasa, boshqasi xabarning mazmuniga chuqurroq kirishni ta'minlaydi.

7.3. Matnni psixolingvistik yondashuv asosida o'rganish

Hozirgi kunda ko'pchilik tilshunoslar ayrim til faktlarini to'liq o'rganish uchun lingvistik ramkadan chiqib, inson miyasida tashkil bo'ladigan til materialini zarur momentda olish uchun individning psixik jarayonlari sferasiga kirish kerakligini tan olishadi. Matnni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganishda tadqiqotchini birinchi navbatda matnning umumiy mohiyati va emotsional mazmunini ochib beradigan til vositalari qiziqtiradi.

Matnni psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishda esa, matnni yaratadigan va uni qabul qiladigan individning til va tafakkur faoliyati, ya'ni "til sistemasi elementlari yordamida haqiqatni ongda aks ettira oladigan til shaxsi" diqqat e'tiborda bo'ladi. Agar tilshunoslik matnga "ma'lum til faktlarini kuzatishga xizmat qiladigan material, real aytilgan (yozilgan) jumlar yoki jumlar yig'indisi" sifatida qarasa, psixolingvistika matnga "kommunikatsiya aktining shakli, kommunikatsiya predmetining zaruriy tarkibiy qismi, muallif va resipiyent" sifatida qaraydi. Bunda barcha matn aniq kommunikativ holat ramkasida o'rganiladi, matnlarning shakli va mazmuni kommunikatsiyaning ishtirokchilari – indvidlarning psixologik xususiyatlari orqali aniqlanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan matn yaratish va uning mazmuniy idroki individning nutqiy tafakkuri mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari asosida aniqlanadi⁵⁵.

⁵⁵ Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003. –С. 205-210.

Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi – matn – resipiyentdan iborat uchlik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda xususan shaxs omilining rolini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin matnning psixolingvistik xususiyatlari yoritilgan “Основы психологической диагностики (модели мира в литературе)” nomli asarida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqidagi quyidagi konsepsiyasini yaratdi:

1. Nutq ortida nafaqat til tizimi, balki psixologiya ham turadi (nutq yaratilish jarayoni nazarda tutilgan).

2. Har xil matn ortida har xil psixologiya turadi (matn tuzuvchining matnda aks etuvchi subyektiv xususiyatlari nazarda tutilgan).

3. Badiiy matn tuzilishi aksentuallashgan ong tuzilishiga muvofiqdir (ong psixik tuzilishining matn tuzilishiga ta’siri nazarda tutilgan).

4. Emotsional-mazmunliy dominanta badiiy matnning semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari, shuningdek, uning uslubiyati namoyon bo‘lishida asosiy rolni bajaradi.

5. Matn voqelik – ong – olam manzarasi – til – matn tuzuvchi – o‘quvchi – matn proyeksiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi (matn yaratilishi va idrokining barcha lisoniy va nolisoniy omillari qayd qilingan).

6. O‘quvchining badiiy asar haqidagi o‘z talqini bo‘lishi mumkin. Bu talqin matn bilan birga o‘quvchining psixologiyasiga ham bog‘liq bo‘ladi (matn idrokining xususiy hodisa ekanligi ta’kidlangan)⁵⁶.

V.P.Belyaninning fikricha, har bir o‘quvchi muayyan matn haqida o‘z interpretatsiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Matn idroki natijasida yuzaga keluvchi interpretatsiya xarakteri faqat matnning emas, balki o‘quvchining ham psixologik xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Muallif bilan o‘quvchi psixologik jihatdan qanchalik yaqin bo‘lsa, ularning matn haqidagi talqini shunchalik muvofiq bo‘ladi⁵⁷.

Barcha psixolingvistik tadqiqotlarda matnni qabul qilish va tushunish jarayonlarining murakkabligi va ko‘p planliligi ta’kidlanadi. I. A. Zimnaya nutqni qabul qilishning uch asosiy darajasini ajratadi. Aniqlash darajasida har bir kiruvchi tovush signali resipiyentning

⁵⁶ Белянин В.П. Основы психологической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. –С.8-9.

⁵⁷ Белянин В.П. Основы психологической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. –С.8.

xotirasida allaqachon mavjud bo'lgan etalon bilan alohida solishtiriladi. Aniqlik darajasida ikki yonma yon turgan tovushning birikuv imkoniyati e'tiborga olinadi. Keyingi bosqichda ijobiy yoki salbiy natijaga ega bo'lishi mumkin bo'lgan tartibga solingan tovush birikuvlarini (so'zlar va butun sintaktik strukturalar) anglash yuz beradi. Anglash bosqichining ijobiy natijasi tushunish hisoblanadi. Shuning uchun ham nutqni qabul qilishga mazmuniy qabul qilish deyiladi. Shunday qilib, matnni qabul qilish va tushunish jarayoni quyi, sensor (tovushlarni bilish), yuqori, mazmuniy darajalar o'zaro chambarchas aloqaga kirishgan pog'onali tizimni namoyon qiladi. Matnni anglashdagi pog'onalik alohida so'zlar ma'nosining talqinidan asta-sekin butun ifodalar ma'nosini tushunishga, undan matnning umumiy g'oyasini aniqlashga o'tishda ko'rinadi. Biroq bu jarayonlar, ya'ni alohida so'zlar va ifodalarni tushunish yordamchi amallar rolini o'ynaydi. Chunki resipiyent matnga murojaat qilar ekan, u hech qachon alohida so'zlar va ifodalarni tushunishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Tushunish jarayoni xabarning umumiy mazmunini izlashdan, gipotezalarni ilgari surishdan boshlanadi. Keyin sensor (tovushlarni bilish), leksik (alohida so'zlarni qabul qilish) va sintaktik (alohida jummalarni qabul qilish) kabi quyi darajalarga o'tiladi. Ya'ni matnni tushunishning real jarayoni xabar kelib tushgan tartiblar bilan to'g'ri kelmaydi.

Resipiyent matn bilan dastlab tanishganda undagi yo'nalishni aniq belgilab olish maqsadida turli tayanchlardan foydalanadi. U notanish bo'lgan chet tilida, hatto sun'iy tildagi matnni qabul qilayotganda so'zlar orasidagi probellarga, tinish belgilariga, takroriy ifodalarga va so'zlarga qarab, darrov qandaydir ma'noli qismlarni ko'rishga harakat qiladi. Bunda struktur tayanchlar muhim rol o'ynaydi. Ularning funksional mohiyati resipiyentning nutqiy tajribasi ko'ra shakllanadi.

Matnni anglash natijasida individda bu matnning proyeksiyasi (tasviri) shakllangan bo'lishi kerak. Matnning proyeksiyasi resipiyentda belgilar mahsulotining o'zaro ta'siri natijasida shakllangan tasavvurlar tizimini tashkil qiladi. Shu bilan birga, ayni matn turli resipiyentlar tomonidan turlicha talqin etilishi ham kuzatiladi. Bu ko'pincha badiiy matnga aloqador bo'ladi. Shuning uchun matnni qabul qiluvchi o'zi uchun boshqa resipiyentlarning va hatto muallifning fikridan ham farqli bo'lgan shaxsiy proyeksiyasini yaratishi mumkin.

Ayni matnning qabul qilinishidagi variantlilikni qator psixologik sabablar bilan izohlash mumkin. Bunga birinchi galda shaxsning

motivatsion, kognitiv va emotsional sferasini, ya'ni kishining mazkur matnga murojaat qilishga undagan ehtiyojlari, motiv va maqsadlari, matnni qabul qilish vaqtidagi emotsional holati, xabarni qabul qilishdagi diqqatining jamlash darajasi va h.k.ni kiritish mumkin. Shuningdek, matnni anglashda individ, albatta, o'zining dunyo haqidagi bilimlariga, tasavvurlariga suyanadi. Shunga ko'ra, matnni qabul qiluvchi individning jinsi va yoshi alohida e'tiborga olinishi lozim bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nutqni idrok qilish faoliyati qanday tarkibiy qismlarga ajratiladi?
2. Nutqni idrok qilish qaysi bosqichlar vositasida amalga oshadi?
3. A.A. Brudniy va L.S. Svetkovaning nazariy ta'limotiga ko'ra, tushunishning qanday darajalari mavjud?
4. Motorli nazariyaga ko'ra, inson nimalarni aniqlaydi?
5. Ch. Osgud tomonidan taklif qilingan modelni izohlab bering.
6. L. S. Svetkova tomonidan taklif qilingan modelni tushuntiring.

Adabiyotlar

1. Белянин В. П. Психолингвистика. – М., 2004.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М., 1996.
3. Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2005.
4. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999.
5. Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989.

IV BOB. TIL O‘ZLASHTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK QONUNIYATLARI

8-MA’RUZA NUTQ ONTOGENEZI

Reja:

1. Tabiatdagi hayvonlar tili
2. Tilni o‘zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar
3. Bolalar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari

Tayanch so‘z va iboralar: belgi, ramz, muloqot, tovushga taqlid so‘zlar, lisoniy qobiliyat, ontogenez, tilni o‘zlashtirish, intellekt, sensomotor intellekt, konseptual mantiq, verballashuv, egosentrik nutq.

8.1. Tabiatdagi hayvonlar tili

Inson nutqining juda kam qismini tashkil qiladigan pishillash, chirqillash, pishqirish, o‘kirish, g‘o‘ng‘illash va h.k. kabi kommunikatsiya vositalari hayvonlarda ham uchraydi. Hayvonlarning aksariyati o‘zaro muloqotda bo‘lishi mumkin, ammo ularning hech biri insonlar singari gaplasha olmaydi, ya’ni biron bir hayvon so‘zdan foydalanmaydi. Qushlar sayraydi, boshqa qushlar uchun tushunarli bo‘lgan tovushlarni chiqaradi. Hayvonlar halokat, tahdid, hujum, shodlik, g‘azab, qo‘rquv singari biologik holatlar haqidagi informatsiyani tovushlar, harakatlar, hidlar kabi turli modal signallar vositasida birbirlariga uzatishadi. Shuningdek, hayvonlar va hasharotlar biron joyda yemishning mavjudligi haqida xabar berish yoki o‘zlarining ahvoli va maqsadi haqida signal berish imkoniyatiga ham ega. Masalan, arilarda ancha rivojlangan kommunikatsiya tizimini kuzatish mumkin. Chunonchi, yo‘l boshlovchi ari qator ma’noli harakatlar vositasida gul shirasining ari uyasiga uzoqligi, miqdori va yo‘nalishi haqida boshqa arilarga xabar beradi⁵⁸.

Delfinlar ham 32 ta belgidan tashkil topgan kommunikatsiya tizimiga ega. Ular juda yuqori to‘lqinli tovushlar vositasida dengiz ostida o‘zaro muloqotga kirisha oladilar.


⁵⁸ Aitchison Jean. The Articulate Mammal. An introduction to psycholinguistics. 5th edition. – New York: Routledge, 2008. – P. 29-33.

Amerikalik tadqiqotchi Jarvis Bastian delfinlar bilan juda qiziq tajriba o'tkazdi. J. Bastian erkak delfin Bus va urg'ochi delfin Dorisni yorug' o'tkazmaydigan to'siq orqali muloqot qilishga o'rgatdi.

J.Bastian delfinlar birga saqladi va dastlab ularni chiroqni ko'rganlarida eshkakni bosishga o'rgatdi. Agar chiroq bir maromda yonib turgan bo'lsa, ular o'ng qo'l eshkakni, chiroq lopillab yonsa, chap qo'l eshkakni bosishdi. Delfinlar bu vazifani to'g'ri bajarganlarida J.Bastian ularni baliq bilan siyladi.

Delfinlar bu harakatni o'zlashtirishlari bilan J.Bastian ularni bir-biridan ajratib qo'ydi. Delfinlar bir-birini eshitishardi, lekin bir-birlari ko'ra olmasdilar. Eshkak va chiroq oldingi holatda qoldirildi, biroq birinchi qaysi eshkakni bosish kerakligi ko'rsatadigan chiroqni faqat Doris ko'ra olardi. Lekin baliqni qo'lga kiritish uchun har ikkala delfin ham eshkaklarni belgilangan tartibda bosishi lozim edi. Doris chiroqni ko'rishi bilan bu haqida Busga aytishi kerak edi. Hayratlanarlisi, "delfinlar o'zlariga yuklatilgan bunday murakkab vazifani a'lo darajada bajarishdi"⁵⁹. Delfinlar gaplasha oladigandek ko'rindi. Doris yangi xabarni yorug'lik o'tkazmaydigan to'siqdan uzata oldi!

Biroq keyinchalik bu muvaffaqiyatning aqldan yiroqligi ma'lum bo'ldi. Hatto, delfinlar birga bo'lgan paytda ham Doris chiroq lopillab yonganda har xil tovushlar chiqarishga odatlangandi. Delfinlar bir-biridan ajratilganda ham u bu odatini davom ettirdi. Albatta, Bus ham Dorisning tovushlarini chiroq bilan bog'liq ekanligini o'rganib olgandi. Demak, Doris "ijodiy gapirmagandi"⁶⁰.



⁵⁹ Evans W.E. and Bastian J. Marine mammal communication: social and ecological factors. In H.T. Andersen (ed.) // The Biology of Marine Mammals. – New York: Academic Press, 1969.

⁶⁰ Aitchison Jean. Ko'rsatilgan asar, 33-34.

Shunday qilib, delfinlar garchi suv ostida ajoyib “qiyqiriqlar” chiqarsalar-da, ular insonlardek “ijodiy” muloqot tizimiga ega emaslar.

Hayvonlarga inson tilini o‘rgatish uzoq davrlardan beri ko‘pchilikni qiziqtirib kelgan. Qator olimlarning tadqiqotlari insonlarga xos bo‘lgan intellekt yoki lisoniy qobiliyatning hayvonlarda yetishmasligi masalasini yoritishga bag‘ishlangan. Inson tilini o‘rganishga eng munosib “nomzod” sifatida shimpanze ko‘rsatilgan. Chunonchi, shimpanze genetik kodining 98,4% insonniki bilan mos kelgan⁶¹.

1931-yilda Luella va Vintrop Kelloglar Gua ismli 7 oylik shimpanzeni o‘zlarining o‘g‘li bilan birga tarbiyalash maqsadida oilalariga olishdi. Uni xuddi odam bolasidek katta qildilar: qoshiqda ovqat yedirdilar, cho‘miltirdilar, tagliklarini almashtirdilar, gapirtirishga urindilar. Natijada shimpanze 70 dan ortiq so‘zning ma‘nosini tushunadigan bo‘ldi, biroq gapira olmadi. Gua bilan birga katta bo‘lgan va u bilan deyarli tengdosh hisoblangan Kelloglarning o‘g‘li gapira boshladi. Xullas, Gua bilan o‘tkazilgan tajriba kutilgan natija bermadi.

1947-yilda amerikalik zoologlar Ketu va Keyt Xayeslar oilalariga urg‘ochi shimpanzeni olib, tarbiyaladilar. Maymun Viki (Vicki — the speaking chimp) bilan uch yil davomida muntazam ravishda ingliz tili darslari olib borildi. Afsuski, bu tajriba ham muvaffaqiyatli chiqmadi. Maymun uch yilda inglizcha to‘rt so‘znigina talaffuz qilishni o‘rgandi⁶².

№	Hayvon o‘rgangan so‘zlar	Transkripsiyasi	Tarjimasi
1	<i>mama</i>	<i>mama</i>	<i>oyi</i>
2	<i>papa</i>	<i>papa</i>	<i>dada</i>
3	<i>up</i>	<i>ap</i>	<i>yuqori</i>
4	<i>cup</i>	<i>kap</i>	<i>chashka</i>

1966-yilda amerikalik primatolog olimlar Alen va Beatris Gardnerlar taxminan 1 yoshli Vasho ismli shimpanze bolasiga Amerika kar-soqovlar tili (American sign language)ni o‘rgatishga harakat qilishdi. Ma’lumki, bu tizimda so‘zlarni ifodalash uchun belgilardan foydalaniladi. Masalan, “shirin” so‘zining ifodasi uchun Vashoning barmog‘i tilining ustiga qo‘yildi. Yoki barmog‘ining uchi burniga qo‘yilib, “qiziq” so‘zini anglatishga harakat qilindi.

Vasho tilni yetarli darajada “tabiiy” yo‘l bilan o‘zlashtirdi. Gardnerlar Vashoning atrofida har doim u bilan muloqot qiladigan

⁶¹ Белянин В. П. Психоллингвистика. Учебник. – М.: Флинта, 2004. – С. 35-36.

⁶² Brown R. Words and Things. –New York: The Free Press, 1958; Hayes C. The Ape in Our House. – New York: Harper, 1951.

kishilar bo‘lishiga harakat qildilar. Ba‘zan muloqotchilar Vashodan ularga taqlid qilishni yoki uni tuzatishga urindilar. Biroq yovvoyi maymunga ta‘lim berish oson kechmadi: “Vashoning diqqati o‘rganilayotgan obyektan chalg‘ib, u butunlay boshqa narsalarni talab qilishi, mashqlarni tashlab qochib ketishi, jazavaga tushishi, hatto murabbiyini tishlab olishi mumkin edi”⁶³. Biroq Vasho hayratlanarli muvaffaqiyatga erishdi, ta‘limning dastlabki bosqichida uning lisoniy rivojlanish darajasi odam bolasinikidan juda kam farq qilardi.

Dastlab u bir nechta sodda so‘zlarni, masalan, *come (kel)*, *gimme (menga ber)*, *hurry (shoshilmoq)*, *sweet (shirin)*, 21 oydan keyin esa 34 ta so‘zni o‘zlashtirdi. 4 yildan so‘ng 130 ta so‘zdan foydalanadigan va ikki yoki uch so‘zli ifodalar tuzadigan bo‘ldi. Agar bola 3 yoshida 1000 ta so‘z o‘ranib, murakkab gaplarni tuza olsa, Vasho 2 yoshli bola darajasida qoldi⁶⁴.

Bir necha yildan keyin Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universiteti professori Gerbert Terras ham Nim ismli erkak shimpanzega shaklan o‘zgartirilgan kar-soqovlar tilini o‘rgatishga harakat qilgan⁶⁵. Maymun ikki, uch, hatto to‘rt so‘zli gaplarni tuza olgan:

№	Hayvon o‘rgangan iboralar	So‘zma-so‘z tarjimasi
(15)	<i>more drink</i>	<i>yana ichimlik</i>
(16)	<i>tickle Nim</i>	<i>Nimni o‘ynat</i>
(17)	<i>banana Nim eat</i>	<i>banan Nim yemoq</i>
(18)	<i>eat drink eat drink</i>	<i>yemoq ichmoq yemoq ichmoq</i>
(19)	<i>banana me eat banana</i>	<i>banan menga banan yemoq</i>

Biroq Nim yoyiq gaplarni tuzayotganda, asosan, murabbiyning imo-ishoralarini takrorlagan. Shundan so‘ng tadqiqotchi shimpanze tilning eng sodda jihatlari va alohida so‘zlarinigina o‘zlashtirishi mumkin, degan xulosaga kelgan. Mazkur xulosa N. Xomskiyning “hayvonlar tilni o‘zlashtira olmaydi”, degan fikrini yana bir karra isbotlab berdi (hatto maymunga Noam Xomskiy (Noam Chomsky)ga taqlidan Nim Chimpsky, deb ism qo‘yilgan edi)⁶⁶.

N. Xomskiyning qayd qilishicha, hayvonlarda lisoniy qobiliyat mavjud bo‘lmagani uchun ular gapira olmaydilar. Fransuz psixologi Jan

⁶³ Gardner R.A. and Gardner B.T. Teaching sign language to a chimpanzee // Science -№ 165. 1969. – P. 666.

⁶⁴ Aitchison Jean. The Articulate Mammal. An introduction to psycholinguistics. 5th edition. – New York: Routledge, 2008. –P. 37-40.

⁶⁵ Terrace H.S. Nim. –New York: Knopf, 1979.

⁶⁶ Aitchison Jean. Ko‘rsatilgan asar, 41-42-betlar.

Piaje va boshqa qator olimlarning fikrlariga ko'ra, hayvonlarda inson tilidek murakkab hodisani o'rganish uchun kerak bo'lgan umumiy intellekt mavjud bo'lmaydi.

Inson nutqi juda murakkab jarayon bo'lib, uni birorta hayvon takrorlashga qodir emas. Buning asosiy sabablaridan biri insonda butun boshli organlar turkumining mavjudligidir. Inson mazkur organlar yordamida so'zlarni tarkib toptiradigan tovushlarni talaffuz qiladi. Insonning tovush tilchasi alohida usulda titraydi, bo'g'iz, og'iz va burun bo'shliqlari muayyan usulda sozlanadi, lablar, tishlar, pastki jag', til va tanglay o'ziga xos usulda harakat qiladi. Nutq organlarining barchasi unli va undosh tovushlarni talaffuz qilishga moslashgan, ularni hayvonlar takrorlashga qodir emas. Hayvonlar so'z va gap tuzish uchun tovushlarning butun bir turkumini talaffuz qilolmaydi.

Hayvonlarning gapira olmasliklarining yana bir muhim sababi bor. Ma'lumki, so'zlar predmetlar, xatti-harakatlar, tajribalar va g'oyalarning ramzidir. Masalan, "qush" so'zi uchadigan jonli obyektни ifodalash uchun qo'llaniladigan ramzdir. Boshqa bir guruh so'zlar esa uning rangi, shakli, uchishi va sayrashini ifodalaydi. Yana bir boshqa guruhdagi so'zlardan qush va uning xatti-harakatlari haqidagi fikrni ifodalash maqsadida foydalanish mumkin. Biron bir kishi bilan muloqotda bo'lish maqsadida so'zlarni qo'llash ma'lum yo'sinda uyushtirilgan ramzlardan foydalanishni anglatadi. Buning uchun ma'lum darajada aql-idrok bo'lishi talab etiladi. Aql-idrok esa hayvonlarda mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun ular insonlardek gapira olmaydi.

Hayvonlar tilining inson tilidan farqlanuvchi eng muhim xususiyati unda semantik funksiyaning mavjud emasligidir. Hayvonlar tilining unsurlari tashqi predmetlarni o'zicha aks ettirmaydi, ularning mavhum xususiyatlari va munosabatlari hamisha aniq vaziyatlar va aniq xususiyatlar bilan bog'liq bo'ladi hamda aniq maqsadlarga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hayvonlar tilida insonlar nutqida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lishsizlik funksiyasi ham mavjud bo'lmaydi. Hayvonlar bo'lib o'tgan voqeaning aniq vaqtini ko'rsatib bera olmaydi, istak maylidagi konstruksiyalar va h.k. ni tuza olmaydi. Hayvonlar va hasharotlarda har bir signal ortida muayyan ma'no mustahkamlangan bo'ladi. Hayvonlardagi aksariyat signallar, mantiqiy to'plangan informatsiya sifatida emas, balki mexanizm sifatida harakat qiladi.

Hayvonlar chiqarayotgan tovush faqatgina tug'ma impuls bilan chegaralanib qoladi. Hayvonlarning bolasi tovush chiqarishga

o'rganmaydilar. Binobarin, barcha mushuklar qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar, bir xil miyovlaydilar yoki hamma kuchuklar bir xil vovullaydilar. Hayvonlar tili genetik jihatdan mustahkamlangan bo'lib, u chegaralangan muayyan signallar majmuasidan tashkil topgan yopiq tizim hisoblanadi. Inson tili esa aksincha, genetik jihatdan mustahkamlanmagan ochiq tizim bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi.

8.2. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar

Ontogenez – organizmdagi biron narsaning (organ, funktsiya, tuzilish) tug'ilishidan to o'lguniga qadar bo'lgan izchil rivojlanishi.

Psixolingvistikada *ontogenez* termini inson lisoniy qobiliyatlarining shakllanishini anglatadi. Nutq ontogenezi nutqiy faoliyat nazariyasining tarkibiy qismi bo'lib, u individda nutq mahsulining shakllanishi, nutqiy qobiliyat ko'nikmasining paydo bo'lishini o'rganadi. Nutq ontogenezi bola nutqining tug'ilishdan to 7 (9,11) yoshgacha bo'lgan davrida har tomonlama izchil rivojlanishida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) nazariyasi keng qamrovli soha hisoblanib, o'ziga xos mustaqil maqomga ega.

Kishilar tilni ular ma'lum til bilimlari bilan ta'minlanib tug'ilganliklari uchun o'zlashtirishadimi? Yoki ular turli muammolarni hal qila oladigan o'ta aqlli mahluq bo'lganliklari uchun tilni o'rgana olishga qodirmilar? kabi savollarni javoblantirish uchun olimlar tomonidan turlicha qarashlar ilgari surilgan.

1. *Xatti-harakatga asoslangan qarash.* Ushbu qarashga ko'ra, bolalar tilni boshqa narsalarni o'rgangandek o'rganishadi. Atrofdagi bir qancha tovushlarni guruhlantirish, shakllantirish va shunga o'xshash holatlarda mazkur tovush va ta'sirlarni yuzaga chiqarish amalga oshiriladi. Bola onasi va atrofidagi yaqin kishilarining ko'rsatgan ta'sirlarini vaqti vaqti bilan tilga chiqaradi. Shuningdek, go'daklarning ko'p eshitgan tovushlarga taqlid qilishlari ham nutqning shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

2. *Ijtimoiy ta'sirlarga asoslangan qarash.* Bu qarash ham yuqoridagi qarashning davomi bo'lib, unda til o'zlashtirish to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish va qoliplar olish asosida talqin qilinib, ijtimoiy va madaniy muhitga urg'u beriladi. Chaqaloq tug'ilishi bilan ma'lum bir madaniy muhitga tushadi. Shunday ekan ijtimoiy (madaniy) me'yorlar, eng avvalo, mana shu madaniy belgilar orqali go'dakka o'zlashadi. U rivojlanish jarayonidagina jamoa (sotsium)ning a'zosiga aylanadi.

Mazkur jarayon esa kamida ikki munosabatlar tizimi – go‘dakning odamlar bilan muloqotga kirishishi hamda uni o‘rab turgan moddiy narsa-buyumlarni o‘rgana borishi orqali shakllanadi. Bu munosabatlar tizimini egallash bir vaqtning o‘zida bir-biridan ajralmagan holda amalga oshadi.

3. *Ona tiliga asoslangan qarash.* Mazkur qarash til o‘zlashtirishni genetik jihatiga e‘tibor qaratadi. Barcha insonlar oldindan tilni o‘zlashtirish vositalariga ega bo‘ladi. Odam paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab til ham paydo bo‘lgan. U avloddan-avlodga o‘tib, takomillashib bordi. Natijada insonning gapirish qobiliyati uning ruhiga shunchalik chuqur joylashdiki, u nasldan-naslga o‘tish xususiyatiga ega bo‘ldi. Har bir yangi tug‘ilgan go‘dak tilni yangidan o‘rganmasdan, balki organizm balog‘atga yetishi bilan uning lisoniy qobiliyati ham organizm bilan birga rivojlanadi. Demak, inson zoti gapirishni uni o‘rab turgan jamiyat a‘zolari tomonidan o‘rganmay, ular yordamida bosh miyasiga joylashgan mavjud tizimni tiklaydi, aks holda bu qarashga ko‘ra, bolalar tildek murakkab bir hodisani bunchalik tez va mukammal o‘rganib olishlari mumkin bo‘lmasdi.

4. *Biologik asoslarga tayangan qarash.* Noam Xomskiy va Erik Lennerberg kabi tilshunoslilar tilni o‘zlashtirishdagi atrof-muhitdagi sharoitlar ahamiyatini e‘tirof etganlari holda uni biologik asoslarga bog‘lashgan. Olimlarning fikricha, barcha bolalarda tilni o‘rganish jarayonini boshqaradigan tug‘ma qobiliyat mavjud. N.Xomskiyning qarashicha, insonda tilni o‘rganish uchun “tug‘ma” (innate, inborn) maxsus mexanizm mavjud bo‘lib, u bolani atrofida gaplashilgan tilni singdirishiga, tushunib o‘rganishiga, vanihoyat, uning muayyan qoidalarga mos ravishda gapirishini ta‘minlaydi. N.Xomskiyning taxminicha, bolada tug‘ma til strukturalari mavjud. Shunga ko‘ra, olim “tug‘ma bilimlar” nazariyasini ilgari suradi. N.Xomskiy til tizimidagi har bir ifodani botiniy va zohiriy strukturaga ajratadi. Botiniy strukturani tushunchalarning ma‘no tomoni, zohiriy strukturani esa muomaladagi so‘zlar bilan aloqador qiladi. Bolalar tilni o‘rganishda dastlab tovushlarning ma‘nolarini tushunib oladilar, keyin esa ularni botiniy strukturaga aylantiradilar.

L.S.Vigotskiyning fikricha, til tafakkur bilan birga parallel holda rivojlanadi. U til o‘rganishning kishining ongli fikrlash qobiliyatiga ta‘sir ko‘rsatishini qayd qiladi. L.S.Vigotskiyga ko‘ra, so‘z predmetning strukturasiga yo‘nalib, funksional ma‘no kasb etadi. Shu bilan birga,

olim bola mavjud bo'lgan til muhitining fikrlash tizimiga ta'sir qilishini ham alohida ta'kidlaydi. Insonning psixik rivojlanishi uning umuminsoniy madaniy tajribani o'zlashtirishi (bu asosan moddiy dunyoni, aniqrog'i, narsa-buyumlarni o'rgana borishi) bilan bog'liq holda ro'y beradi⁶⁷.

Biologik va ijtimoiy o'zaro munosabat haqidagi masalani fransuz psixologi Jan Piaje asosli ravishda javoblantiradi. Jan Piaje asosiy e'tiborini bola tafakkurining xususiyatlari, borliqdagi hodisalarni go'dak ongida qay tarzda namoyon bo'lishi va h.k.ga qaratadi. J.Piaje bolada tafakkur va tilning rivojlanishi uzluksiz ravishda emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshishini qayd qiladi. J.Piaje bolaning rivojlanishida ikki bosqichni qayd qiladi va intellektni birinchi planga chiqaradi. Tilning rivojlanishi umumiy intellekt o'zgarishlarini boshqaradi va intellektual rivojlanish tildan ta'sirlanadi. Birinchi *sensomotor mantiq* bosqichida bolada harakatlar mantig'ini tushunishga yordam beradigan *sensomotor intellekt* rivojlanadi. Ikkinchi bosqichda harakatlar mantig'idan *konseptual mantiqqa* o'tiladi. U bola hayotining ikkinchi yilida yuz beradi. Mazkur bosqichda bola tilni semiotik vosita sifatida o'zlashtiradi. U kattalarning imo-ishoralarini takrorlaydi va unda ramzlar funktsiya rivojlanadi. Bolaning dastlabki so'zlari haqiqiy ramzlar emas. Chunki bu ramzlar ko'rilgan narsalar va hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Bolalar atroflarida mavjud bo'lmagan narsalar haqida gapirishga boshlaganda haqiqiy, asosiy ramzlarni qo'llay boshlaydilar⁶⁸.

J.Piajening fikricha, bola ongi dastavval toza, sof bo'ladi. U jamiyatga kirib borishi bilan bolaning ongida ham ijtimoiylashuv yuz bera boradi. Bolaning intellekti uni o'rab turgan muhit bilan munosabatiga ko'ra shakllanib boradi. Munosabat qaysi til orqali amalga oshirilsa, bola tafakkuri shu tilda o'sadi, biroq til o'z holicha bu o'sishni belgilab berolmaydi⁶⁹.

L.S.Vigotskiy va J.Piaje fikrlarini birlashtirib qaraydigan bo'lsak, til rivojlanishini tashqi olamdagi narsalarning mental ramzlashishi bilan amalga oshishi ma'lum bo'ladi. Til bir tomondan fikrlash uchun xom ashyo tayyorlarkan, ikkinchi tomondan fikrlay olish qobiliyatiga parallel ravishda faoliyat ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, til

⁶⁷ Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. Мышление и речь. Проблемы психологического развития ребенка. – М., 1956. – С. 63.

⁶⁸ Пиаже Ж. Схемы действия и усвоение языка // Семиотика. – М., 1983. – С. 133-136.

⁶⁹ Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.-Л., 1932.

bolaning mavhum fikrlash qobiliyatiga tashqi olamdan ramzlashtirilgan ma'nolarni biriktirishiga yordam beradi. Ya'ni til va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular o'zaro aloqadadir. Shuning uchun bola tilni yetarli darajada tushunadi va uning tushunchaviy fikrlash qobiliyati ortgan sari tili ham rivojlanadi.

8.3. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari

Inson tilni to'liq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lib tug'iladi. Biroq oldinda ushbu imkoniyatni amalga oshirish lozim bo'ladi. Buni qanday kechishini tushunish uchun psixolingvistika bola nutqining rivojlanishini o'rganadi.

Bolalar nutqining rivojlanishi uch bosqichda kechadi:

1. *Verballashuv gacha bo'lgan davr*. Bu bosqichda bola gapirmaydi. Biroq bolada o'zining atrofidagi yaqinlari bilan so'zlashish jarayoniga qadar bo'lgan ko'nikmalar hosil bo'ladi, kelgusidagi nutqiy faoliyati uchun zaruriy sharoitlar yuzaga kela boshlaydi.

Go'dak tilni o'zlashtirishni tovush shakllarini o'zlashtirishdan boshlaydi. Go'dakning o'zi ham g'uvur-g'uvur qilib turli tovushlar chiqaradi (*a-aa, uu-u, g'u, ag'i, ba-ba, da-da*). Bu o'ziga xos bir o'yin bo'lib, bola undan zavqlanadi. Go'dak bir necha daqiqa davomida bir xil tovushni takrorlashi mumkin va o'zining bu harakati bilan nutq tovushlari artikulyatsiyasini sozlagan bo'ladi. Odatda, go'dakning dastlabki guvranishida onasi u bilan gaplasha boshlaydi. Bola bu tovushlarni ilg'ab oladi va ularni takrorlashga harakat qiladi.

Ko'pincha 10 oydan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqiy faoliyatida voqelik va narsa-buyumlarni muayyan belgi-xususiyatlariga ko'ra aloqadorlik asosida nomlash hodisasi imitatsiya usuli orqali yuzaga chiqadi. Bolalar nutqida uchraydigan **alyu** (telefon), **bi-bip** yoki **g'n** (mashina), **paq** (to'pponcha), **qu-qu** (tovuq), **miyov** (mushuk), **mo'** (sigir), **ba** (qo'y) singari bir qator misollar shular jumlasidandir. Bunday holatlarda bola narsa-hodisalar hamda hayvonlarni tovushga taqlid qilish asosida nomlaydi. Shu tufayli muloqot vaziyatida bolaning talaffuzida bu usullar asosida namoyon bo'luvchi narsa-hodisa va hayvonlarning tovushlari uning nutqida nominativ vosita vazifasini bajaruvchi lug'aviy birlik sifatida mustaqil ma'no kasb etadi⁷⁰.

Bola boshqa tovushlar orasidan nutqiy tovushlarni ajrata boshlaydi, ovozga qarab gapirayotgan shaxsni ajratadi, yaqinlarining ovozini,

⁷⁰ Курбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи. Монография. – Тошкент: “Fan va texnologiya” nashriёти, 2014. – Б. 58.

nutqini taniydi. Nutq ovozinig xosligini baholay oladi (jahl bilan gapirilsa yig'laydi, kulgili ohangga kulib javob qaytaradi, erkalatish yoki buyruq ohangidagi so'zlarni tushuna boshlaydi). Verballashuv gacha bo'lgan bosqich bolaning kattalar tomonidan aytilgan oddiy, sodda gaplarini tushunishi hamda passiv nutqqa kirishishi bilan yakunlanadi.

2. *Bolaning aktiv nutqqa o'tishi.* Bu davr, odatda, bola umrining 2-yilida kechadi. Bolaning fonematik eshitish qobiliyati rivojlanadi. U ilk so'zlarini, masalan, *oyi, aya, opa, apa, ada, dada* kabilar aytadi. So'zlardagi ayrim tovushlarning tushirilishi va noto'g'ri talaffuz qilish (*kel* o'rniga *te*, *ovqat* o'rniga *okat*) hollari kuzatiladi. Ba'zan kattalar tomonidan aytilgan so'zni bola qisqaroq yoki ayrim qismlarini ikki marta qaytarib, bo'g'inlarga ajratib talaffuz qiladi (masalan, *qo'g'irchoq* o'rniga *choq*, *kompot* o'rniga *pot* va h.k.). Bola nutqining dastlabki davrlarida takrorlanuvchi bo'g'inlardan iborat so'zlarni talaffuz qilish qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun ham kattalar aytgan ayrim bir bo'g'inli so'zlarni bola ikkilantiradi (masalan, *osh* so'zi o'rniga *ashsha*, *non* so'zi o'rniga *nanna*). Ikki so'zni bir-biriga bog'lab ifoda hosil qilishga urinish 1,5 yoshda yuz beradi. Asta-sekin buyruq mayli o'zlashtiriladi.

Bola nutqi rivojlanishining birinchi va ikkinchi bosqichlarida uning nutqining rivojlanishi uchun kattalar bilan bo'ladigan muloqot muhim omil hisoblanadi. Bola va katta odam o'rtasida emotsional kontakt vujudga keladi. Ular o'rtasida muloqot paydo bo'ladi va bu muloqot nutqiy elementlar bilan boyitiladi.

3. *Nutqning muloqot uchun asosiy vositaga aylanishi.* Bu bosqichda so'zlovchining maqsadi, voqealarning borish jarayoni va mazmuni aniqlashadi. Bolaning lug'at boyligi kengayib, grammatik konstruksiyalar murakkablashadi, uning talaffuzi tiniqlashadi.

Ikki yoshdan so'ng bola so'zlar morfemikasi va so'z yasash qonuniyatlariga muvofiq so'z boyligini kengaytiradi. Ikki yarim yoshli bola nutqida ikki so'zdan iborat sodda so'z birikmalari (bular ko'proq fe'liy birikmalar bo'ladi) ifodalana boshlaydi. Bola birlik va ko'plikni farqlash hamda qo'llash, ba'zi kelishik qo'shimchalarini ifodalashni o'rganadi. Uch yoshdan so'ng bola sodda gaplarni, keyin esa murakkab gaplarni nutqida qo'llay boshlaydi. Nutqiy rivojlanishi me'yorda kechgan bola uch yoshni to'ldirish arafasida taxminan 1000 ta so'zni bilsa, 6-7 yoshlarda uning so'z boyligi 3000-4000 ta so'zdan tashkil topadi.

Nutqning grammatik qurilishi bolalarda uch yoshning boshlarida shakllana boshlaydi. Bola maktab yoshiga yetar chog'ida deyarli barcha so'z yasash, so'z o'zgartish ko'nikmalarini hosil qiladi. O'zaro bog'langan, grammatik shakllangan kontekstli nutq paydo bo'ladi. Maktab davrida bola ta'lim jarayoni orqali nutqqa ongli ravishda egalik qila boshlaydi. Yozma nutq va o'qish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa nutqning leksik, grammatik, stilistik tomonlarini boyishiga, og'zaki va yozma nutqning takomillashuviga olib keladi.

Bolalar nutqidagi o'ziga xos hodisalardan biri *egosentrik nutqdir*. O'z genezisiga ko'ra *egosentrik nutq* maktab yoshigacha bo'lgan bolaning o'yin yoki boshqa mashg'ulotlar jarayonida o'zi bilan gaplashishidan shakllanadi. Bolaning bu nutqi suhbatdoshining bor-yo'qligidan qat'iy nazar, amalga oshadi. Jan Piaje mazkur hodisaga xos ikki holatni ajratib ko'rsatadi:

- 1) suhbatdoshsiz nutq (kommunikatsiyaga qaratilmagan nutq)
- 2) suhbatdosh fikri inobatga olinmaydigan, bolaning o'z nuqtayi nazariga asoslangan nutq.

J.Piajega ko'ra, 3-4 yoshdagi bola nutqining 40%ni egosentrik nutq tashkil qiladi. Bola maktab yoshiga yetganda, bu nutq asta-sekin yo'qoladi.

Umuman, bola nutqining shakllanishi 3-11 yoshgacha bo'lgan davrlarni qamrab oladi. Bolaning nutqi aynan ana shu davrlarda shakllanib, individual nutqning asosiy ko'rsatkichlarini hosil qila boshlaydi.

Shunday qilib, shaxsning psixik rivojlanishi ijtimoiy rivojlanishdir. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni mazkur jamiyat madaniyatining o'zlashtirilishidir. Tilni o'zlashtirish shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonidagi hal qiluvchi omildir. Til bolaning ongiga jamoaning ijtimoiy tajribasi doirasida kirib boradi va bu ijtimoiylashuv natijalarini to'plash vositasi sanaladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Hayvonlar halokat, tahdid, hujum va h.k. biologik holatlar haqidagi xabarni nima vositasida bir-birlariga uzatishadi?
2. Hayvonlar insonlardek gapira olmasliklarining sababi nimada?
3. Qaysi hayvonning genetik kodi insonniki bilan ko'proq mos keladi?
4. Nutq ontogenezi nima?

5. Xatti-harakatga asoslangan qarashning mohiyati nimadan iborat?
6. Ijtimoiy ta'sirlarga asoslangan qarashning mohiyati nimadan iborat?
7. Biologik asoslarga tayangan qarashning mohiyatini tushuntiring.
8. N.Xomskiy qaysi nazariyani ilgari surgan?
9. J. Piaje o'zining qarashlarida asosiy e'tiborni nimalarga qaratgan?
10. Bola nutqining verballashuvigacha bo'lgan davrida qanday holatlar kuzatiladi?
11. Bolaning aktiv nutqqa o'tish davridagi o'ziga xos xususiyatlarni aytib bering.
12. Nutqning muloqot uchun asosiy vositaga aylanish davri qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?
13. Bola maktab yoshiga yetar chog'ida qanday ko'nikmalarni hosil qiladi?
14. Egosentrik nutq qanday hodisa?

Adabiyotlar

1. Белянин В. П. Психоллингвистика. Учебник. – М.: Флинта, 2004. – 232 с.
2. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. Мышление и речь. Проблемы психологического развития ребенка. – М., 1956.
3. Пиаже Ж. Схемы действия и усвоение языка // Семиотика. – М., 1983.
4. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – М.-Л., 1932.
5. Aksan Doğan. Her Yönüyle Dil. Ana Çizgileriyle Dilbilim. 1. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1990.

Qo'shimcha adabiyot

6. Gardner R.A. and Gardner B.T. Teaching sign language to a chimpanzee // Science -№ 165. 1969. – P. 664–72.

V BOB. PSIXOLINGVISTIKADA EKSPERIMENTAL TADQIQOTLAR

9-MA'RUZA PSIXOLINGVISTIK TADQIQOT METODLARI

Reja:

1. Psixolingvistikada eksperimentning roli
2. Assotsiativ eksperiment
3. Soʻz va soʻz guruhlarini eksperiment asosida oʻrganish

Tayanch soʻz va iboralar: eksperiment, assotsiativ eksperiment, sintagmatik munosabat, assotsiativ guruhlar, stimul-soʻz, reaksiya-soʻz, paradigmatic assotsiatsiya, sintagmatik assotsiatsiya, erkin assotsiativ eksperiment, yoʻnaltirilgan assotsiativ eksperiment, zanjirli assotsiativ eksperiment.

9.1. Psixolingvistikada eksperimentning roli

Psixolingvistika birinchi galda eksperimental fan hisoblanadi. Nutq faoliyatini eksperiment asosida oʻrganish qator afzalliklarga ega. Tayyor matndagi oddiy nutqni anʼanaviy metodlar asosida oʻrganayotgan tadqiqotchi passiv kuzatuvchi rolini bajarsa, eksperiment asosida oʻrganishda u faoliyatning aktiv qatnashuvchisiga aylanadi, eksperiment jarayoniga va uning xarakteriga taʼsir qila oladi. Tadqiqotchi holatni modellashtirish mobaynida tayyor matnni tahlil qilishga nisbatan nozik nutq mexanizmlarini koʻproq oʻrgana oladi; oddiy kuzatish metodiga nisbatan qisqa vaqt ichida koʻproq materialga ega boʻla oladi.

Shu bilan birga, eksperiment anʼanaviy tilshunoslikda quyidagi eʼtirozlarni tugʻdiradi:

1. Eksperiment materiallari juda qiziqarli, biroq eksperimentda haqiqatan ham til qoidalari aniqlanadimi? Buni eksperiment olib boruvchilar qanday isbotlashadi?
2. Eksperimentda oddiy, tabiiy nutq uchun xarakterli boʻlmagan sunʼiy holatlar yuzaga keladi.
3. Oddiy nutqda hech qanday eksperiment bilan tashkil qilib boʻlmaydigan holatlar boʻladi, yaʼni eksperiment metodlarining imkoniyatlari cheklangandir.

Bunday e'tirozlarni psixolingvistika quyidagicha javoblaydi:

1. Avvalo, eksperimentda til yoki nutq o'rganiladimi? degan savolga javob berish kerak. An'anaviy tilshunoslik tilga faqat nutq orqaligina chiqilishini tan oladi. Agar til oddiy matnlar orqali o'rganiladigan bo'lsa, u holda, nega uni eksperiment asosida olingan matnlar orqali o'rganib bo'lmaydi?

2. Garchi eksperimentda sun'iy holatlarning mavjud bo'lishi ehtimoli bo'lsa-da, eksperimentda aniqlangan nutq faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari eksperimentdan tashqaridagi holatlar uchun ham xosdir. Tipik va tipik bo'lmagan, tabiiy va sun'iy holatlar orasiga aniq chegara qo'yish mumkin emas.

3. Eksperiment psixolingvistik tadqiqotning yagona metodi emas. Psixolingvistika an'anaviy tilshunoslikda qo'llaniladigan materialni ham, kuzatish metodini ham inkor qilmaydi. Psixolingvistika bu materialdan foydalanadi, biroq undan boshqacharoq, ya'ni kengroq kontekstda, kengroq material va metodlar asosida foydalanadi.

Eksperiment natijalarining to'g'riligini tekshirish uchun turli eksperimental metodikalardan foydalanish so'ngra olingan ma'lumotlarni qiyoslash tavsiya etiladi. Eksperiment natijalari bilan eksperimentsiz xulosalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlashda ham foyda bor.

Nihoyat, o'rganilayotgan nutqiy faoliyatning qonuniyatlari juda murakkab bo'lgani uchun turli variantlardagi eksperimentlarni o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, bir xil topshiriqni bir paytning o'zida ham talabalarga, ham o'quvchilarga berish mumkin.

Tilshunoslar o'rtasida fonetika bo'yicha eksperimental ishlar ancha yaxshi tanilgan. Eksperimental fonetika nutq tovushlarini tadqiq qilishda eksperimental metoddan foydalaniladi. Eksperimental fonetik metod nutq tovushlarini, prosodemik hodisalarni (masalan, intonatsiya, pauza, ritm) o'rganishda tovushlarni yozib oluvchi, ularni, mohiyatidan kelib chiqib, tahlil qiluvchi maxsus texnik vositalardan, asboblardan foydalaniladi. Eksperimental – fonetik metod o'z ichida somatik, pnevmatik va elektroakustik turlarga bo'linadi.

Semantika sohasidagi tadqiqotlarda ham qator qiziqarli eksperimental metodikalar ishlab chiqilgan va yaxshi natijalar qo'lga kiritilgan. Biroq semantika sohasidagi tadqiqotlar oz va ular fonetik tadqiqotlar singari mashhur emas. Shuning uchun semantika sohasidagi eksperimentlar xususida to'xtalish joiz bo'ladi.

9. 2. Assotsiativ eksperiment

Soʻz sintagmatik munosabatga (til birliklarining nutq oqimida yuz beradigan ketma-ketlik xususiyatlari asosidagi munosabatlari: *U/ ertalabdan kechgacha/ ishlaydi*) kirishi bilan birga, nutqiy jarayondan tashqarida boshqa soʻzlar bilan umumiylik belgisiga koʻra soʻzlovchi til xotirasida assotsiatsiyalashadi va bu assotsiatsiyalashgan birliklar xotirada muayyan guruhlarini hosil qiladi.

Guruh birliklari oʻrtasida esa xilma-xil munosabatlar mavjud boʻladi. Masalan, *ishla* soʻzini aytishimiz bilan beixtiyor xayolimizda bir tomondan *soʻzla, tuzla, muzla* singari soʻzlar guruhi, ikkinchi tomondan, *ishchi, ishsiz, ishli* kabi soʻzlar guruhi keladi. Yoki rus auditoriyasidan *poet* soʻziga harqanday soʻz bilan tezda javob berishini soʻrasangiz, rus auditoriyasining taxminan 100dan 90tasi shubhasiz *Pushkin* deb javob beradi. Mohiyatan stimul (*poet*) berildi va bu stimulga reaksiya (*Pushkin*) olindi.

Lisoniy birliklarning bunday munosabati sintagmatik munosabatdan tubdan farq qiladi. Bu munosabat sintagmatik munosabatdan farqli ravishda ketma-ketlikka asoslanmaydi. Balki soʻzlovchi xotirasida oʻzaro bogʻlangan holda joylashadi.

Ongimizda hosil boʻlgan assotsiativ guruhlar maʼlum umumiy belgisiga ega boʻlgan munosabat aʼzolarining yaqinlashuvi bilan chegaralanmaydi. Ong har bir munosabatda munosabat aʼzolarining bogʻlovchilar xarakterini ham qamrab oladi. Natijada nechta assotsiativ qator boʻlsa, shuncha farqli munosabatni hosil qiladi. Masalan, oʻzakdoshlik asosida birlashgan soʻzlar guruhi qoʻshimchadoshlik asosida birlashgan soʻzlar guruhi. Har qanday soʻz oʻzi bilan assotsiatsiya munosabatida boʻlishi mumkin boʻlgan soʻzni doimo esga soladi.

Sintagmatik munosabatda elementlar ketma-ketligi va oʻzaro almashinishi haqida tasavvurga ega boʻlsak, assotsiativ guruh aʼzolarining esa xotiramizda aniq miqdori va aniq ketma-ketligi mavjud boʻlmaydi.

Bir qarashda bunday qorishiq manzaradan qandaydir qonuniyatni aniqlab olish qiyin koʻrinadi. Shuning uchun ham uzoq vaqtgacha tilshunoslar tarafidan assotsiativ strukturalarni tushunish qiyin boʻlib kelgan.

Assotsiatsiyani maʼlum turlarga, xususan, paradigmatic va sintagmatik assotsiatsiyalarga ajratish mumkin. Paradigmatic

assotsiatsiyalarda stimul va reaksiya koordinatsiya (stul-taburetk), subordinatsiya (meva-olma) yoki superordinatsiya (stul-mebel) munosabatida bog‘langan bo‘lishi mumkin. Koordinatsiyali paradigmatic assotsiatsiyalar sinonim (do‘st-o‘rtoq) va antonim (do‘st-dushman) munosabatlarga ajratilishi mumkin. Sintagmatik munosabatlarda turkumlarga ko‘ra bo‘lish mumkin: ot-fe‘l (do‘st-kelmoq), ot-sifat (do‘st-sodiq) va h.k. Lekin assotsiatsiya munosabatlarida bunday tasniflar ham yetarli bo‘lmaydi. Ular yana mavzular bo‘yicha yosh, jins, kasb-kor va h.k. bo‘yicha davom ettirish mumkin. Shuningdek, turli xalqlarning madaniy-tarixiy ana‘analari bilan bog‘liq qiziqarli assotsiatsiyalarni kuzatish mumkin: *non* stimuliga ruslar *tuz*, o‘zbeklar *choy*, fransuzlar *vino*, koreyslar *shirinlik*, deb reaksiya qilishadi.

Semantik tadqiqot metodlari orasida erkin assotsiatsiya metodikasi alohida o‘rin tutadi. 1910-yilda birinchi lug‘at – “Ingliz tilining assotsiativ me‘yorlari” nashr qilinadi. 1977-yilda Moskvada “Словарь ассоциативных норм русского языка” kitobi nashr qilinadi. Unda birgina *друг* stimul-so‘ziga 209 ta javob berilgan: *товарищ* - 39, *враг* - 30, *верный* - 29, *хороший* - 16, *мой* -10, *недруг* - 9, *близкий* -5 va h.k.

Assotsiativ eksperiment (associative experiment) semantikaning psixolingvistik tahlili eng ko‘p ishlangan texnika hisoblanadi.

Assotsiativ eksperimentning o‘tkazish tartibi. Tajriba o‘tkaziluvchilarga yoki respondentlarga muayyan stimul so‘zlarning ro‘yxati beriladi va ulardan xayollariga birinchi kelgan reaksiya so‘zlarni aytish so‘raladi. Odatda, har bir respondentga 100ga yaqin so‘z beriladi va ularga 7-10 daqiqa ichida javob berish so‘raladi. Assotsiativ lug‘atlardagi reaksiya so‘zlarning aksariyati universitet va kollejlardagi stimul til ona tili bo‘lgan 17-25 yosh orasidagi talabalardan olingan.

Eksperiment maqsadi: respondentning internet haqidagi tasavvurlarini, xususan, internet bilan bog‘liq o‘rtacha assotsiativ qatorlarni tushunishi; so‘zlar orasidagi assotsiativ munosabatlarning joylashuvi va tahlili, ularning obyektiv qonuniyatlarga asoslanganligini aniqlash.

Eksperiment sharti: Auditoriyaga anketa ko‘rinishidagi internetga oid stimul-so‘zlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan stimul material tarqatiladi. Anketani olgan respondentlar stimul-so‘zlarni o‘qishadi va bu so‘zlarni

o'qish jarayonida xayollariga birinchi kelgan bitta reaksiya-so'zni darhol stimul-so'zlarning qarshisiga yozishadi.


Eksperiment vaqti: 3 daqiqa.

ANKETA

1. Ismi-sharifi _____
2. Kursi _____
3. Yoshi _____

№	Stimul-so'zlar	Reaksiya-so'zlar
1	internet	
2	kompyuter	
3	tarmoq	
4	chat	
5	forum	
6	e-mail	
7	veb-sahifa	
8	informatsiya	
9	kommunikatsiya	
10	blog	
11	skype	
12	parol	

Assotsiativ eksperimentning quyidagi turlari mavjud:



Erkin assotsiativ eksperimentda respondentlarning reaksiyasiga hech qanday chegara qo'yilmaydi.

Yo'naltirilgan assotsiativ eksperimentda respondentlardan ma'lum grammatik yoki semantik guruhdagi assotsiatsiyalarni (masalan, otlarga mos sifat topish) berish so'raladi.

Zanjirli assotsiativ eksperimentda respondentlardan bir qancha stimul soʻzlarga (masalan, 20 soniya ichida 10 ta reaksiya soʻz berish) assotsiatsiyalar berish soʻraladi.

Xullas, assotsiativ eksperiment ishonarli lingvistik va psixolingvistik informatsiya beradi. Ommaviy eksperiment materiallari tilning maʼlum assotsiativ guruhlari, madaniy xususiyatlari, ijtimoiy differensiatsiyasini aniqlashda, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni amalga oshirishda qoʻl keladi.

9.3. Soʻz va soʻz guruhlari eksperiment asosida oʻrganish

Erkin assotsiatsiya metodikasi koʻp narsalarni belgilay olsa-da, u cheklangandir. Chunonchi, u nomlarning standart, chastotali assotsiativ aloqalarini yaxshi aniqlarkan, botiniy aloqalarni aniqlashda yaxshi ishlay olmaydi. U holda, botiniy assotsiativ aloqalarni qanday oʻrganish mumkin? degan savol tugʻiladi. Bunga faqat bir yoʻl bilan, yaʼni assotsiatsiyani “erkin” emas, “yoʻnaltirish” orqali erish mumkin. Boshqacha aytganda, assotsiativ hududni qisqartirish orqali botiniy assotsiativ aloqalarni aniqlash mumkin boʻladi.

Bunda soʻzning antonimlari qoʻl keladi. Soʻzning antonimini berish assotsiatsiyani “yoʻnaltirilgan” qiladi. Masalan, *sovuq* soʻzining antonimi turli kontekstlarda olinadi:

sovuq - issiq 63, iliq 29, va b. 8;

sovuq suv – issiq suv 89, iliq suv 9, va b. 2

kostryulkadagi sovuq suv – kostryulkadagi issiq suv 84, kostryulkadagi iliq suv 10, va b. 10;

daryodagi sovuq suv – daryodagi issiq suv 8, daryodagi iliq suv 85, va b. 7.

Xullas, botiniy assotsiativ strukturalarda ham zohirda boʻlgani kabi assotsiativ aloqalarning qonuniyatlari mavjudligini koʻrish mumkin: kuchli aloqalar kuchsizlarni “unutadi”, shu bilan birga, assotsiatsiyalar “yoʻnaltirilgan”da kuchsiz aloqalar faollashishi ham mumkin.

Kontekstlarni kengaytirish va yoʻnalishni kuchaytirish orqali botiniy assotsiativ strukturalarga shunchalik chuqur kirib borish mumkin. Biroq bunday assotsiatsiyalarning xususiyatlari ularning shunchaki oddiy nutqiy hodisalar emasligini, aksincha, aniq, ijtimoiy mustahkamlangan kontekst tomondan asoslangan strukturalar ekanligini koʻrsatadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Psixolingvistika qanday fan hisoblanadi?
2. Nutqiy faoliyatni eksperiment asosida o'rganish qanday afzalliklarga ega?
3. Eksperiment an'anaviy tilshunoslikda qanday e'tirozlarni tug'diradi?
4. Eksperiment natijalarining to'g'riligini tekshirish uchun nimalar tavsiya etiladi?
5. Assotsiatsiyani qanday turlarga ajratish mumkin?
6. Assotsiativ eksperiment o'tkazish tartibini tushuntirib bering.
7. Assotsiativ eksperimentning qanday turlari mavjud?
8. Erkin assotsiativ eksperimentning boshqa assotsiativ eksperimentlardan farqi nima?

Adabiyotlar

1. Белянин В. П. Психоллингвистика. – М., 2004.
2. Глухов В.П. Основы психоллингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2005
3. Сахарный Л.В. Введение в психоллингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989.
4. Фёдорова О.В. Основы экспериментальной психоллингвистики: принципы организации эксперимента: Учебное пособие. – М.: Спутник, 2008.

VI BOB. AMALIY PSIXOLINGVISTIKA

10-MA'RUZA

NEYROLINGVISTIKANING NAZARIY ASOSLARI


Reja:

1. Neyrolingvistik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari
2. Nutq patologiyasi turlari

Tayanch so'z va iboralar: neyrolingvistika, patopsixolingvistika, lisoniy me'yori, nutqiy me'yori, nutq patologiyasi, afaziya, total afaziya, qisman afaziya, motor afaziya, sensor afaziya, harakat afaziyasi, akustik afaziya, semantik afaziya, telegraf usuli, alaliya, sensor alaliya, motor alaliya, sensomotor alaliya, Broka markazi, Vernike zonasi.

10. 1. Neyrolingvistik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari

Neyrolingvistika (yunon. neuron – tomir, nerv, asab va lot. lingua – til) – nutqiy faoliyatning miya mexanizmlarini va miyaning mahalliy jarohatlanishi tufayli yuzaga keladigan nutqiy jarayondagi o'zgarishlarni o'rganadigan fan.



Binobarin, barcha jihatlar bir-biridan ajralmagan holda o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi, ya'ni til sistemasi lisoniy muomalaning miya substrati (lot. substratum – asos, zamin, negiz, bu o'rinda miya asosi) bilan o'zaro munosabatda o'rganiladi. Shunday qilib, neyrolingvistika asosiy e'tiborini turli ko'rinishdagi nutqiy buzilishlarni tashxislash va davolashga qaratadi⁷¹.

⁷¹ Кавинкина И.Н. Психоллингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010. – С. 51.

Neyrolingvistika mustaqil fan sifatida (biologik) tilshunoslik negizida, neyrologiya, psixologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga keldi va u til sistemasini lisoniy muomalaning miya substrati bilan o‘zaro aloqada o‘rganadi. Neyrolingvistika lingvistika, psixolingvistika, fiziologiya, neyrofiziologiya, nevrologiya, psixologiya va neyropsixologiya fanlari bilan o‘zaro bog‘langandir.

Nutqiy buzilishlar etiologiyasida bosh miya jarohatlanishining o‘z o‘rni borligi eramizdan avvalgi 400 ming yil ilgari Gippokrat tomonidan aytib o‘tilgan. Lekin uni sistematik jihatdan o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Nutqiy buzilishlar faktlariga bo‘lgan qiziqishni Boduen de Kurtune, A.Shleyxer, G. Vernike, V. A. Bogoroditskiy, L.B.Sherba, R.Yakobson, L.R.Zinder h.k. olimlarning tadqiqotlarida uchratish mumkin.

Neyrolingvistikada nutqiy buzilishlarning neyrofiziologik va lingvistik jihatlari T.Alajuanin, A.Ombredan, M.Dyuran, K.Konrad, K.Breyn, F.Grevel, R.Yusson, Yu. Barbiz, K.Kolmayer, A.Layshner, P.Milnerlar singari olimlarning ishlarida yoritib berilgan. A.R. Luriya esa L.S.Vigotskiy, I.P.Pavlov va P.K.Anoxinlarning ishlariga tayanib tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotchilar tomonidan turli fonologik, grammatik, leksik va semantik buzilishlar tasvirlangan. Shuningdek, neyrolingvistika lisoniy muomala buzilishining noafazik shakllari (nutqiy agnoziya, apraksiya, aleksiya va agrafiya)ni tadqiq etishga ham e‘tibor qaratadi.

10.2. Nutq patologiyasining turlari

Lisoniy me‘yor va nutqiy me‘yor nima? Nutq patologiyasi nima?

Lisoniy me‘yor – umumiy kommunikatsiya jarayonida tanlab olingan va mustahkamlangan til sistemasining turg‘un an‘anaviy realizatsiyalari majmuyi.

Nutqiy me‘yor – madaniy jamiyat tomonidan ongli ravishda qayd qilingan barqaror va birlashtirilgan lisoniy vositalar va ularni qo‘llash qoidalarining majmuyi (masalan, talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, grammatika va stilistika qoidalari).

Nutq patologiyasi (yunon. pathos – azob chekish, kasallik) – nutq me‘yoridan chetga chiqish. Nutq patologiyasi jarayonini o‘rganish juda qiyindir. Chunki nutqida kamchiliklari mavjud insonlar muloqotga kam kirishadilar va o‘rganish obyekti sifatida o‘zlarining ustida eksperiment olib borishni uncha xohlamaydilar. Klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, miya faoliyatining buzilishi, nutqiy faoliyatning buzilishiga olib keladi.

Hatto alkohol, qattiq toliqish, qo‘rqinch tufayli vaqtincha miya buzilishi inson nutqiga ta’sir qiladi.

A.A. Leontev nutq patologiyasining beshta muhim turini ajratib ko‘rsatadi:

1. Shaxs patologiyasi, ong va oliy psixik funksiyalar bilan bog‘liq nutqiy buzilish. Bunga progressiv falaj holatidagi nutqiy faoliyatning buzilishi (artikulyasiyaning qiyinlashuvi, talaffuzning noaniqligi)ni misol qilib keltirish mumkin.

2. Miyaning muayyan darajada shikastlanishiga asoslangan, biroq ruhiy kasalliklar bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan nutqiy buzilish. Bunga misol qilib afaziyaning turli ko‘rinishlarini keltirish mumkin.

3. Sensor sistemalarning buzilishi bilan bog‘liq tug‘ma yoki keyin orttirilgan nutqiy buzilish. Bu asosan karlar va kar-soqovlar nutqi va uni qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq.

4. Aqli zaif yoki psixik rivojlanishning vaqtincha kechikishi bilan bog‘liq nutqiy buzilish.

5. Ijro xarakteriga ega va nutqni motorli dasturlash yoki motorli dasturni amalga oshirish nuqsonlari bilan bog‘liq nutqiy buzilish.

Nutq patologiyasining mazkur barcha turlari yaqinlashib psixolingvistikaning bo‘limlaridan biri bo‘lgan patopsixolingvistika tomonidan o‘rganib kelingan. Neyrolingvistika mustaqil fan sifatida ajralib chiqqanidan keyin nutqiy buzilishning ikkinchi turi neyrolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilina boshlandi.

Quyida neyrolingvistika o‘rganadigan nutqiy buzilishlarni ko‘rib chiqamiz.

Afaziya (yunon. *aphasna*, a – inkor, phasis – nutq) miya muayyan qismlarining, odatda, chap yarim sharning shikast topishi tufayli vujudga kelgan nutqiy buzilish.

Afaziyani o‘rganish miyada nutqiy markazlarni joylashishini aniqlash imkonini berdi. Nutqiy patologiya yo‘nalishining eng yaxshi ishlangan bo‘limi afaziologiya hisoblanadi. Bugungi kunda nutqiy mexanizmlarning detalli modeli ishlab chiqilgan. O‘ng qo‘lda ish qiladiganlar, yozadiganlarda (95 %) nutqiy zonalar chap yarim sharda joylashgan. Shunday ekan afaziologiya chap yarim sharning tadqiqi bilan shug‘ullanadi.

Afaziya miyaga qon quyilishi (insult), miya o‘simtasi, biror bir mexanik shikast tufayli vujudga keladi. Agar miyadagi nutqiy zonalarining hammasi shikastlansa, *total afaziya* yuzaga keladi. Bunday

holatda nutq umuman yo‘qoladi va uni tushunish amalga oshmaydi. Agar miyaning nutqiy zonalaridan biri ishlab ketsa, *qisman afaziya* vujudga keladi.

Motor afaziya inson miyasidagi Broka zonasi shikastlanganda maydonga keladi. Afaziyaning bu turida inson nutqni tushuna oladi, lekin gapira olmaydi. Broka markazini 1861-yilda fransuz olimi P.Broka kashf qilgan. U miyaning chap peshona pastki orqa burmasida joylashgan.

Ikkinchi nutqiy zona nemis olimi K.Vernike tomonidan 1874-yili kashf qilingan. U miyaning yuqori chakka burmasida joylashgan. Bunda odamlar nutqga ega bo‘ladilar, lekin o‘zgalar nutqini tushunmaydilar. Afaziyaning bu turi *sensor afaziya*, deb nomlanadi. Miyada joylashgan harakat markazi (Broka zonasi) va eshitish markazi (Vernike zonasi) bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Harakat afaziyasida bemor so‘zlarni talaffuz qila olmaydi, garchi u unga aytilgan nutqni tushunadi, bunda miyaning chap peshona pastki orqa burmalarida joylashgan Broka markazi shikast yegan bo‘ladi. Agar bosh miyaning yuqori chakka miyasida joylashgan Vernika markazi shikastlansa, *akustik afaziya* sodir bo‘ladi. Bunday holda bemor gapira oladi, lekin nutqni tushunmaydi, unda “fonematik eshitish qobiliyati” buziladi. U so‘zlarni tushunib bo‘lmaydigan shovqindek qabul qiladi, ma’nosiga tushunmaydi. U hamma tovushlarni eshitadi, lekin ularni umumlashtirish va ajratish qobiliyatini yo‘qotadi. Bularning hammasi ikkilamchi buzilishlarga – so‘zlarning noto‘g‘ri talaffuz qilinishiga, yozish qobiliyatining buzilishiga olib keladi.

Bosh miya quyi qismi faoliyatining shikasti nutqni qisman tushunishga olib keladi. Bunday holda *semantik afaziya* yuz beradi. Bemor mantiqiy grammatik munosabatlarni tushunmaydi, masalan: “otamning akasi”, “akamning otasi” yoki “yoz bahordan keyin”, “bahor yozdan keyin” kabi so‘z birikmalarini farqlay olmaydi.

Miyaning chakka qismlarining shikasti markaz faoliyatining buzilishiga, ya’ni nutqiy elementlarning ketma-ket bog‘liqligini uzluksiz aloqaga olib kelishini ta’minlay olmay qoldi. Bunda bemor nutqni tushunadi va o‘zi gapira oladi, lekin to‘liq bir gapni tuza olmaydi, hammaga ma’lum grammatik qoidalar – ega va kesimni bog‘lanishiga rioya qilolmaydi. U uzib-kesib “*telegraf usulida*” gapiradi. Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, bosh miya funksiyasi buzilishini

o'rganish, tilning grammatik, fonetik, semantik jihatidan nutq jarayonini tahlili uchun material bo'la oladi.

Nutq markazlarini o'rganish ichki nutq jarayonini o'rganishga yo'l ochib beradi. Bu jarayonda inson ichida o'ylaydi, o'z fikrini ovoz chiqarib namoyon qilmaydi. Odatda, ichki nutq eshittirib aytilgan so'zlarni oldini oladi. Ichki nutqda Broka harakati markazi to'xtab qoladi, lekin o'chmaydi.

Alaliya (yunon. α - inkor yuklamasi va qad. yunon. lalia – nutq) – nutqiy buzilishning bir ko'rinishi bo'lib, u aqli raso, eshitish qobiliyati bekam-ko'st bo'lgan bolalarda nutqning bo'lmasligi yoki nutqning juda kech paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Ko'pincha ona qornida yoki tug'ilish vaqtidagi bola miyasi chap yarim sharining shikastlanishi, shuningdek, uning nutqiy davrigacha bo'lgan miya kasalliklari va jarohatlari alaliyaga sabab bo'ladi. Keyinchalik bunday bolalarning nutqni egallashlarida muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi: so'z boyligi juda sekinlik bilan shakllanadi, ifodalarni qiyinchilik bilan yanglish tuzishadi. Masalan, “*Мальчик горка санках катается* – *Bola tepalik chanada uchyapti*” (*Мальчик катается на санках с горки* – *Bola tepalikda chanada uchyapti*). Ba'zan bunday bolalarning o'zining nutqi bo'ladi. Masalan, “*Ляля катя гия*” (*Девочка катается на лыжа* – *Qizcha chang'ida uchyapti*).

Alaliyada nutq quyidagicha rivojlanishi mumkin:

Nutq umuman paydo bo'lmasligi yoki juda sekin paydo bo'lishi mumkin. Bola 10-12 yoshlarga kelib 2-3 yoshli bolalardek gapirishi, ya'ni grammatik jihatdan tugallanmagan ifodalar qo'llab, tovushlarni buzib, juda noaniq, noto'liq gapirishi mumkin.

5-6 yoshdan keyin faol yoki nafaol holatda nutq boshlanishi mumkin. Biroq maktabga borish vaqtida baribir yaxshi ko'rsatkichlarga erisha olmaydi. Shuning uchun uning umumiy maktablarda ta'lim olishi imkonsiz bo'ladi.

Har qanday holatda ham alaliyali bolalarda nutqiy nuqsonlar tufayli ularning intellektual rivojlanishida qoloqlik vujudga keladi. Odatda, bolalarda alaliyaning mavjudligi haqida 3 yoshdan keyin aytiladi. Ungacha nutq rivojlanishining kechikishi deyish maqsadga muvofiqdir.

Odatda, nutq rivojlanishining kechikishi bola tomonidan mustaqil ravishda yengib o'tiladi (ko'pincha o'zidan keyin tovushlarni to'liq talaffuz qila olmaslik asoratini qoldiradi).

Shunday holatlar ham bo‘ladi-ki, (deyarli o‘g‘il bolalarda, ko‘pincha irsiy ko‘rinishda) 3 yoshgacha hech gapirmay jim yurgan bola birdaniga aniq, lo‘nda va to‘liq ifodalar bilan gapira boshlaydi. Shunga ko‘ra, nutq rivojlanishining kechikishini alaliyadan farqlash murakkab bo‘ladi. Shuning uchun gapirmagan bolalarni 2 yoshida logoped maslahatiga olib borish kerak. Mashg‘ulotlarni iloji boricha ertaroq boshlash lozim.

Maktab yoshigacha bo‘lgan alaliyali bolalar uchun maxsus maktabgacha ta‘lim va tibbiyot muassasalari (logoped guruhlari yoki og‘ir nutq buzilishlari kuzatilgan bolalar bog‘chalari, statsionarlar va sanatoriyalar) mavjud. Ularda tibbiyot-pedagog xodimlar maxsus mashg‘ulotlar olib borishadi.

Maktab yoshida bo‘lgan alaliyali bolalar uchun maxsus ta‘lim muassasalari kerak bo‘ladi. Maxsus maktablarda nutqi cheklangan bolalarning har tomonlama ta‘lim va tarbiya olishlari uchun sharoitlar yaratib beriladi.

Alaliyali bolalarning aksariyati bolalar poliklinikasi va psixonevrologik dispanserlarning logopedlaridan boshlag‘ich yordam oladilar.

Alaliyaning uch ko‘rinishi mavjud:

1. *Sensor alaliya* – impressiv (lot. impressio taassurot) nutqning norasoligi, unda so‘zlarning ma‘nosi va tovush ifodasi o‘rtasida uzilish kuzatiladi. Sensor alaliyada bolada yaxshi eshitish qobiliyati bo‘lishiga qaramasdan, unda atrofdagilar nutqini tushunishda buzilish kuzatiladi. Ya‘ni bola nutq tovushlarini farqlay olmagan, xuddi ularni “eshitmeyotgani” uchun gapirishni o‘rganmaydi. Holbuki, bunda har qanday boshqa “nutqiy bo‘lmagan” tovushlarni juda yaxshi eshitadi va ularning ta‘siriga yaxshi javob qaytaradi. Bunday bolaning xususiy nutqi to‘liq mavjud bo‘lmasligi yoki ayrim alohida poyma-poy so‘zlar, exolaliyalar (faqat hozirgina eshitgan so‘zini takrorlash)dan iborat bo‘lishi mumkin. Sensor alaliyaning paydo bo‘lishiga eshitish-nutq analizatori (Vernika markazi)ning miya qobig‘i oxiri va uni o‘tkazish yo‘llarining jarohatlanishi sabab bo‘ladi.

2. *Motor alaliya* – ekspressiv (lot. expressio ifoda) nutqning norasoligi. Unda bola nutqni to‘la tushunadi biroq o‘zining nutq organlarini (til, lab, pastki jag‘) yaxshi boshqara olmaganligi bois gapirishni o‘rgana olmaydi. Motor alaliyada bolaning mushaklari sog‘lom bo‘ladi, faqat ularni o‘zi xohlagandek harakatlantira olmaydi.

Ya'ni nutq harakatlarini bajara olmaydi yoki yomon bajaradi (nutq tovushlarini, binobarin so'zlarni talaffuz qila olmaydi), biroq nutqsiz harakatlarning barchasi joyida bo'ladi (u ovqat mahalida og'zini ochadi, chaynaydi, yalaydi, kuladi va h.k.). Motor alaliyaning paydo bo'lishiga nutq-dvigatel analizatori (Broka markazi)ning miya qobig'i oxiri va uni o'tkazish yo'llarining jarohatlanishi sabab bo'ladi.

3. *Sensomotor alaliya* – sensor va motor alaliyaning kombinatsiyasidan vujudga kelgan bo'lib, unda turli darajada eshitish va dvigatel buzilishlari mavjud bo'lib, eng og'ir nutqiy nuqson hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Neyrolingvistika qanday fan?
2. Neyrolingvistikada nutqiy buzilishning neyrofiziologik va lingvistik jihatlari qaysi olimlar tomonidan o'rganilgan?
3. Nutq patologiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Nutqiy faoliyatning buzilishiga nimalar sabab bo'ladi?
5. Afaziya qanday hodisa?
6. Afaziyani vujudga keltiruvchi sabablarni ko'rsating.
7. Qachon total afaziya yuz beradi?
8. Broka zonasi shikastlanganda qanday afaziya vujudga keladi?
9. Vernika markazi shikastlanganda qanday afaziya vujudga keladi?
10. Qanday holatlarda semantik afaziya yuz beradi?
11. Alaliya qanday hodisa?
12. Bolalarda alaliyaning mavjudligi haqida necha yoshdan keyin aytiladi?
13. Sensor alaliya nima?
14. Motor alaliya nima?

Adabiyotlar

1. Белянин В. П. Психолингвистика. – М., 2004.
2. Глухов В.П. Основы психолингвистики. Учеб. пособие для студентов педвузов. – М.: АСТ: Астрель, 2005.
3. Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010.
4. Сахарный Л.В. Введение в психолингвистику. – Л., Изд. ЛГУ, 1989.
5. Седов К.Ф. Нейропсихолингвистика. – М., 2007.

11- MA'RUZA

KRIMINALISTIKA VA SUD PSIXOLOGIYASIDAGI PSIXOLINGVISTIKA

Reja:

1. Tergov jarayonida nutq informatsiya manbasi sifatida
2. Yolg'on fikr ifodalash psixolingvistikasi
3. Psixolingvistik ekspertiza

Tayanch so'z va iboralar: atributsiya, kriminalistika, grafik va yozuv ekspertizasi, fonetik xususiyat, semantik-grammatik xususiyat, identifikatsiya, sud ekspertizasi, sud psixologik ekspertizasi, psixolingvistik ekspertiza, yolg'on detektor, poligraf, kriminal ekspertiza, trasologik ekspertiza, ballistik ekspertiza, hujjatlar ekspertizasi, gabitologik ekspertiza, lingvistik ekspertiza.

11. 1. Tergov jarayonida nutq informatsiya manbasi sifatida

Avvalo, bu o'rinda ikki holat bilan to'qnashiladi: 1) atributsiya (aniqlash) vazifasi bilan, ya'ni matnning muallifligini – ma'lum matnni mazkur shaxsga tegishli ekanligi yoki bu shaxsga tegishli emasligini aniqlash; 2) subyektning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot olish vazifasi bilan – yoshi, jinsi, u yoki bu ijtimoiy guruhga tegishliligi, ona tili, u yoki bu viloyatdan kelib chiqqanligi va h.k.

Matnning atributsiyasi faqatgina kriminalistik amaliyotda amalga oshirilmaydi⁷². Matnni aniqlash tarix va filologiya fanlarining yordamchi sohasi hisoblangan, badiiy va boshqa asarlar matnlarining yaratilishi tarixi, taqdirini o'rganadigan manbashunoslikning ham muhim masalalaridan biridir.

Matnni to'liq va ishonchli aniqlash manbasi sifatida grafik va yozuv ekspertizasini qayd qilish mumkin. Grafik va yozuv ekspertizasi matnning yozuvi, orfografiyasi, matnning sahifada joylashuvi va boshqa jihatlarini tahlil qiladi. Grafik ekspertizada orfografik, leksik, kompozitsion va h.k. identifik xususiyatlar e'tiborga olinadi.

Ekspertizaning vazifasi atributsiya bo'lmaganda psixolingvistikaning roli, hatto grafik ekspertizada ham ortadi. Masalan, bir kuni A.A.Leontev va bir guruh psixolingvistlar matn ijrochisi mazkur matn uchinchi shaxs nutqidan sinxron yozib olingan, deb iddao qilayotgan

⁷² Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999. –С. 248.

matn haqida xulosa berishi kerak bo'lgan. Biroq qo'lyozmaning qator belgilari (yangi qator yoki betga ko'chirishlar, qisqartmalarning mavjud emasligi yoki ularning har xilligi va h.k.)dan kelib chiqqan psixolingvistlar ushbu qo'lyozma ko'chirilgan yoki, hatto tahrir qilingan degan xulosaga kelishgan.

Boshqa bir tergov jarayonida ham psixolingvistlar qiziq voqeaga duch kelishgan. Tergovdagi shaxs ko'rsatma matnini tergovchining diktovkasi ostida yozganligini aytib, tergovchini ayblagan. Tergov organlarida "Shunday bo'lishi mumkinmi?" degan tabiiy savol tug'ilgan. Ekspertlar guruhi ko'rsatma matnlari va mazkur ijrochiga tegishli bo'lgan boshqa matnlarni tekshirish natijasida tergovchi tahlil qilinayotgan matnning muallifi emas, biroq mazkur matn mazmunining muallifi, ya'ni u tergovdagi shaxsga nima yozish kerakligini aytib turgan, tergovdagi shaxs esa ayni mazmunni "o'zining so'zlari bilan" bayon qilgan degan xulosaga kelishgan⁷³.

So'zlovchini identifikatsiya qilish yoki uning alohida kategorial belgilarini aniqlash maqsadida og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish mumkin. Birinchi guruh og'zaki nutqning fonetik xususiyatlaridir. Ular o'z navbatida individual va guruhiiy xususiyatlarga ajraladi. Ayniqsa, ovoz temбри va balandligi, intonatsiya, nutq tezligi, xarakteri, pauzaning davomlilikigi va taqsimlanishi, mantiqiy ajratishning xarakteri va darajasi, fonetik reduksiya darajasi ishonchli bo'lgan individual fonetik belgilar hisoblanadi. Guruhiiy belgilar sirasiga dialektal xususiyatlar va chet tilidagi aksentni kiritish mumkin. Umuman, psixolingvistik tahlil bir qator holatlarda istisnolarga yo'l beradi: agar mazkur shaxsning yoshi aniqlanmagan bo'lsa, hech bo'lmaganda uni muayyan yosh guruhiga kiritish mumkin. Bu ijtimoiy va professional xususiyatlarga ham taalluqli.

Ikkinchi guruh og'zaki nutqning semantik-grammatik xususiyatlari bo'lib, unga pauzani to'ldirish xarakteri (immm...; anaqa...); so'z va konstruksiyalarni tanlash; ifodalilik me'yori; nutq madaniyati darajasi; matnni tashkil qilish me'yori va h.k. kiradi.

11.2. Yolg'on fikr ifodalash psixolingvistikasi

Yolg'on fikr ifodalash deganda narsa va hodisalarning haqiqiy holatini ataylab noto'g'ri, buzib tasvirlash nazarda tutiladi. Mazkur muammo psixolingvistika paydo bo'lmasidan oldin ko'rsatma berish

⁷³ Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999. – С. 250.

jarayonida haqiqatni qaror toptirish maqsadida tortishib kelingan masalalardan biri bo'lib kelgan. Psixolingvistikada yozma va og'zaki yolg'on fikr ifodalash yuzasidan amalga oshirilgan talaygina nazariy va eksperimental tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqotlarda "Yolg'on xabarni planlashtirish va amalga oshirishda uning muallifi o'zining individual nutqiy amaliyotida hamda u mansub bo'lgan ijtimoiy guruhning nutqiy muamalasida qo'llanish chastotasi kam bo'lgan so'zlarni muayyan qiyinchiliklar bilan faollashtiradi" degan muhim xulosaga kelingan⁷⁴ (Leontev, Shaxnarovich, Batov 1977, 37-bet).

Keng omma uchun yolg'on fikr ifodalash muammosi "yolg'on detektor" yoki poligraf qo'llash bilan bir xil hisoblanadi. Mazkur yo'nalishning asoschisi sifatida 1920-yillarda "O'zaro bog'langan metodika usuli"ni ishlab chiqqan A.R.Luriyani ko'rsatish mumkin. A.R.Luriyaning ingliz tilida nasr qilingan "The nature of Human Conflicts" (Luria, 1932) nomli kitobida bu usul batafsil yoritilgan va AQSHda katta muvaffaqiyat qozongan. AQSHda poligrafning amaliy qo'llanishi keng tarqalgan. A.R.Luriyaning yozishicha "bu tadqiqot yolg'on detektorining dastlabki modeli bo'lib, u kriminalistlarning faoliyatida amaliy jihatdan katta yordam bergan"⁷⁵.

11.3. Psixolingvistik ekspertiza

Ekspertiza tushunchalari. Ekspertizaning turlari ko'p bo'lgani uchun uni huquqiy maqomga ko'ra sud ekspertizasi va kriminal ekspertizaga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ekspert sud ekspertizasida yakuniy xulosa beruvchi shaxs hisoblanadi. Ekspertiza deganda keng ma'noda jinoyatni ochish jarayonida (sudgacha va sud jarayonida) gumondor shaxsni, vaziyatni, jinoyat sodir etilganda foydalanilgan vositani topish, gumon qilinayotga shaxsning psixologik holatini aniqlash, shuningdek, jarayonga taalluqli qo'shimcha ma'lumot olish maqsadida maxsus bilim va tajribaga ega mutaxassisning kriminal tekshiruvi va h.k.ni tushunish mumkin.

Agar ekspertiza dastlabki tergov doirasida amalga oshirilayotgan bo'lsa, u kriminal ekspertiza, sud tergov ishlari doirasida amalga oshirilayotgan bo'lsa unda sud ekspertizasi hisoblanadi. Umuman, fuqarolik, xo'jalik va konstitutsiyaviy sud jarayonlarida ham kriminal

⁷⁴ Леонтьев А.А., Шахнарович А.М., Батов В.И. Речь в криминалистике и судебной психологии. – М. : Наука, гл. ред. Вост. лит., 1977. – 62 с.

⁷⁵ А.Р. Лурия и современная психология: (сб. ст. памяти А.Р. Лурия) / Под ред. Е. Д. Хомской, Л. С. Цветковой, Б. В. Зейгарник. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1982. – С.23.

va sud ekspertizalaridan foydalanish mumkin, biroq bu o'rinda uning vazifalari cheklangan bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ekspertiza turlarining umumiy tasnifi mavjud emas. Ko'pincha kriminal ekspertiza quyidagi turlarga ajratiladi:

a) trasologik ekspertiza (avtotransport hodisalari izlarini aniqlash ekspertizasi);

b) ballistik ekspertiza (o'qotar qurollari izlarini aniqlash yuzasidan olib boriladigan ekspertiza);

d) hujjatlar ekspertizasi (hujjatlardagi imzolar, muhrlar, shtamplar, yozuvlar yuzasidan olib boriladigan ekspertiza);

e) gabitologik ekspertiza (shaxsning tashqi belgilariga ko'ra aniqlash ekspertizasi). Ekspertiza sistemasida sud psixologik ekspertizasi (kriminal ekspertiza va sud ekspertizasidan tashkil topgan) asosiy o'rinni egallaydi.

Sud psixologik ekspertizasi. Sud psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi psixologik mazmunga ega bo'lgan muammolarni yechishda adliya organlariga yordam berish, uning funksiyasi esa maxsus psixologik bilimlar va metodlar vositasida aybdorlar, guvohlar va jabrlanuvchilar psixik faoliyatining individual xususiyatlarini obyektiv baholashga imkon beradigan yangi dalillarni qo'lga kiritishdan iborat. Sud psixologik ekspertizasining predmeti ish yuzasidan obyektiv haqiqatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan inson psixik faoliyati komponentlarini bir butunlikda belgilash va baholash hisoblanadi.

Psixolingvistik ekspertizaning turlari va tushunchalari. Psixolingvistik ekspertiza odatda, mutaxassislar tomonidan lingvistik va yozuv ekspertizasi bilan bir qatorga qo'yiladi. Biroq ekspertiza vositasida hal qilinadigan masalalar aksariyat hollarda ekspertizaning barcha turlari, jumladan, psixolingvistik, lingvistik va yozuv ekspertizalarining ishtirokini talab qiladi.

Ekspertizani maqsadiga ko'ra ham turlarga ajratish mumkin:

a) mualliflik ekspertizasi – matn muallifini aniqlash yoki shu matnni yozishi mumkin bo'lgan shaxsni aniqlash. Bunda shaxsning jinsi, yoshi, millati, ona tili, tug'ilgan joyi, yashash joyi, ma'lumoti va h.k. tekshiriladi;

b) matn muallifining vaqtinchalik belgilariga, masalan, uning emotsional holatini aniqlashga qaratilgan ekspertiza;

d) tekshirilayotgan matnni yaratishdagi u yoki bu sharoitlarni aniqlashga qaratilgan ekspertiza;

e) matndagi ma'lumotlarni ataylab buzib ko'rsatilishini aniqlashga qaratilgan ekspertiza;

f) matn muallifini javobgarlikka tortish uchun asoslarning yetarliligini aniqlashga qaratilgan ekspertiza. Bunda asarlarda bo'hton, tuhmat, shaxsni haqoratlash, millatchilik, diniy kelishmovchiliklarni yuzaga keltiruvchi, urushga yoki davlat to'ntarishiga chorlovchi mazmunning mavjudligi tekshiriladi⁷⁶.

Lingvistik ekspertiza. Tergov va sud amaliyotida psixolingvistik ekspertiza bilan bir qatorda lingvistik ekspertiza ham keng tarqalgan. "Цена слова. Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации" nomli maqolalar to'plamida T.V Gubayeva lingvistik ekspertizani shunday tasvirlaydi: "Lingvistik ekspertiza protsessual harakat bo'lib, til fani sohasida maxsus bilimga ega ekspertning turli xil murakkab masalalarni tadqiq etishi va ularga xulosalar berishidan iboratdir"⁷⁷. Ko'rinadiki, mazkur ta'rifdagi mezonlar, xususan, qanday masalalarni nazarda tutilganligi lingvistik ekspertiza xususiyatini aniqlab berishga yaramaydi. A.A. Leontevning fikricha, qayd qilingan to'plamning aksariyat mualliflari matnlar ekspert tadqiqining o'ziga xos xususiyatlari va ekspert vazifalari haqida yetarli tasavvurga ega emaslar. Masalan, Ye.I.Galyashina mavjud ekspertizalarning kamchiligi sifatida "xulosalar qat'iy shaklda emas, balki ehtimoliy tarzda beriladi, shuning uchun ulardan sud ekspertizalari sifatida foydalanib bo'lmaydi"⁷⁸, deb qayd qiladi. Biroq matn bilan ish ko'radigan har qanday ekspertiza (masalan, mualliflik) faqat yuz berishi ehtimol tutilgan informatsiyanigina bera oladi. Ekspertning vazifasi qat'iy javob berish emas, balki qo'llanilgan usullarni obyektivlashtirish orqali javoblarning yuqori ehtimollik darajasini ta'minlash va xulosani asoslashdan iborat. Bu xulosani protsessda qay tarzda qo'llash yoki qo'llamaslik ekspertning emas, balki sudning ishidir. Ekspertning so'rovi ekspert xulosasining ishonchliligini aniqlash maqsadlaridan biridir.

⁷⁶ Леонтьев А.А. О психолингвистической экспертизе // Методология современной психолингвистики: Сборник статей. – Москва-Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2003.

⁷⁷ Цена слова. Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. 2-е изд. – М., 2002. – С. 237.

⁷⁸ Ko'rsatilgan asar, 235-bet.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda qidiruvdagi jinoyatchining individual ovoz xususiyatlarini maxsus kompyuter dasturlariga kiritish orqali aniqlash keng tarqalgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Matnning atributsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Subyektning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun nimalar aniqlanadi?
3. Matnni to'liq va ishonchli aniqlash manbasi sifatida qaysi ekspertizani ko'rsatish mumkin?
4. Grafik va yozuv ekspertizasi matnning qaysi jihatlarini tahlil qiladi?
5. Og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
6. Yolg'on fikr ifodalash deganda nima nazarda tutiladi?
7. "Yolg'on detektor" yoki poligraf qo'llash usulining muallifi kim?
8. Ekspertiza deganda qanday faoliyat tushuniladi?
9. Trasologik ekspertiza qanday ekspertiza?
10. Ballistik ekspertiza qanday ekspertiza?
11. Hujjatlar ekspertizasi qanday ekspertiza?
12. Gabitologik ekspertiza qanday ekspertiza?
13. Sud psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
14. Mualliflik ekspertizasi qanday ekspertiza?

Adabiyotlar

1. Батов В.И. О судебной психолого-лингвистической экспертизе //Вопросы судебно-психологической экспертизы. – М., 1974.
2. Вопросы судебно-психологической экспертизы. – М., 1974.
3. Вул С.М. Криминалистическое исследование признаков письменной речи. – Киев, 1973.
4. Коченов М.М. Введение в судебно-психологическую экспертизу. –М., 1980.
5. Леонтьев А.А., Шахнарович А.М., Батов В.И. Речь в криминалистике и судебной психологии. – М.: Наука, гл. ред. Вост. лит., 1977.

6. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Смысл, 1999.

7. Леонтьев А.А. О психолингвистической экспертизе // Методология современной психолингвистики: Сборник статей. – Москва-Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2003.

8. Цена слова. Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. 2-е изд. – М., 2002.

VII BOB. IJTIMOIIY PSIXOLINGVISTIKA

12-MA'RUZA

IJTIMOIIY PSIXOLINGVISTIKA MASALALARI

Reja:

1. Ijtimoiy psixolingvistikaning predmeti va vazifalari
2. Lisoniy shaxs strukturasi
3. Olamning lisoniy manzarasi
4. Geshtaltlar va belgilar

Tayanch soʻz va iboralar: til egasi, kommunikatsiya, nutqiy harakat, nutqiy muomala, lisoniy shaxs, lisoniy shaxs strukturasi, kommunikativ vaziyat, soʻzlovchi, manzara, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi, lisoniy geshtaltlar.

12.1. Ijtimoiy psixolingvistikaning predmeti va vazifalari

Yuqorida koʻrib chiqilgan boblarda til egasining nutqiy faoliyati va lisoniy tafakkuri haqida umumiy fikr yuritildi. Bunday umumlashma barcha soʻzlashuvchilar amal qiladigan nutqni yaratilishi, idroki va tushunilishining universal qonuniyatlarini aniqlash va tasvirlashga imkon beradi. Biroq psixolingvistikada lisoniy shaxs umumiy xususiyatlarining tadqiqi bilan chegaralanib qolish oʻzini oqlamaydi, zero, mavhum psixologizm uni insonlar haqiqiy kommunikatsiyasi tabiatini tushunishdan uzoqlashtiradi. Binobarin, insonlar bir-biridan, xususan, nutqiy harakatlari bilan farq qiladi. Qarindoshlarimiz va yaqinlarimizni, hatto ular bilan telefonda gaplashayotganimizda ham ovozlardan taniymiz. Notanish suhbatdosh nutqini diqqat bilan eshitib, uning turli kommunikativ vaziyatlardagi xatti-harakatini kuzatib lisoniy shaxsning portretini yarata olamiz. Insonning nutqi – uning tashrif kartochkasidir. U soʻzlovchi shaxsining turli xil jihatlari: kelib chiqishi, yoshi, kasbi, maʼlumoti, intellekti va h.k. haqida maʼlumot beradi. Lisoniy shaxs oʻzini nutqiy muomalada namoyon qiladi. **“Nutqiy muomala”** termini keng maʼnoda **“nutqiy faoliyat”** kommunikativ harakatlar va soʻzlovchi/ yozuvchining reaksiyasini oʻz ichiga oladi⁷⁹.

⁷⁹ Кавинкина И.Н. Психоллингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010. – С. 147.

“Nutqiy muomala” terminida jarayonning bir tomonli bo‘lishiga urg‘u beriladi: u kommunikativ vaziyat qatnashchilaridan bo‘lgan yo so‘zlovchi (adresant), yo tinglovchi (adresat)ning nutqi yoki nutqiy reaksiyasini xarakterlovchi o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

“Nutqiy muomala” termini nutqning monologik shakllarini, masalan, ma’ruza, yig‘ilishlardagi nutq va boshqa kommunikativ vaziyatlarni tavsiflash uchun qulaydir. Biroq uning o‘zi dialoglarni tahlil qilish uchun yetarli bo‘lmaydi. Bunday holatda nafaqat har bir tomonning nutqiy muomalasi, balki o‘zaro nutqiy harakatlar mexanizmini ochib berish muhim hisoblanadi. Shunga ko‘ra, “nutqiy muloqot” tushunchasi o‘z ichiga “nutqiy muomala” tushunchasini oladi. Nutqiy muomala rol, vaziyat va mavzu singari sotsiologik o‘lchovlar bilan bog‘lanadi⁸⁰.

Shunday qilib, ijtimoiy psixolingvistikaning predmeti lisoniy shaxsning nutqiy muomalasi hisoblanadi.

Lisoniy shaxsni o‘rganish har bir til egasini noyob obyekt sifatida ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Biroq haqiqiy nutqiy muomalada konkret insonning nutqiy xususiyatlarini aniqlash murakkab kechadi.

Kishilar lisoniy xoslikni da’vo qilganlari holda, o‘xshash kommunikativ vaziyatlarda o‘zlarini hayratda qoldiradigan darajada bir xil tutishadi. Bu so‘zlovchi o‘z nutqiy biografiyasining har lahzasida guruhliy nutqiy muomalaning xususiyatlarini ko‘rsatishi bilan bog‘liqdir. Til egasi jamoaviy lisoniy shaxslar xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgandek ko‘rinadi. Masalan, til egasi bir paytning o‘zida fuqaroning lisoniy shaxsi, talabaning lisoniy shaxsi, 20 yoshli qiz yoki yigitning lisoniy shaxsi va h.k. sifatida ishtirok etishi mumkin. Ya’ni, “so‘zlovchi inson” tadqiqotning ko‘pqirrali obyektini namoyon qiladi. Shuning uchun lisoniy shaxsni tadqiq etish, avvalo, insonlar nutqiy muomalasini turlarga ajratish, tasniflashni taqozo qiladi.

Ijtimoiy psixolingvistikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Lisoniy shaxs turlarini aniqlash.
2. Lisoniy shaxsni jinsi, yoshi, ijtimoiy maqomi, intellekti va h.k. omillardan kelib chiqqan holda tavsiflab berish.
3. Lisoniy shaxsni muayyan madaniy muhitda o‘rganish.
4. Turli madaniyat vakillari nutqiy muomalasidagi farqlarni tadqiq etish.

⁸⁰ Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 29.

12. 2. Lisoniy shaxs strukturasi

“Lisoniy shaxs” termini dastlab V.V. Vinogradov asarlarida qo‘llanilgan⁸¹. Hozirgi kunda lisoniy shaxs tushunchasi Yu.D. Apresyan, G.I. Bogin, V.G. Gak, A.N. Baranov, Yu.N. Karaulov, M.V. Kitaygorodskaya, N.N. Rozanova, V.I. Shaxovskiy, M.V. Pimenova, S.Ye. Nikitina va boshqa tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o‘rganilgan⁸².

Yu.N. Karaulov lisoniy shaxs deganda, insonning nutqiy asarlar (matnlar)ni yaratish va ularni idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlari va o‘ziga xosliklari majmuasini tushungan. U matnlarni 1) lisoniy-struktur murakkablik darajasiga ko‘ra; 2) haqiqatni teran va aniq aks ettirishiga ko‘ra; 3) muayyan maqsadga yo‘naltirilganligiga ko‘ra farqlagan. Bunda insonning qobiliyati uning matn yaratish xususiyati bilan bog‘langan.

Yu.N. Karaulov **lisoniy shaxs strukturasi**ning uch darajasini: verbal-semantik, kognitiv va pragmatik darajalarini qayd qilgan.

1. Verbal-semantik daraja til egasi uchun tabiiy tilni yetarli darajada egallashni, tadqiqotchi uchun esa muayyan ma’nolar ifodasining shakliy vositalarini an’anaviy tasvirlashni nazarda tutadi.

2. Kognitiv daraja til egasining olam lisoniy manzarasi va semantik maydonini aniqlaydigan tushunchalar, g‘oyalar va konseptlarni qamrab oladi. Mazkur daraja alohida leksik birliklar ma’nolarini kengayishi va bilimlarga o‘tishni ta’minlaydi. U so‘zlovchi shaxsning intellektual sohasini qamrab oladi.

3. Pragmatik daraja maqsadlar, motivlar, qiziqishlar, niyatlar va kommunikativ faoliyat ehtiyojlaridan tarkib topadi. U nutqiy faoliyatni anglashdan real faoliyatni tushunishga o‘tishni ta’minlaydi. Muloqot o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmasdan, balki u ijtimoiy munosabatlarni aniqlaydigan kishilarning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘rinda sof kommunikativ ehtiyojlar haqida emas, balki shaxsning barcha ijtimoiy-faoliyat paradigmalari bilan bog‘liq bo‘lgan kommunikativ faoliyati haqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

⁸¹ Каган М.С. Философия культуры. – СПб., 1996. – С. 44.

⁸² Апресян Ю. Д. Избранные труды. Т. II. Интегральное описание языка и системная лексикография. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1995; Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. Русская политическая метафора. Материалы к словарю. – М., 1991; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М., 1987; Пименова М.В. Ментальность: Лингвистический аспект. – Кемерово, 1996; Никитина С.Е. Устная народная культура и языковое сознание. – М., 1993.

Kommunikativ faoliyat ehtiyojlari va lisoniy shaxsning uch darajasi o'rtasida muayyan o'zaro munosabatlar o'rnatiladi. Shunday qilib, ehtiyojlarning birinchi guruhi kishilar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish vazifalariga javob beradi. Ehtiyojlarning mazkur guruhi verbal-semantik daraja bilan qondiriladi va tilni odatdagi qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ehtiyojlarning ikkinchi guruhi informatsiyalar almashish va shaxsning tezaurusini qo'llagan holda o'zaro faoliyatning yagona strategiyasini ishlab chiqishni ko'zda tutgan muloqot vaziyati bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Ehtiyojlarning uchinchi guruhi shaxs o'z suhbatdoshini qabul qilishi va tushunishiga qaratilgan muloqot vaziyati bilan o'zaro bog'liq bo'ladi⁸³.

Bilish va o'zini o'zi anglash ham lisoniy shaxsning muhim jihatlaridan sanaladi. Lisoniy bilish o'z tabiatiga ko'ra individual bo'ladi, biroq madaniyatning turlariga muvofiq holda turli shakllarga ega bo'lishi mumkin. Chunonchi, har qanday lisoniy shaxs ayni paytda madaniy shaxs hamdir.

Xullas, ***lisoniy shaxs*** deganda muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo'lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxs tushuniladi.

12. 3. Olamning lisoniy manzarasi

Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o'z aksini topgan insonning olamni o'ziga xos idroki namoyon bo'ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir. Inson faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirar ekan dunyoni bilish natijalarini so'zda qayd etadi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiradi. Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi **olamning lisoniy manzarasi**, deb nomlanadi⁸⁴.

Olamning manzarasi (lisoniy ham) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi. Olam – o'zaro munosabatlardagi inson va muhit bo'lsa, olam manzarasi – inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo'linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi

⁸³ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 2003. – С. 29.

⁸⁴ Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010. – С. 152; Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.64.

dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuyini va uning obyektlariga bo'lgan munosabatni namoyon qiladi. Olamning obrazini to'g'ridan-to'g'ri reflekslar vositasida anglab bo'lmaydi, uni faqat o'ziga xos obrazlarni "o'z boshidan kechirish" orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini "odatdagi" bilish orqali anglab bo'lmasada, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. A.K.Kamenskiy **olamning lisoniy manzarasini** "mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so'zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so'zli hosila" sifatida umumiy shaklda izohlagan.

M. Xaydeggerning qayd qilishicha, "manzara" so'zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o'ylaymiz, "olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi". Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, sharq-g'arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida angelaydi. Bu o'rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o'ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o'ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko'radi.

Har qanday til egasi bo'lgan inson uchun haqiqiy borliq (moddiy va fizik) quyidagi ko'rinishlarda mavjud:

- 1) haqiqiy borliqning o'zi;
- 2) birinchi signal (borliqni sezgilar vositasida idrok qilish) sistemasi;
- 3) ikkinchi signal (verbal) sistemasi.

Haqiqiy borliqni idrok qilishning bu uch darajasi bilan haqiqiy borliq haqidagi tasavvurlar: olam umumiy manzarasining tasavvuri (maishiy va ilmiy), olamning lisoniy manzarasi yordamida obyektivlashtirilgan olamning subyektiv tasavvuri o'zaro munosabatda bo'ladi.

Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o‘z-o‘ziga) bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Har qanday tabiiy til dunyoni bilishning muayyan usulini aks ettiradi. Unda ifodalangan ma’nolar muayyan qarashlarning yagona tizimida, o‘ziga xos jamoaviy falsafada mujassamlashadi va u barcha til egalari uchun majburiylik kasb etadi. Mazkur tilda so‘zlashuvchilar dunyosi shakllanadi, ya’ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazeologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir.

Olam manzarasining konseptual va lisoniy turlarini farqlash lozim. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasidan farqli o‘laroq, bilish va ijtimoiy faoliyatlar natijalarini aks ettirib doimo o‘zgarishda bo‘ladi. Biroq olam lisoniy manzarasining ayrim qismlari insonlarning olam haqidagi qadimdan qolgan, eskicha tasavvurlarini uzoq vaqt mobaynida saqlab qoladi. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga nisbatan boyroq bo‘ladi, chunonchi, uning shakllanishida tafakkurning har xil turlari ishtirok etadi. Turli kishilarda, masalan, turli davrlar, turli ijtimoiy va yosh guruhlari, turli bilim sohalari va h.k.ning vakillarida olamning konseptual manzaralari farqlanishi mumkin. Har xil tillarda so‘zlashuvchi kishilar muayyan sharoitlarda bir-biriga yaqin bo‘lgan olamning konseptual manzaralariga, aksincha, bir tilda so‘zlashuvchi kishilar olamning turli konseptual manzaralariga ega bo‘lishlari mumkin⁸⁵. Olamning konseptual manzarasida umuminsoniy, milliy va shaxsiy o‘zaro munosabatlar bo‘ladi. Olamning konseptual manzarasi bilan olamning lisoniy manzarasi bir-biridan farq qilishiga qaramay, har ikkala manzara o‘zaro bog‘liqdir. Agar til olamning konseptual manzarasi bilan aloqada bo‘lmaganida, u muloqot vositasi rolini bajara olmasdi.

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o‘ynaydi. Ular “xalq hayotining ko‘zgusi”dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an‘analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi⁸⁶.

⁸⁵ Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.65.

⁸⁶ Фразеологический словарь русского литературного языка / Под ред. А. И.Федорова. – М., 1996; Образные средства русского языка / Под ред. В.Н.Телия. – М., 1995.

Frazelogizmlar vositasida yaratilgan olamning lisoniy manzarasini tahlilida uning antropotsentrik xususiyatini ta'kidlash joiz. Olamning antropotsentrik manzarasi frazeologizmlar yo'nalishining insonga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bunda inson barcha narsalarning o'lchovi sifatida ishtirok etadi: ko'p – *boshini yeb*; to'la, butun – *boshdan oyoq*; kichik – *ko'z ilg'amas*; tez – *ko'z ochib yumguncha* va h.k.

Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar, o'xshatishlar, konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzlar va h.k. vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Masalan, ruslarda *cho'chqa* a) ifloslik, b) nonko'rlik, d) tarbiyasizlikni; inglizlarda *pig* ochofatni, o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqa musulmon xalqlarida *cho'chqa* sof diniy nuqtayi nazardan o'ta haqoratni ifodalaydi; vetnamlarda *cho'chqa* ahmoqlik ramzi bo'lib keladi. Demak, *cho'chqa* so'zi turli xalqlarda turlicha belgilarni konnotatsiyalaydi. Bu esa mazkur xalqlar olam manzarasining shakllanishidagi ularning o'ziga xos, individual majoziy fikrlashini ko'rsatadi.

Xullas, har qanday madaniyat o'zining kalit so'zlariga ega bo'ladi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tilimizning milliy-madaniy xususiyatlari haqida bildirgan quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: "...tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir"⁸⁷.

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual

⁸⁷ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 7.

manzarasi masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi.

12.4. Geshtaltlar va belgilar

Geshtalt – tafakkurga oid realiya bo‘lib, u muayyan nazariyaning ichidagina amal qiladi. Geshtalt nazariy tuzilma bo‘lgani uchun ham uni ko‘rib yoki tasvirlab bo‘lmaydi.

Geshtalt (nemischa) termini ilk bor nemis geshtalt-psixologiya maktabining vakillari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. *Geshtalt* so‘zi “obraz, tuzilma, yaxlit shakl” ma’nolarini anglatadi⁸⁸. Ilmiy adabiyotlarda geshtaltga biror obyektning qismlar yig‘indisi sifatida emas, balki yaxlit holda idrok etish jarayoni deb ta’rif beriladi⁸⁹.

J. Lakoffning qayd qilishicha, fikrlar, idroklar, emotsiyalar, bilish jarayonlari, motorli faoliyat hamda til ayni strukturalar bo‘lgan “geshtaltlar”dan tarkib topgan⁹⁰.

Umuman, *geshtalt yaxlit obraz* hisoblanadi, ya’ni biron bir obyektning butunicha idrok qilinishi *geshtalt*, deb tushuniladi. Geshtalt-psixologiya idrokning yaxlitligiga asoslanadi: ayrim shakllarning alohida bo‘laklari o‘z ma’nosini butunning (*geshtaltning*) tarkibida topadi. Masalan, “mashhur shaxmatchi shaxmat taxtasidagi alohida donalarni emas, balki butun figuralarning joylashish holatini yaxlitligicha eslab qoladi. Kuchli shaxmatchining xotirasida bunga o‘xshash juda ko‘p sonli “geshtaltlar” saqlanib qoladi. Shaxmatchi kerak paytda ularni xotirasidan “chaqirib olib” o‘yinda qo‘llaydi”.

Yoki *daraxt* tushunchasi olinganda, daraxtni predmet sifatida idrok etuvchi shaxs uni qismlar yig‘indisi, ya’ni tana, ildiz, shoxlar va barglardan iborat o‘simlik sifatida emas, balki shu qismlarga bo‘linuvchi yaxlit jism – daraxt sifatida idrok qilishi muhim hisoblanadi.

J. Lakoffning ta’biricha, *janjal* va *urush* ayni terminlar bilan tasvirlanadi, Demak, ular bir xil tasavvur qilinadi, ya’ni ular ayni geshtalt (yaxlit obraz – Sh.Usmanova) bilan bog‘lanadi⁹¹.

Inson zakovatining benazir xususiyatlaridan biri unda g‘ayriixtiyoriy bilish qobiliyatining mavjudligi, har narsaga e’tibor qaratmasligidir. Biz

⁸⁸ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – Б. 47.

⁸⁹ Хрестоматия по истории психологии. – М., 1980. – С.84-89; Алефиренко Н. Спорные проблемы семантики. – М., 2005. – С. 326; Сафаров Ш. Кўрсатилган асар. –Б. 47.

⁹⁰ Лакофф Дж. Лингвистические гештальты / Дж. Лакофф // Новое в зарубеж. лингвистике. Вып. 10. Лингвистическая семантика. – М.: Прогресс, 1981. – С. 350–368.

⁹¹ Лакофф Дж. Кўрсатилган асар. –Б. 350–368.

kundalik hayotda ishlatiladigan sanchqining nechta tishi borligi yoki gugurt qutisida nima tasvirlanganini, ichida nechta gugurt donasi borligini eslay olmaymiz. Chunki biz uchun bunday ikir-chikirlarni eslab qolish shart emas. Bizni sanchqi, gugurt qutisi va h.k. obyektlarning muayyan vazifalarigina (funktsiyalari) qiziqtiradi. Buning uchun obyektning **pichoq emas, sanchqi ekaniga yoki sigaret qutisi emas, gugurt qutisi ekaniga** (ta'kid bizniki – Sh. Usmanova) ishonch hosil qilishning o'zi kifoyadir⁹².

Demak, inson uchun predmetlarning foydasiz, ikir-chikir belgilarini bilish shart emas. Bu o'rinda insonning ko'z bilan emas, balki miya bilan ko'rishi muhim sanaladi. Insonda o'xshashlik va farqlilik haqidagi tasavvurlar azaldan mavjud bo'lmaydi. Ular inson psixikasida tajriba orttirish jarayonida keyinroq shakllanadi va murakkab bilish amallarining natijasini namoyon qiladi.

Til mazkur amallarning quroli va olingan bilimlarning qayd qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yani geshtaltlar botiniy mazmundor bo'lgan alohida til birliklaridir. Geshtaltlar tilda amalga oshishi bilan birga, insonning borliqni idrok qilishi asosini tashkil qiladi, bilish jarayonlarini yo'naltiradi, motorli aktlarning o'ziga xos xususiyatlarini va h.k. aniqlaydi.

Tilga nisbatan geshtaltlarning botiniyligi bir necha jihatlarida namoyon bo'ladi. Chunonchi, tilning zohiriy sathida ayni geshtalt turli fikrlarni keltirib chiqarishi mumkin va bunda faqat maxsus izlanishlar orqaligina ularning birligini aniqlash mumkin⁹³.

Shunday qilib, geshtaltlar konseptual bog'lanishlar bo'lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo'lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasavvurlar mohiyatidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy psixolingvistikaning predmeti nima?
2. "Nutqiy muomala" termini nimani ifodalaydi?
3. Ijtimoiy psixolingvistikaning vazifalari nimalardan iborat?
4. "Lisoniy shaxs" termini kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?

⁹² Фрумкина Р.М. Психоллингвистика. – М.: АCADEMIA, 2001. – С.93-94.

⁹³ Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.66.

5. Lisoniy shaxs deganda qanday shaxs tushuniladi?
6. Yu.N. Karaulov lisoniy shaxs strukturasi qanday darajalarini qayd qilgan?
7. Olamning lisoniy manzarasi deganda nimani tushunasiz?
8. M. Xaydeggerning fikricha, olam manzarasi nimani ifodalaydi?
9. Olamning konseptual va lisoniy manzaralari orasidagi farqlarni ko'rsating.
10. Gestalt deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010.
3. Каган М.С. Философия культуры. – СПб., 1996.
4. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М., 1987.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001.
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006.
7. Usmanova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. Darslik. –Toshkent: Universitet, 2014.

VIII BOB. ETNOPSIXOLINGVISTIKA

13-MA'RUZA

ETNOPSIXOLINGVISTIKA MASALALARI

Reja:

1. Etnopsixolingvistikaning obyekti va predmeti
2. Etnopsixolingvistikaning nazariy asoslari
3. Kommunikatsiyaga lingvo-kognitiv yondashish
4. Madaniyatlararo muloqot

Tayanch soʻz va iboralar: etnopsixolingvistika, nutqiy muomala, diskurs, lisoniy tafakkur, ijtimoiy stereotip, etnos, lingvo-kognitiv yondashuv, milliy-determinantli komponent, mental-lisoniy majmua, lisoniy shaxs, nutqiy shaxs, kommunikativ shaxs, individual kognitiv makon, kollektiv kognitiv makon, kognitiv baza, lisoniy kognitiv struktura, madaniyatlararo muloqot, madaniy shok, akkulturasiya, lingvistik shok.

13. 1. Etnopsixolingvistikaning obyekti va predmeti

Etnopsixolingvistika psixolingvistika negizida vujudga kelgan ilmiy tadqiqotlarning yangi yoʻnalishlaridan biridir. Etnopsixolingvistika integrativ xarakterga ega boʻlib, u psixologiya, lingvistika, sotsiologiya va madaniyatshunoslik fanlarining kesishmasida yuzaga kelgan. Etnopsixolingvistika mustaqil fan sifatida hali toʻliq shakllanib ulgurmagan boʻlsa-da, uning yaqin kelajakda oʻz maqomiga ega boʻlishi shubhasizdir.

Etnopsixolingvistika – turli madaniyatlardagi lisoniy shaxslar nutqiy muomalasining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganadigan fan. Nutqiy faoliyatda muayyan anʼanalar bilan bogʻliq boʻlgan muomala elementlarining qanday paydo boʻlishini, turli til egalarining verbal va noverbal muloqotidagi farqlarni oʻrganadi. Nutqiy etiket va “dunyoning rangli manzarasi”ni, turli xalqlardagi ikki tillilik va koʻp tillilik hodisalarini tadqiq etadi.

Etnopsixolingvistikaning **obyekti** milliy diskurs sharoitidagi nutqiy hodisalar yoki nutqiy vaziyatlar majmuyidan, uning **predmeti** esa milliy diskursning oʻziga xos xususiyatlarini taʼminlaydigan barcha omillar majmuyidan iborat.

Diskurs – verballashgan nutqiy, fikrlash faoliyati bo‘lib, u matnlar majmuyini namoyon etadi. *Diskurs* – bu hayotga o‘girilgan matn, kognitiv va kommunikativ funksiyalarni o‘z ichiga olgan, real madaniy kommunikativ vaziyatlarni qayd qilgan nutqiy asar.

“Diskurs” termini 1970-yillarning boshlaridan dastlab “funksional stil” terminiga sinonim sifatida qo‘llanila boshlagan. Keyinchalik ingliz-sakson tilshunoslari Van Deyk va Kinchlar diskurs ostida faqat matnning mavjudligini emas, balki bu mavjud tizim ortida turgan, birinchi navbatda butun grammatikani tushunishni taklif qilishgan.

Diskursning elementlari (Demyankovga ko‘ra):

- 1) bayon qilingan hodisalar (matnning o‘zi);
- 2) ishtirokchilar;
- 3) “hodisa bo‘lmaganlik”;
- a) hodisa bilan birga bo‘ladigan holatlar;
- b) hodisani izohlovchi fon;
- v) hodisaga ishtirokchilarning bahosi;
- g) hodisalar bilan diskurga taalluqli bo‘lgan informatsiya.

Shunday qilib, matn haqida gap ketganda diskursning ichki tuzilishi nazarda tutiladi; diskurs haqida gapirilganda esa nutqiy asarning lisoniy tafakkur, nutqiy kontekst, so‘zning nolisoniy tomonlari bilan aloqasiga diqqat jalb qilinadi⁹⁴.

Etnopsixolingvistika quyidagilarni tasvirlash va tavsiflashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

- 1) milliy tilning milliy mental-lingvo majmua sifatida aks ettiradigan o‘ziga xos funksiyasi;
- 2) muayyan milliy-lingvomadaniy hamjamiyat vakillarining kommunikativ, xususan, nutqiy muomalasining o‘ziga xosliklari;
- 3) milliy diskursning o‘ziga xos jihatlari va uning milliy-madaniy xususiyatlarini belgilaydigan omillar.

Etnopsixolingvistika quyidagi masalalarni tadqiq etadi:

- diskursning universal va milliy o‘ziga xos jihatlari belgilash;
- diskursning milliy-madaniy tarkibini tadqiq etish;
- diskursning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ta‘minlovchi omillarni aniqlash va ularni tasniflash;
- olamning milliy manzarasini aks ettirdigan o‘ziga xos jihatlarni tasvirlash;

⁹⁴ Кавинкина И.Н. Психоллингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010. – С.136-137.

- madaniyat kodlari va etalonlarini aniqlash va tasvirlash va h.k.

13. 2. Etnopsixolingvistikaning nazariy asoslari

Etnopsixolingvistika asoslanadigan nazariy ta'limotlardan biri Sepir-Uorfning "Lingvistik nisbiylik nazariyasi"dir. Mazkur faraz 1930-yillarda E. Sepirning g'oyalari asosida B.Uorf tomonidan ilgari surilgan. Ushbu farazga ko'ra, insonlar olamni o'z ona tillari vositasida turlicha ko'rishadi. Tilda aks ettirilgan olamgina mavjud. Modomiki, har bir til borliqni o'ziga xos usullar bilan aks ettirar ekan, unda tillar bir-biridan o'zining "olamning lisoniy manzarasi"ga ko'ra farqlanadi. E. Sepir va B.Uorfning gipotezasida quyidagi asosiy masalalar ajratiladi: 1. Til unda so'zlashuvchi xalqning tafakkur usuli bilan bog'liqdir. 2. Olamni bilish usuli subyektlarning qanday tillarda fikrlashiga bog'liqdir⁹⁵.

Etnopsixolingvistika shug'ullanadigan masalalardan biri tafakkur (lisoniy tafakkur) va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatdir. Ma'lumki, har bir xalqning dunyoni bilishi, dunyoni tushunishi asosida o'zining predmetlik ma'nolari, ijtimoiy stereotiplari, kognitiv sxemalari sistemasi yotadi, insonning tafakkuri har doim etnik jihatdan shartlangan bo'ladi (A.A.Leontev). Etno-ijtimoiy-madaniy omil ko'pincha fikrni shakllantirish va ifodalash usulining milliy-etnik o'ziga xosligi bilan aniqlanadi (I.A.Zimnyaya). Mazkur jarayon ko'p hollarda "g'ayriixtiyoriy" xarakter kasb etadi, binobarin, tafakkur sistemasining o'zi etnik stereotiplar muomalasi bilan aniqlanadi va har bir alohida madaniyat egasi tomonidan tushunib yetilmaydi, ya'ni mazkur milliy-lingvo-madaniy hamjamiyatning jamoaviy g'ayriixtiyoriyligiga tegishli bo'ladi. Biroq aynan ana shu tafakkurning muayyan sistemliligi yoki olamning obrazi u yoki bu hamjamiyat vakilining muomalasiga ta'sir qiladi va uni aniqlab beradi (N.V.Ufimseva).

Tafakkurning mavjudligi shaxsning o'ziga xos belgilaridan biridir. Shaxs esa ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatda shakllanadi. Shunday ekan, tafakkur shaxsni shakllantirgan o'sha jamiyatning farqli jihatlarini o'zida aks ettirmasligi mumkin emas⁹⁶.

Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli

⁹⁵ Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1960. – Вып. 1. – С. 174.

⁹⁶ Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Лекционный курс. – М.: Гнозис, 2002. – С. 16-17.

ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma‘naviy boyliklarda ifodalanadi. “Madaniyat” tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o‘zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo‘llaniladi. Tor ma‘noda “madaniyat” termini kishilarning faqat ma‘naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.

Madaniyat – me‘yorlar, qadriyatlar, ideallar, namunalarning yo‘l-yo‘riqlari va ko‘rsatmalari sistemasiga asoslangan subyektlar faoliyatining barcha shakllari majmuyi, u boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro aloqada yashaydigan jamoaning meros qilib olgan xotirasi. Madaniyat me‘yori irsiy meros qilib olinmaydi, balki o‘rganish orqali o‘zlashtirib boriladi. Shuning uchun milliy madaniyatni egallash katta aqliy va irodaviy kuch talab qiladi.

Ko‘rinadiki, madaniyat ong, muomala stereotiplari, belgilar va ma‘nolar sistemasi, ya‘ni til bilan chambarchas bog‘liqdir. E.Sepirning ta‘biri bilan aytganda: “Jamiyatni **nima** qilishi va **nimani** o‘ylashiga qarab madaniyatni, **qanday** o‘ylashiga qarab esa tilni aniqlash mumkin”.

Turfa madaniyat vakillari bo‘lgan turli etnoslarning lisoniy dunyosi bir-biridan farq qiladi. Buni quyidagi assotsiativ eksperiment misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Masalan, OQ stimul so‘ziga ruslarning aksariyati QOR reaksiyasini berishgan. O‘zbeklar uchun oq rangni ifodalashda PAXTA, qozoqlar uchun esa SUT “etalon” bo‘lib xizmat qilgan. SARIQ so‘zi ruslar, beloruslar va ukrainlar uchun birinchi galda KUZ YAPROG‘ini, shuningdek, MOMAQAYMOQ (ruslarda), QUM (belaruslarda) va KUNGABOQARni (ukrainlarda) assotsiatsiyalab kelgan. Fransuzlar SARIQ so‘ziga OLTIN va TUXUM SARIG‘I, amerikaliklar YOG‘ni reaksiya so‘z sifatida keltirishgan⁹⁷.

Xullas, etnopsixolingvistika tilning insonlar tafakkuriga ta‘siri hamda tilda tafakkur va muomala milliy xususiyatlarining aks etishi masalalarini tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

13. 3. Kommunikatsiyaga lingvo-kognitiv yondashish

Kommunikatsiyaga lingvo-kognitiv yondashishda o‘z nomidan ko‘rinib turganidek muloqotning nafaqat lingvistik, balki kognitiv jihatlar ham tahlil qilinadi. Lingvo-kognitiv yondashishda

⁹⁷ Кавинкина И.Н. Психоллингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010. – С. 161.

kommunikatsiyaning ikki asosiy tomoni: 1) umumlisoniy jihat (muloqot amalga oshiriladigan har qanday til, har qanday kommunikatsiya, har qanday diskurs uchun muhim bo'lgan); 2) milliy-determinantli komponent (milliy diskurs uchun muhim bo'lgan) ajratib o'rganiladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur yondashuv bir tomondan kommunikatsiyadagi umumiy tomonlarni, kommunikatsiyaga ta'sir qiladigan barcha omillarni kompleks tahlil qiladi. Boshqa tomondan kommunikatsiyani tashkil qilgan milliy mental-lisoniy majmuaning asosiy belgilarini tadqiq etish orqali uning milliy o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi⁹⁸.

Kommunikatsiya ilmiy bilim tushunchasi sifatida uzoq tarixga ega bo'lib, uning bir qancha talqinlari mavjud. Masalan, amerikalik psixolog Yu. Ryush (Jurgen Ruesch) kommunikatsiya tushunchasini antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va h.k. sohalarda qirqdan ortiq talqini mavjud ekanligini qayd qilgan.

Turli sohalarda ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning aksariyati (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, A.R.Luriya va h.k.) kommunikatsiyani o'zaro munosabat, "intereaksiya" (o'zaro ta'sir) sifatida talqin qilishgan va uning ijtimoiy xarakterini ta'kidlashgan.

Kommunikatsiya ikki yoki undan ortiq lisoniy shaxslarning xabarni uzatish, fikr va ma'lumotlar almashish, ya'ni suhbatdoshga u yoki bu shaklda ta'sir qilish maqsadida amalga oshirilgan muloqotdir. Kommunikatsiya ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U jamiyatda aloqa o'rnatuvchi vazifani bajaradi.

Kommunikatsiyaning subyekti so'zlovchi inson bo'lib, u o'zining nutqiy faoliyatida 1) lisoniy, 2) nutqiy va 3) kommunikativ shaxs sifatida namoyon qiladi. *Lisoniy shaxs* – muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo'lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxs. *Nutqiy shaxs* – kommunikatsiyada muloqotning u yoki bu strategiya va taktikasini tanlab amalga oshiradigan, u yoki bu lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanadigan shaxs. *Kommunikativ shaxs* – real kommunikatsiyada real harakat qiladigan aniq kommunikativ aktning aniq ishtirokchisidir.

Ma'lumki, psixolingvistikada har qanday so'zlovchi shaxs individual kognitiv makon (IKM), o'sha jamoaga taalluqli kollektiv

⁹⁸ Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Лекционный курс. – М.: Гнозис, 2002. –С. 21.

kognitiv makon (KKM) majmuyi va o‘zi a‘zo bo‘lgan milliy-lingvo-madaniy hamjimiyaatning kognitiv bazasiga (KB) ega bo‘ladi. Kommunikatsiya jarayoniga (IKM), (KKM) va (KB) bevosita ta’sir ko‘rsatadi. (KM) va (KB) kodlash va informatsiyani saqlashning mazmunii shakli sifatida tushuniladigan kognitiv strukturalar bilan shakllantiriladi. Kognitiv strukturalar o‘z navbatida fenomenologik (FKS) va lisonii kognitiv strukturalar (LKS)ga ajraladi. Kognitiv strukturalar “vositachi” strukturalar orqali namoyon bo‘lgani uchun ularning o‘zini to‘laligicha o‘rganish qiyin. Kognitiv strukturalar so‘zlovchining qobiliyati asosida yotadi va kognitiv strukturalar bilan qobiliyat turlari o‘rtasidagi muayyan o‘zaro munosabatlarni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lib ko‘rinadi. Darhaqiqat, lisonii va nutqii qobiliyat shubhasiz, birinchi navbatda lisonii kognitiv strukturalar, predmet qobiliyat – fenomenologik, madaniy va kommunikativ esa ham unisi, ham bunisi vositasida shakllanadi. LKS olamning lisonii manzarasini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi, olamning obrazli (konseptual) manzarasini shakllantirishda birinchi navbatda FKS “material” bo‘lib xizmat qiladi⁹⁹.

Xullas kommunikativ modelning “qutblari” N. G. Komlev qayd qilganidek, so‘zlovchi tafakkuri (“kirish”da) va tinglovchi tafakkuri (“chiqish”da) orqali namoyon bo‘ladi. Tafakkur (lisonii tafakkur) esa millii bo‘lib, u fenomen sifatida har doim madaniyat bilan chambarchas bog‘liqdir.

13. 4. Madaniyatlararo muloqot

Fanda madaniyatlararo muloqotga nisbatan Robert Lado tomonidan ilgari surilgan “tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatiga munosabat”, deb nomlanadigan metodik tamoyil mavjud. Ushbu tamoyilning mazmuni: “Ikki xalqning madaniyati bir-biriga mos kelmaganda (masalan, urush vaqtida) til o‘rganuvchilarni mazkur xalq tilini sevish, bu tilda gapiradigan xalq bilan do‘stona munosabatda bo‘lish, bu xalqqa nisbatan befarq yoki salbiy munosabatda bo‘lmaslik va uning madaniyatiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash”dan iborat. Biroq hayotda turli til va madaniyatlarga mansub kishilar o‘rtasida talaygina to‘qnashuvlar mavjud.

Madaniyatlararo to‘qnashuvlarning ko‘rinishlaridan biri madaniy shokdir. **Madaniy shok** (cultural shock) termini 1955-yilda Raverl Ober

⁹⁹ Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Лекционный курс. – М.: Гнозис, 2002. –С. 23-24.

tomonidan taklif qilingan. U xorijiy tilni o'rganuvchining ajablanish, hayron bo'lish yoki tili o'rganilayotgan madaniyat omillarining qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. *Madaniy shok* til o'rganuvchining noto'liq akkulturratsiyasi yoki u uchun yangi bo'lgan madaniyat me'yorlarini bilmasligi, tushunmasligidir. Har qanday xorijlik o'z boshidan madaniy shok holatini kechiradi. O'z yurtida yashayotgan odam ham begona muhitga tushib qolganda madaniy shokka duch kelishi mumkin. Madaniy shok o'zga madaniyat bilan tanish bo'lishiga qarab va yangi faktlarni qiyoslash oqibatida o'zining madaniyatini unuta borgan sari barham topadi¹⁰⁰.

Madaniy shok holatini o'z (Sh.Usmanova) tajribamdan kelib chiqqan holda ba'zi misollar yordamida izohlashga harakat qilaman. 2000-yili Busan chet tillari universitetining taklifiga binoan koreys talabalariga o'zbek tilidan dars berish uchun Janubiy Koreyaga bordim. Janubiy Koreyadagi hayotimning dastlabki haftasida bir koreys talabaga saqich berdim. U saqichni chapillatib chaynashga tushdi. Talaba qiz juda odobli, tarbiyali va nazokatli edi. Bunday qizning madaniyatning oddiy qoidalaridan bexabar ekanligi meni hayratga soldi. Bu voqeadan 3-4 kun o'tgach, o'zbek tili kabinetida choy tashkil qilib, bir guruh talabalarni choyga taklif qildim. Ularni o'zbek shirinliklari bilan mehmon qildim. Talabalarning aksariyati shirinliklarni chapillatib yeyishga boshlashdi. Men madaniy shok holatiga tushdim. Toqatim toq bo'lib, koreys talabalarini "tarbiyalab" qo'ymoqchi bo'ldim va chapillatib yeyish madaniyasizlik ekanligi, boshqalarda yaxshi tasavvur qoldirmasligini tushuntirdim. Talabalar juda noqulay ahvolga tushishdi, uzr so'rashdi. Keyin xijolatomuz ohangda chapillatib yeyishning Koreyada biron yegulik bilan mehmon qilgan kishiga nisbatan hurmat, minnatdorchilik, qolaversa, yegulikning juda mazaliligiga ishora ekanligini aytishdi. Men juda noqulay ahvolga tushib qoldim. Shundan so'ng koreys xalqiga, madaniyatiga hurmatim oshdi.

Akkulturatsiya – madaniyatlarning o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, u biron bir xalq yoki biron bir xalq vakili tomonidan boshqa xalq madaniyatining to'liq yoki qisman qabul qilinishini ifodalaydi.

Akkulturatsiya quyidagi bosqichlarga ajraladi:

¹⁰⁰ Кавинкина И.Н. Психолингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010. –С. 162-163; Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 163

1. Boshlang'ich bosqich – inson chet elga ketish arafasida hayajon, quvonch yoki xavotir va tashvishga tushadi. Boradigan mamlakat haqida ma'lumotlar to'playdi, til bilan chuqurroq tanishadi.

2. Insonning yangi mamlakatga kelganining dastlabki kunlarida bu mamlakat madaniyatiga ko'nikish bosqichi. Bu davrda inson o'zini musofir his qilib, mazkur mamlakat madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini umuman qabul qilmasligi mumkin.

3. Moslashuv bosqichi. O'zini musofir his qilgan inson o'zga madaniyat bilan murosqa qilishga boshlaydi.

4. Osoyishtalik bosqichi ba'zan xorijiy davlatga kelganiga 2-3 yil bo'lganidan so'ng boshlanishi mumkin. Insonda mazkur mamlakat haqida u yoki bu darajada obyektiv fikrlar shakllanadi.

5. Uyga ketish arafasidagi moslashuv bosqichi. Bu davrda uyiga qaytishi kerak bo'lgan insonda bir xillik muammolari bilan bog'liq qattiq hayajon alomatlari rivojlanadi. Ya'ni u hali xorijlik bo'lgani holda xayoli uyida bo'ladi.

6. So'nggi bosqich – qaytishga moslashuv. Xorijdan uyiga qaytgan insonning holati, ya'ni uyiga qaytgan inson o'z yurtida o'zini begonadek his qiladi. Ko'pincha, xorijdagi xotiralari bilan yashaydi, u yerda ko'rganlarini hozir ko'rayotganlari bilan qiyoslaydi.

Madaniyatlararo muloqotda madaniy shokka o'xshash bo'lgan lingvistik shok hodisasi ham kuzatiladi. **Lingvistik shok** ona tili uchun kulgili, g'alati va odobdan tashqari hisoblangan lisoniy birliklar qo'llanilgan xorijiy nutqni eshitgan insonning hayratlanish, kulish yoki xijolat bo'lish holati. Masalan, turk tilida *düşmek* “yiqilmoq”ni, o'zbek tilida *tushmoq* “yuqoridan, balandlikdan pastga tomon yo'nalmoq; biron transportdan tushmoq va h.k.” yoki *zor* “juda qiyin”, *zo'r* “juda yaxshi” ma'nolarni ifodalaydi. Koreys tilida *oppa* akani, o'zbek tilida bunga qarama-qarshi ma'nodagi so'zni anglatadi. Tillararo bunday omonimiya hodisasi “tarjimonning aldoqchi do'stlari” muammosi sifatida tasvirlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Etnopsixolingvistika qaysi fanlarning kesishmasida yuzaga kelgan?

2. Etnopsixolingvistika qanday masalalarni o'rganadi?

3. Etnopsixolingvistika qaysi nazariy ta'limotlarga asoslanadi?

4. Tafakkur (lisoniy tafakkur) va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatni izohlang.
5. Madaniyat deganda nimani tushunasiz?
6. E.Sepirning ta'biricha, madaniyat va tilni qanday aniqlash mumkin?
7. Kommunikatsiyaga lingvo-kognitiv yondashishda kommunikatsiyaning qaysi tomonlari o'rganiladi?
8. Kommunikatsiya nima?
9. "Lisoniy shaxs", "nutqiy shaxs" va "kommunikativ shaxs" tushunchalarini izohlang.
10. Psixolingvistikada har qanday so'zlovchi shaxs nimalarga ega bo'ladi?
11. "Tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga munosabat" tamoyilining mazmuni qanday?
12. Madaniy shok qanday hodisa?
13. Akkulturationsiya nimani ifodalaydi?
14. Akkulturationsiya qanday bosqichlarga ajraladi?
15. Lingvistik shok qanday holat?

Adabiyotlar

1. Белянин В. П. Психоллингвистика. – М., 2004.
2. Кавинкина И.Н. Психоллингвистика. Пособие для студентов педагогических специальностей высших учебных заведений. – Гродно: ГрГУ, 2010.
3. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Лекционный курс. – М.: Гнозис, 2002.
4. Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1960. –Вып. 1.
5. Этнопсихоллингвистика. Отв. ред. Ю.А.Сорокин. – М.: Наука, 1988.

14-MA'RUZA LAKUNALAR

Reja:

1. “Lakuna” tushunchasi
2. Lakunalarning turlari
3. Ijtimoiy-madaniy lakunalar
4. Lakunalarni bartaraf qilish yo‘llari

Tayanch so‘z va iboralar: lakuna, bo‘shliq, zid so‘zlar, oraliqlar, fonli leksika, realiya, madaniyatlararo muloqot, muqobil, verbal, noverbal, kommunikatsiya, muloqotning uzilishi, subyektiv lakunalar, milliy-psixologik lakunalar, faoliyat-kommunikativ lakunalar, matniy lakunalar, madaniy makondagi lakunalar, etnografik lakunalar, retsipient, assotsiatsiya to‘ldirish usuli, kompensatsiyalash usuli, lakunologiya.

14. 1. “Lakuna” tushunchasi

“Lakuna” termini ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unga shunday ta’rif berilgan: “Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi”¹⁰¹.

V.G. Gak lakunalarni “tilning leksik tizimidagi bo‘shliqlar, bor bo‘lishi kerakdek ko‘ringan so‘zlarning mavjud emasligi”¹⁰², deb tushuntiradi. Tadqiqotchi lakunalarni mazkur jamiyatda tushunchalarning mavjudligi, biroq ularni ifodalovchi so‘zlarning yo‘qligi, bunday tushunchalar uchun boshqa tilda alohida leksik ifodalarning mavjud bo‘lishi deb hisoblaydi. Lakunalarga misol tariqasida fransuz tilida rus tiliga qiyosan *сумка* va *купяток* so‘zlarining mavjud emasligini keltiradi.

Lakunalar (J.P. Vine va J. Darbelne, V.L. Muravev), oraliq, lakuna (K. Xeyl), zid so‘zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog‘lar (Yu.S. Stepanov), tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar (V.G. Chernov), muqobilsiz, nol so‘z (I.A. Sternin), muqobilsiz yoki fonli leksika (L.S. Barxudarov, Ye.M. Vereshchagin, V.G. Kostomarov), tasodifiy

¹⁰¹ Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. – Paris, 1958. –P. 10.

¹⁰² Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. – Л.: Просвещение. Ленингр. от-е, 1977. –С. 261.

lakunalar, tarjimasiz leksika (L.S. Barxudarov) va h.k. qo'llanilganini ko'rish mumkin.

S.Vlaxov va S.Florinlar lakuna hodisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo'lgan realiyalar, ya'ni "biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan so'z va so'z birikmalari"¹⁰³ sifatida talqin qilishgan. O.A. Ogursovaning fikricha, mazkur leksemalar qiyoslanayotgan tillarda o'xshashi bo'lmagan so'zlardir. Olima *lakuna* terminini qo'llashni ma'qul ko'radi va uni so'z birikmasi emas, konnotatsiyadan holi bo'lgan qisqa so'z ekanligini; tasvirlanayotgan hodisani farqlilik darajasi xususida so'z yuritish mumkin bo'lgani uchun unga nisbatan muqobilsiz terminini qo'llashning o'rinsiz ekanligini qayd qiladi. "Lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo'lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so'zlar va so'z birikmalaridir"¹⁰⁴.

Aksariyat tadqiqotchilarning tillar va madaniyatlardagi farqliliklarni tahlil qilishda "lakuna" (lot. lacuna – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy; frans. lacune – bo'shliq, bo'sh joy) terminini qo'llashlari bejiz emas. A.M.Proxorovning tahriri ostidagi «Советский энциклопедический словарь» (M., 1981)da tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi lakunalar "matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy" deb izohlangan. Bunga o'xshash izohni «Словарь иностранных слов» (M.,1984)da ham uchratish mumkin.

Muayyan xalqning madaniyatida boshqa madaniyat vakillari tomonidan qabul qilinmaydigan stereotip xarakterdagi bir qator o'ziga xos unsurlar mavjud bo'lib, ular Yu. A. Sorokin va I.Yu. Markovinalar tomonidan lakunalar deb nomlanadi. Retsipient har doim ham o'zga madaniyat matnini to'liq tushuna olmaydi. Matndagi ayrim birliklar unga g'alati tuyuladi va ular maxsus izoh talab qiladi. Bunday birliklar matn yaratilgan madaniyatning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, lakunalarni yuzaga chiqaradi.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarni qiyoslash natijasida aniqlanadi. Shuni

¹⁰³ Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Высш. шк., 1986. – С. 55.

¹⁰⁴ Огурцова О.А. К проблеме лакуарности //Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. – Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. – С. 79.

ta'kidlash joizki, qiyosiy tahlil jarayonida odatda tadqiqotchining ona tili chet tili bilan qiyoslaniladi. Agar qandaydir chet tilidagi so'zga tadqiqotchining ona tilida (masalan, o'zbek tilida) mos so'z topilmasa, unda tadqiqotchi chet tilidagi so'zning muqobilsizligi to'g'risida xulosaga keladi va bu so'z o'zbek tilida lakunani yuzaga chiqaradi. Masalan, ingliz tilida "yurist, advokat" ma'nosini anglatgan *lawyer* so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* "vakil", *barrister* "oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat", *solicitor* "mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega", *counsel* "yuriskonsult", *counsellor* "maslahatchi", *advocate* "oliy darajadagi advokat" (Velikobritaniya, 1978) kabi so'zlar ham qo'llaniladi. Mazkur ifodalarga o'zbek va rus tillaridagi faqat *advokat* so'ziga muqobil bo'la oladi.

14. 2. Lakunalarning turlari

Bugungi kunda lakunalarning turli tipologiyasi mavjud. G. V. Bikova, V. L. Fraerlar lakunalarni bir nechta turga ajratishni taklif qilishadi¹⁰⁵:

Predmet va mavhumlikni ifodalovchi lakunalar. *Predmet lakunalar* qabul qilinayotgan predmet yoki hodisani moddiy, jismoniy, hissiy mavjud emasligini ifodalaydi. *Mavhum lakunalar* konsept, fikrlash kategoriyasi, mentefaktning mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, *patir* – boshqa tillar uchun predmet lakuna, *oqibat* – *mavhum lakuna*.

Jins va tur bildiruvchi lakunalar. *Jins bildiruvchi lakunalar* (giperonimik) predmetlar sinfi uchun umumiy nomning mavjud emasligini ifodalaydi. *Tur bildiruvchi lakunalar* (giponimik) muayyan predmet va hodisalar uchun aniq nomlarning mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilida buvi va boboning umumiy nomi yo'q, ingliz va nemis tillarida esa buvi va boboni ifodalash uchun umumiy nom mavjud: ingl. *grandparents*, nem. *großeltern*. Bu o'zbek tili uchun jins bildiruvchi lakunadir. Boshqa tomondan o'zbek tilida qo'l soat va osma soatlarni farqlash uchun alohida so'z mavjud emas (qiyoslang: ingl. *watch, clock*). Bu o'zbek tili uchun tur bildiruvchi lakunadir. Yoki o'zbeklar rus tilidagi *мысль* va *смутань* tushunchalarini leksik jihatdan farqlashmaydi. Binobarin, o'zbek tilida faqat *yuvmoq* fe'lidani foydalaniladi (*idish yuvmoq, kir yuvmoq*).

¹⁰⁵ Быкова Г. В., Фраерл В. Л. Лакуны русского языка. Под науч. ред. И.А. Стернина. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2008. – С. 41-44.

Tillararo va til ichidagi lakunalar. Tillararo lakunalar turli tillarni qiyoslash natijasida aniqlanadi. Agar qiyolanilayotgan tillardan birida mavjud bo‘lgan til birligiga ikkinchi tilda leksik muqobil topilmasa, unda lakunaning mavjudligi haqida gapirish mumkin. Masalan, o‘zbek tilida onaning onasiga ham otaning onasiga ham *buvi*, onaning otasiga ham, otaning otasiga ham *buva* deyilsa, turk tilida *anneanne*, *babaanne*, koreys tilida otaning onasiga *halmoni*, otaning otasiga *haraboji*, onaning onasiga *vihalmoni*, onaning otasiga *viharaboji* deyiladi. Yoki koreys tilida *obba* “aka” ayollarning, *hyõŋ* “aka” erkaklarning, *onni* “opa” ayollarning, *nuna* “opa” erkaklarning nutqida ishlatiladi”¹⁰⁶. O‘zbek tilida onaning onasi// otaning onasi, onaning otasi// otaning otasi kabi tushunchalar mavjud bo‘lsa-da, ularni ifodalash uchun faqat ikki so‘z: *buvi* va *buvadan* foydalaniladi. Turk va koreys tillarida esa bu tushunchalarning har biri alohida so‘zlar (*anneanne*, *babaanne*, *halmoni*, *vihalmoni*, *haraboji*, *viharaboji*) vositasida ifodalangan. Mazkur so‘zlar o‘zbek tilida lakunalarni yuzaga chiqaradi.

Til ichidagi lakunalar bir til paradigmalarining ichida namoyon bo‘ladi. Masalan, qarama-qarshi ma’noli so‘zning yo‘qligi, muayyan stilistik aloqadorlikdagi birlikning yo‘qligi, so‘zning qandaydir morfologik shaklining mavjud emasligi va h.k. (masalan, o‘zbek tilida *mushuk*, *tulki*, *bo‘ri* so‘zlarining *qo‘y-qo‘chqor*, *tovuq-xo‘roz* kabi qarama-qarshiligi mavjud emas).

Motivlashgan va motivlashmagan lakunalar. Motivlashgan lakunalar milliy madaniyatda muqobil predmet yoki hodisaning mavjud emasligi bilan izohlanadi (*to‘n*, *do‘ppi*, *palov*, *sumalak*, *patir*, *so‘ri*, *beshikkertti*, *chilla*, *yuzko‘rdi* va h.k.). Motivlashmagan lakunalar – mazkur madaniyatda muqobil predmet yoki hodisaning yo‘qligi bilan izohlanmaydi balki bu madaniyatda muqobil predmet yoki hodisa mavjud, lekin ularni ifodalash uchun so‘zlar mavjud emas. Bunday holatlarda u yoki bu predmet yoki realiya mavjud bo‘ladi, biroq xalq ularni nomlashni zarurat deb hisoblamagan (masalan, rus tilidagi *сумка*, *кипюток*, *сухомятка* va h.k. o‘zbek tili uchun lakunadir).

14.3. Ijtimoiy-madaniy lakunalar

Madaniyatlararo verbal va noverbal kommunikatsiya jarayonida “muloqotning uzilishi”, “muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi”, “noqulay aloqa”, “lisoniy to‘qnashuv”, “madaniy shok” va h.k. ijtimoiy-

¹⁰⁶ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. – Б . 152-156.

madaniy lakunalarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-madaniy lakunalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Turli lingvomadaniyat jamoalari vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan subyektiv lakunalar. *Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar* madaniyatlararo muloqot jarayonida ishtirokchilarning milliy-psixologik qarashlari bir-biriga mos kelmaganda yuzaga keladi. Masalan, nemislar o'ta tartibliligi bilan boshqa xalqlardan ajralib tursa, koreyslar aksariyat hollarda kech qolishi bilan boshqa xalqlardan farqlanadi. Koreys muloqotida salomdan keyin kattalarga *shiksa hashossoyo?* (ovqat yedingizmi?) yoki kichiklarga *bab mokossoyo* (ovqat yedingmi?), deb so'rash odat (bu odat Koreyadagi urush yillaridagi og'ir ocharchilik paytida hol-ahvol so'rash oqibatida shakllangan) bo'lsa, o'zbek muloqoti uchun bu holat notabiiy sanaladi. Yapon jamiyati muloqot shakllaridagi "o'ziniki-begona" qarama-qarshiligi ham subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalarni aks ettiradi. Yaponiyada "o'zinikilar" bilan dialektlar vositasida muloqotga kirishilsa, "begonalar" bilan, xususan, chet elliklar bilan adabiy tilda muloqot qilinadi¹⁰⁷.

2. Turli faoliyatlarning o'zaro aloqasida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradigan *faoliyat-kommunikativ lakunalar*. Mazkur guruhga muayyan madaniyatga xos bo'lgan xatti-harakat va imo-ishoralar, urf-odatlar, an'analar bilan bog'liq maishiy yoki kundalik muomala, shuningdek, muomala madaniyati kiradi. Masalan, "*Bu kitob sizniki emasmi?*" yoki "*Ertaga band emasmisiz?*" savoliga deyarli barcha madaniyatlarda "*Yo'q, meniki emas*", "*Yo'q, band emasman*", deb inkor ma'nosida *bosh chayqab* javob beriladi. Koreyslar (yaponlar ham) "*Ne, ne cheki animnida*" ("Ha, mening kitobim emas") va "*Ne, babiji ansimnida*" ("Ha, band emasman"), deb tasdiq ma'nosida *bosh irg'ab* javob beradi. Chunki koreys muloqotida asosiy e'tibor suhbatdoshga qaratilgan bo'lib, uni hurmatlash birinchi o'rinda turadi. Yoki aksariyat xalqlarning so'zsiz muloqotida *bosh barmoqni ko'tarish* holati "juda yaxshi", "juda zo'r" ma'nolarni ifodalasa, koreys muloqotida "boshliq", "erkak" va "muhr" ma'nolarini anglatadi. O'zbeklar yoki ayrim xalqlarda *qo'lini oldinga uzatib, ko'rsatkich barmoq* bilan "bu yerga kel", deb ishora qilinsa, koreys yoki yaponlarda

¹⁰⁷ O'sha betda.

bu ishora itlarni chaqirish uchun qo‘llaniladi¹⁰⁸. Bunday lakunalarining voqelanishi nafaqat u yoki bu muloqotning noto‘g‘ri tushunilishiga, balki madaniyatlararo to‘qnashuvlarni ham yuzaga chiqarishi mumkin.

Ba‘zan turli xalqlar madaniyatida ranglar ifodalagan ramziy ma’nolar ham o‘ziga xos lakunalarining shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, rus lingvomadaniyatida yoshlik “*зелёный юнец*”, “*зелен виноград*” yashil rangning konnotatsiyalari vositasida ifodalansa, Xitoy an‘analarida mazkur ma’no uchun oq rang konnotatsiyasidan foydalaniladi: *bai mian shu shen* – “tajribasiz yoshlar, ilmga yangi kirib kelgan”¹⁰⁹.

3. Matnlarning xususiyatlari (matnning mazmuni, matnni yaratish va uni tushunish, muayyan retsiyentga yo‘nalish, muallif poetikasi va h.k.)dan kelib chiqadigan *matniy lakunalar*. Masalan, retsiyent ona tilida bo‘lmagan matnni o‘qish jarayonida unga “begona” bo‘lgan madaniyat bilan to‘qnashadi va uni o‘zining milliy madaniyati doirasida qabul qilishga harakat qiladi. Natijada retsiyent “begona” madaniyatning o‘ziga xos xususiyatini noto‘g‘ri talqin qiladi. Bunday holatlarda lakunalar matnni tushunmaslikdan yuzaga keladi. Shuningdek, muallif va kitobxon orasidagi zamonda (zamonaviy kitobxon klassik asarlarni tushunmasligi mumkin) ham farq bo‘lishi mumkin.

4. Madaniy makondagi lakunalar u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi vakillarining madaniy makon va ichki ko‘rinishni baholashdagi nomutanosibligini ifodalaydi. Muloqot jarayoni keng ma’noda olinganda *madaniy makondagi lakunalar*, tor kommunikativ akt miqyosida olinganda *ichki ko‘rinish lakunalari* deb yuritiladi. Madaniy makon deganda har qanday madaniyat tashuvchisini o‘rab olgan muhitning cheksizligi tushuniladi. Madaniy makonning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi vakillarining atrof-muhitga qanday ahamiyat berishi;
- mazkur jamoa vakillarining turmush tarzi, hayoti;
- mazkur jamoa vakillarining bilimlar zaxirasi, madaniy fondi.

¹⁰⁸ Usmanova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. – Seoul, 2004. –Б. 51.

¹⁰⁹ Вань Ланьсяосюань. Национально-культурные особенности картин мира русского и китайского языков (на материале коннотаций – цветообозначений) <http://jurnal.org/articles/2010/fill28.html>

Madaniy makon va uni tarkib toptiruvchi atrof-muhit, turmush tarzi, bilimlar zaxirasi, madaniy fond kabi unsurlar boshqa madaniyat jamoasining vakili uchun lakuna hosil qiluvchilar sanaladi.

Madaniy lakunalarning o'ziga xos turlaridan biri *etnografik lakunalar*dir. Ular ma'lum bir madaniyatga oid bo'lib, boshqa mahalliy madaniyatda mavjud bo'lmaydi. Etnografik lakunalar ko'pincha maishiy hayot predmetlarini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Boshqa madaniyat retsiptiyenti ular haqida tasavvurga ega bo'lmaydi, bunday tushunchalarning asosiy ma'nosi anglay olmaydi. Masalan, koreys turmushidagi "*o'ndol*" tushunchasi koreys uylaridagi pol ostidagi isitish tizimini anglatadi. Yoki o'zbek maishiy hayotidagi "*tancha*" tushunchasi isinish jihozini bildiradi. Tabiiyki, boshqa madaniyat retsiptiyentlari mazkur predmetlar haqida tasavvur hosil qilishga, bu tushunchalarning ma'nolari anglashga qiynaladi. Ko'rinadiki, etnografik lakunalar maishiy hayot predmetlariga xos bo'lib, ular tasviriy va tavsifiy izohlarni talab qiladi¹¹⁰.

V. Muravev etnografik lakunalarning paydo bo'lishini qiyoslanayotgan madaniyatlardan birining sohibida boshqa madaniyat vakilida bo'lgan turli ijtimoiy-madaniy omillar natijasida yuzaga kelgan lingvo-etnografik assotsiatsiyaning yo'qligi bilan bog'laydi¹¹¹.

14.4. Lakunalarni bartaraf qilish yo'llari

Madaniyatlar aralashgan bugungi kunda turli tillar, xalqlar, ularning madaniyatlariga qiziqish, ularni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikkita milliy madaniyat hech qachon bir-biriga to'liq mos tushmaydi. Retseptiyentning boshqa madaniyatdagi matnni o'z madaniyati doirasida qabul qilishi o'sha madaniyatni tushunmaslikka, ayrim hollarda madaniyatlararo to'qnashuvlarga sabab bo'ladi. Lisoniy to'siqlar mavjud bo'lmagan holatlarda ham aynan madaniyatlardagi farqlar madaniyatlararo muloqotga xalaqit qilishi mumkin.

U yoki bu lingvomadaniyat jamoasining milliy xususiyatlarini ifodalovchi lakunalar chet tillarni o'rgatishda o'ziga xos to'siq sanaladi. Biroq madaniyatlararo muloqot tajribasi mazkur madaniyatlarning milliy o'ziga xos farqlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda turli usullarning mavjudligini ko'rsatadi. Binobarin, G. A. Antipov, O. A.

¹¹⁰ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: "Akademnashr", 2013. – Б. 154.

¹¹¹ Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). – Владимир, 1975. – С.38.

Donskix, I. Y. Markovina va Y. A. Sorokinlar ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning ikki: *to'ldirish* va *kompensatsiyalash* usullariga ajratishadi¹¹².

Lakunalarni *to'ldirish* retsiپیent uchun boshqa madaniyatga tegishli bo'lgan ayrim tushunchaning ma'nosini ochib berish jarayonidir. Lakunalarni to'ldirishning eng ko'p tarqalgan turi matn tarjimasida milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan unurni saqlab qolishdir. Masalan, *In der Gaststätte bestellte er Hackepeter. U restauranda ziravorlangan xom go'shtdan tayyorlanadigan xakepeter olib kelishni buyurdi*¹¹³.

Ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning yana bir usuli *kompensatsiyalash* bo'lib, uning asosiy vazifasi milliy o'ziga xos to'siqni olib tashlashdir. Matndagi lakunalarni kompensatsiyalashning eng sodda turi boshqa madaniyatga oid bo'lgan parchani retsiپیent tilida berishda muallif tomonidan realiyalardan foydalanishdir. Masalan, “*У него (дерева) густая раскидистая крона, продолговатые листья, как у нашей черемухи, только в несколько раз крупнее*”¹¹⁴.

Bunda havola va iqtiboslar keltirish kompensatsiyalash usulining asosiy unsuri bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, lakunalar bir tomondan milliy madaniyatning o'ziga xos belgisi, mentalitet xususiyatlari darajasining ko'rsatkichi bo'lsa, ikkinchi tomondan madaniyatlararo o'zaro ta'sir sharoitida o'zga ko'rinishga kira oladigan birliklar hisoblanadi. Lakunalarni tadqiq qilish lakunologiya fanini shakllantirishga, uning tushunchaviy-terminologik apparatini va tadqiqot metodlarini ishlab chiqishga, tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib berishga, madaniyatlararo muloqotda to'siqlarni yengishga, chet tillarni o'rgatishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Lakuna” termini ilk bor kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi?
2. Lakunaga ta'rif bering.

¹¹² Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. Новосибирск, 1989.

¹¹³ Папибян А. В. Социокультурные лакуны: типология, причины появления и способы заполнения при изучении иностранных языков. – С. 481. Электрон вариант.

¹¹⁴ Пиляцкий Б. Восточная и Южная Азия. – М., 1981. – С.175.

3. Lakunalar qanday aniqlanadi?
4. Predmet va mavhumlikni ifodalovchi lakunalarni izohlang.
5. Jins va tur bildiruvchi lakunalarni tushuntiring.
6. Tillararo va til ichidagi lakunalarni ta'riflang.
7. Motivlashgan va motivlashmagan lakunalarni izohlang.
8. Qanday hodisalar ijtimoiy-madaniy lakunalarni keltirib chiqaradi?
9. Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar qanday yuzaga keladi?
10. Faoliyat-kommunikativ lakunalarga nimalar kiradi?
11. Qanday lakunalarga matniy lakunalar deyiladi?
12. Madaniy makondagi lakunalar nimani ifodalaydi?
13. Madaniy makonning tarkibiga nimalar kiradi?
14. Etnografik lakunalar nima?
15. Lakunalarni to'ldirish qanday usul?
16. Lakunalarni kompensatsiyalash qanday usul?

Adabiyotlar

1. Быкова Г. В., Фраерл В. Л. Лакуны русского языка. Под науч. ред. И.А. Стернина. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2008.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. –М., 2008.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М.: Изд. Центр «Академия», 2001. – 208 с.
4. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). –Владимир, 1975. – 176 с.
5. Сорокин Ю.С. Лакуны как сигналы специфики лингвокультурной общности // Аспекты изучения текста. –М., 1981. –С. 93-101.
6. Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. –Тошкент: “Akademnashr”, 2013. –Б 152-156.
7. Этнопсихолингвистика. – М.: Наука, 1988. – 190 с.
8. Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz mulqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.IX. – Seoul, 2004. – Б. 48-60.

15-MA'RUZA BILINGVIZM

Reja:

1. Bilingvizmning mohiyati
2. Bilingvizm turlari
3. Interferensiya

Tayanch soʻz va iboralar: bilingvizm, ikki tillilik, koʻp tillilik, koordinativ bilingvizm, aralash bilingvizm, subordinativ bilingvizm, interferensiya.

15. 1. Bilingvizmning mohiyati

(Ichki til) diglossiyasi (yun. *di* – “ikki” va *gloss* “til”) deganda, bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bogʻliq holda tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga koʻchish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish tushuniladi. Masalan, italyan tili sohiblari uyda, doʻstlar doirasida mahalliy dialektni qoʻllashadi, biroq boshqa dialekt vakillari bilan muloqot qilishganda yoki ommaviy chiqishlarida adabiy tildan foydalanishga oʻtishadi. Bunday hodisani xorazmliklar nutqida ham kuzatish mumkin. Xorazm shevasi aksariyat hollarda xorazmliklar orasida qoʻllaniladi. Xorazmliklar boshqa sheva vakillari bilan muomalada boʻlganda yoki Toshkentda (yoki boshqa viloyatlarda) yashashganda adabiy tilda soʻzlashadilar.

“Diglossiya” termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapirish, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga koʻra galma-gal qoʻllay olishni ham anglatishi mumkin. Bunday hollarda “ichki til” aniqlovchisi chiqarib tashlanib, “diglossiya” terminining oʻzi qoʻllaniladi.

“Diglossiya” termini ilmiy muomalaga amerikalik tadqiqotchi C.A. Ferguson tomonidan 1959-yilda kiritilgan¹¹⁵. Bungacha tilshunoslikda xalqaro “bilingvizm” va uning muqobili “ikki tillilik” (zullisonayn) terminlari qoʻllanilgan (va qoʻllanishda davom etmoqda). Koʻp tillar mavjud boʻlgan holatlarga nisbatan “koʻp tillilik” (ingl. multilingualism, frans. plurilinguisme) terminidan foydalanish qabul qilingan.

¹¹⁵ Ferguson C.A. Diglossia // Word. –N. 15. 1959. – P 325-340.

“Ikki tillilik” va “ko‘p tillilik” terminlarining nomlaridan ham ko‘rinib turganidek, bu biron jamiyatda (odatda davlatda) ikki va undan ortiq tillarning faoliyat ko‘rsatishini bildiradi. Bugungi kunda qator davlatlarda ikki yoki ko‘p tillilik mavjud. Mazkur hodisalarni Rossiya (rus tili bilan birga, boshqird, tatar, yoqut, buryat, osetin va h.k. tillar qo‘llaniladi), Afrika, Belgiya, Gana, Hindiston, Kanada, Paragvay (misollarni barcha mintaqalardan olinganini ko‘rish mumkin) va boshqa davlatlarda kuzatish mumkin.

Ikki tillilik va ko‘p tillilikni bir qancha tillarni biladigan shaxslarga nisbatan ham ishlatish mumkin. Binobarin, **bilingvizm (ikki tillilik)** deganda, ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallaganlik tushuniladi.

Ikki tillilik va ko‘p tillilikdan farqli o‘laroq, **diglossiya** ikkita mustaqil tilni yoki bir tilning turli subkodlarini bilishni ifodalaydi. Bu tillar va subkodlar vazifasiga ko‘ra taqsimlangan bo‘ladi: agar gap ko‘p tilli jamiyatlar haqida borayotgan bo‘lsa, unda masalan, rasmiy vaziyatlarda, chunonchi, qonunchilik, ish yuritish, davlat tashkilotlari orasidagi yozishmalarda rasmiy til (yoki davlat tili)dan foydalaniladi; maishiy, kundalik hayot va oilaviy muloqot sharoitlarida esa rasmiy maqomga ega bo‘lmagan boshqa tillar va subkodlardan foydalaniladi.

So‘zlovchilarning ongli ravishda turli kommunikativ vositalardan birini tanlashi va uni muvaffaqiyatli muloqot uchun qo‘llay olishi diglossiyaning muhim sharti hisoblanadi.

15.2. Bilingviz turlari

Individual bilingvizmning uch asosiy turi farqlanadi:

Koordinativ (sof) bilingvizmda ikki til mutlaqo avtonom bo‘lib, har biri o‘zining tushunchalar majmuyiga mos keladi, ikki tilning grammatik kategoriyalari ham mustaqil bo‘ladi:

Italyan tilida

ALBERO (tushuncha)	daraxt
Albero (fonema shakl)	

Ingliz tilida

TREE (tushuncha)	daraxt
tri (fonema shakl)	

Masalan, “tana qo‘yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik” (daraxt) fizik obyekt uchun ikki

tushuncha va ikki xil fonemalar shakli qo‘llaniladi: *albero* “soyabonli italyan qarag‘ayi”, *tree* “daraxt”.

Aralash bilingvizm nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo‘lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi. Masalan, ALBERO va TREE tushunchalari aralashib, /albero/ va /tri/ akustik obrazlari qo‘shib yoziladigan ALBEROTREE ko‘rinishidagi super tushunchani hosil qiladi:

ALBERO/ TREE	daraxt
/albero/ /tri/	

*Subordinativ bilingvizm*da so‘zlashuvchilar ikkinchi tilni ona tilining ta’siri vositasida qabul qiladi: tushuncha ona tilining leksik birliklari, qolganlar esa ikkinchi til birliklari bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bu turdagi bilingvizm odatda ikkinchi til tarjima qilish usuli bilan o‘rganiladi: /tri/ shakli /albero/ni ifodalaydi, shuning uchun italyancha ALBERO/alberoning o‘zi belgining belgisi, ya’ni metabelgi hisoblanadi:

ALBERO	daraxt
/albero/	
/tri/	

15.3. Interferensiya

Ikki tilni biladigan shaxs (bilingv)larning nutqida u qo‘llaydigan tillarning o‘zaro ta’siri kuzatiladi. Bu o‘zaro ta’sir nutqda, tilda, shuningdek, har qanday til osti tizimlarida: fonetikada, grammatikada, leksikada namoyon bo‘lishi mumkin.

Interferensiya keng ma’noda ikki tillilik sharoitida til sistemalarining o‘zaro ta’sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me’yorining buzilishini ifodalaydi. Tor ma’noda ikki tilli shaxsning og‘zaki va yozma nutqida ona tili ta’sirida ikkinchi til me’yorlarining buzilishini anglatadi¹¹⁶.

Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko‘rsatgan har qanday ta’siri va bu ta’sirning natijasi **interferensiya** deyiladi. Odatda interferensiya deganda, faqat nazorat qilib bo‘lmaydigan jarayonlar tushuniladi, ongli ravishdagi o‘zlashmalar unga taalluqli bo‘lmaydi.

¹¹⁶ Словарь социолингвистических терминов. – М., 2006. – С. 82.

Interferensiyaning yo‘nalishlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ona tilining ikkinchi tilga interferensiyasi ko‘proq kuzatiladi. Biroq ikkinchi til asosiy tilga aylanganida u ham ona tiliga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, o‘zbek bolasi ruslar yashovchi hududga ko‘chib boradi va rus maktabida o‘qiy boshlaydi. Asta-sekin rus tili uning ona tilisiga ta’sir qila boshlaydi va u ko‘proq rus tilida gapira boshlaydi. Masalan, uning nutqida “*Mam, ujin qilamizmi?*”, “*Ponedelnik kuni fizkultura bor*”. Yoki ko‘p yillar davomida chet elda muhojir bo‘lib yashagan o‘zbeklarning nutqida ham bu ta’sirni ko‘rish mumkin. Masalan, “*Hammasi okey bo‘ladi*”, “*O, yes! Zo‘r bo‘ldi*”.

Rossiyadagi bozorlardan biridagi savdogarlar nutqida “*Такой прайс только за лейбл что ли?*” tarzidagi inglizcha leksik interferensiya asosida qurilgan ruscha jumlaning ko‘rish mumkin. Mazkur matnda ruscha *цена* leksemasining o‘rniga inglizcha *price* so‘zi individual qo‘llanilgan bo‘lib, unda yosh (yosh-molodoy), mavzu (tijorat), holat (bozor) va maqom (“chelnok”) singari ijtimoiy omillar ishtirok etgan.

Interferensiya lisoniy aloqalar nazariyasida markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. U til darajasiga muvofiq ravishda quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- 1) fonetik interferensiya;
- 2) grammatik interferensiya;
- 3) sintaktik interferensiya;
- 4) leksik-semantik interferensiya.

Fonetik interferensiya ikki tilli shaxs nutqida aloqadagi tillarning fonetik tizimidagi o‘zaro ta’sir hodisasi bo‘lib, talaffuzdagi aksentda namoyon bo‘ladi. Masalan, koreyslarning o‘zbekcha nutqida <r> va <l> undoshlarining farqlanmasligi (karavot → kalavot, marta → malta), <z> undoshining <j> (Zuhra → Juhra, zo‘r → jo‘r, zirak → jirak), <f> undoshining <p> deb talaffuz qilinishi (hafta → hapta, fasl → pasl) yoki ruslarning o‘zbekcha nutqida <q> ning <k> (qiz → kiz, qara → kara), <g‘> ning <g> (tog‘ → tog, og‘rimoq → ogrimoq) deb talaffuz h.k.

Grammatik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili grammatik tuzilishining ta’siri. Bu kelishiklarni qorishtirish (uyga boradi → uyda boradi), fe’l zamonlarini nomuvofiq qo‘llash (ertaga keldi), son+ot+-lar qolipini qo‘llash (ikki kishilar) va h.k.

Sintaktik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili sintaksisi ta’sirida sintaktik qoidalarining buzilishi (Keldi u biznikiga kecha).

Leksik-semantik interferensiya – aloqadagi tillarning leksik-semantik darajadagi o‘zaro ta’siri, so‘zdagi ma’nolar farqliligi natijasida ikki tilli shaxs nutqida me’yorlarning buzilishi; so‘zlarning bog‘lanishidagi buzilish; parafaziya (nutqda biron so‘zni boshqa so‘z o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llash) va h.k. Masalan, *dugonam uylandi; og‘aynim turmushga chiqdi*.

Xullas, interferensiya individlarga xos hodisa. Lekin ommaviy ikki tillilik holatlarida bir turdagi interferensiyalar jarayonlar ko‘pchilikning nutqini xarakterlashi ham mumkin. Masalan, sobiq Sho‘rolar davrida rus tili ommaviy ravishda turli til egalarining nutqiga ta’sir ko‘rsatgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Tilshunoslikda xalqaro “bilingvizm” va uning muqobili bo‘lgan “ikki tillilik” (zullisonayn) terminlarini qiyoslang.
2. Ikki tillilik va ko‘p tillilik keng muomalada bo‘lgan davlatlarni sanang.
3. Individual bilingvizmning asosiy turlarini farqlang, ularga misollar keltiring.
4. Interferensiya nima?
5. Interferensiyaning yo‘nalishlarini ayting.

Adabiyotlar

1. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социалингвистика. – М., 2001.
2. Словарь социалингвистических терминов. Отв. ред.: В.Ю. Михальченко – М., 2006.
3. Ferguson C.A. Diglossia // Word. –N. 15. 1959.
4. Jakobson R. Linguistics in its relation to other sciences //Main Trends of 5. Research in the Social and Human Sciences. – Paris, 1970.
6. Miriam Meyerhoff. Introducing Sociolinguistics. –New York: Routledge 2006.

PSIXOLINGVISTIK TERMINLAR LUG'ATI (GLOSSARIY)

AFAZIYA (yunon. *aphasna*, a – inkor, phasis – nutq) miya muayyan qismlarining, odatda, chap yarim sharning shikast topishi tufayli vujudga kelgan nutqiy buzilish. Afaziya miyaga qon quyilishi (insult), miya o'simtasi, biror bir mexanik shikast tufayli vujudga keladi. Agar miyadagi nutqiy zonalarining hammasi shikastlansa, *total afaziya* yuzaga keladi. Bunday holatda nutq umuman yo'qoladi va uni tushunish amalga oshmaydi. Agar miyaning nutqiy zonalaridan biri ishlab ketsa, *qisman afaziya* vujudga keladi.

AKKULTURATSIYA – madaniyatlarning o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, u biron bir xalq yoki biron bir xalq vakili tomonidan boshqa xalq madaniyatining to'liq yoki qisman qabul qilinishini ifodalaydi. Akkulturatsiya boshlang'ich, ko'nikish, moslashuv, osoyishtalik, uyga ketish arafasidagi moslashuv va so'nggi bosqichlarga ajraladi.

AKUSTIK AFAZIYA – bosh miyaning yuqori chakka miyasida joylashgan Vernika markazi shikastlanganda yuzaga keladi. Bunday holda bemor gapira oladi, lekin nutqni tushunmaydi, unda “fonematik eshitish qobiliyati” buziladi. U so'zlarni tushunib bo'lmaydigan shovqindek qabul qiladi, ma'nosiga tushunmaydi. U hamma tovushlarni eshitadi, lekin ularni umumlashtirish va ajratish qobiliyatini yo'qotadi. Bularning hammasi ikkilamchi buzilishlarga – so'zlarning noto'g'ri talaffuz qilinishiga, yozish qobiliyatining buzilishiga olib keladi.

ALALIYA (yunon. *á-* inkor yuklamasi va qad. yunon. *lalia* – nutq) – nutqiy buzilishning bir ko'rinishi bo'lib, u aqli raso, eshitish qobiliyati bekam-ko'st bo'lgan bolalarda nutqning bo'lmasligi yoki nutqning juda kech paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi.

ARALASH BILINGVIZM – nutq analizi va sintezining yagona mexanizmini nazarda tutadi, birga mavjud bo'lgan tillar esa faqat ustki struktura darajasida farqlanadi.

ASSOTSIATSIYA – til birliklarining shakli va yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko'ra o'zaro ta'siri.

ASSOSIATIV STRUKTURA – stimul-reaksiya juftligi.

BALLISTIK EKSPERTIZA – o'qotar qurollari izlarini aniqlash yuzasidan olib boriladigan ekspertiza.

BILINGVIZM (IKKI TILLILIK) – ikki tilda erkin fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallash.

BIXEVIORIZM (ingl. behavior ‘xulq, xatti-harakat’ dan) ga ko‘ra, mahluqqa (bu odam yoki jonivor bo‘lishi mumkin va h.k.) ta’sir qiladigan qandaydir S (stimul) va ushbu stimulga qandaydir R (reaksiya) bor. Kishilar bir-birlari bilan amaliy (nutqsiz) va nutqli stimullar yordamida o‘zaro munosabatga kirishadi. Ular mazkur stimullarga ikki xil: nutqli va nutqsiz harakatlar bilan javob qaytarishadi: nutqsiz reaksiya $S \rightarrow R$; nutq vositasidagi reaksiya $S \rightarrow r$ $s \rightarrow R$.

BROKA MARKAZI – miyaning chap peshona pastki orqa burmasida joylashgan qism, harakat markazi.

DEKODLASH (decode) – nutqni tushunish.

DINAMIK AFAZIYA – bemorning so‘zning tovush tomonini farqlay olmasligi, ya’ni so‘zlarni talaffuz qila olmasligi.

DISKURS – verballashgan nutqiy, fikrlash faoliyati bo‘lib, u matnlar majmuyini namoyon etadi. *Diskurs* – bu hayotga o‘girilgan matn, kognitiv va kommunikativ funksiyalarni o‘z ichiga olgan, real madaniy kommunikativ vaziyatlarni qayd qilgan nutqiy asar. “Diskurs” termini 1970-yillarning boshlaridan dastlab “funktional stil” terminiga sinonim sifatida qo‘llanila boshlagan. Keyinchalik ingliz-sakson tilshunoslari Van Deyk va Kinchlar diskurs ostida faqat matnning mavjudligini emas, balki bu mavjud tizim ortida turgan, birinchi navbatda butun grammatikani tushunishni taklif qilishgan.

EKSPERTIZA – jinoyatni ochish jarayonida (sudgacha va sud jarayonida) gumondor shaxsni, vaziyatni, jinoyat sodir etilganda foydalanilgan vositani topish, gumon qilinayotga shaxsning psixologik holatini aniqlash, shuningdek, jarayonga taalluqli qo‘shimcha ma’lumot olish maqsadida maxsus bilim va tajribaga ega mutaxassisning kriminal tekshiruvi.

ELLIPSIS – nutq unsurining tushib qolishi.

ERKIN ASSOTSIIATIV EKSPERIMENT – respondentlarning reaksiyasiga hech qanday chegara qo‘yilmay o‘tkaziladigan eksperiment.

ETNOPSIXOLINGVISTIKA – turli madaniyatlardagi lisoniy shaxslar nutqiy muomalasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadigan fan. Nutqiy faoliyatda muayyan an’analar bilan bog‘liq bo‘lgan muomala elementlarining qanday paydo bo‘lishini, turli til egalarining verbal va nonverbal muloqotidagi farqlarni o‘rganadi. Nutqiy etiket va

“dunyoning rangli manzarasi”ni, turli xalqlardagi ikki tillilik va ko‘p tillilik hodisalarini tadqiq etadi.

FREYM – u yoki bu obyekt yoxud hodisani tasvirlovchi o‘lchovlar tizimini ifodalaydi. Masalan, “Ishlovchining shaxsiy varaqasi” (o‘lchovlari aniq shaklda keltirilgan)da mazkur shaxsning eng kamida uni ishga qabul qilinishi bilan bog‘liq xususiyatlarini tasvirlovchi freym mavjud bo‘ladi. Psixologiyada aksariyat hollarda “faoliyat freymi” ishlatiladi. Unda hodisalarga muayyan savollar (Maqsad? Motiv? Sharoit? Qanday faoliyat turi? va h.k.) beriladi va mazkur o‘lchovlar asosida hodisalar tavsiflanadi. Psixolingvistikadagi turli yo‘nalishlar uning obyekti bo‘lgan aniq nutq hodisalariga turli freymlarning “prizmasi” orqali yondashishadi.

GABITOLOGIK EKSPERTIZA – shaxsning tashqi belgilariga ko‘ra aniqlash ekspertizasi.

GESHTALT – nemischa so‘z bo‘lib, u “obraz, tuzilma, yaxlit shakl” ma’nolarini anglatadi. Geshtalt yaxlit obraz hisoblanadi, ya’ni biron bir obyektни butunicha idrok qilinishi geshtalt, deb tushuniladi. Geshtaltlar konseptual bog‘lanishlar bo‘lib, ular inson psixikasining botiniga tegishli bo‘lgan va tabiiy tilning kategoriyalari doirasidan tashqarida yotgan universal tasavvurlar mohiyatidir.

GRAFIK VA YOZUV EKSPERTIZASI matnning yozuvi, orfografiyasi, matnning sahifada joylashuvi va boshqa jihatlarini tahlil qiladi. Grafik ekspertizada orfografik, leksik, kompozitsion va h.k. identifik xususiyatlar e’tiborga olinadi.

HARAKAT AFAZIYASI – bemor so‘zlarni talaffuz qila olmaydi, garchi u unga aytilgan nutqni tushunadi, bunda miyaning chap peshona pastki orqa burmalarida joylashgan Broka markazi shikast yegan bo‘ladi.

HUJJATLAR EKSPERTIZASI – hujjatlardagi imzolar, muhrlar, shtamplar, yozuvlar yuzasidan olib boriladigan ekspertiza.

ICHKI NUTQ – so‘zlovchining ma’lum xabarni bevosita muloqotga chiqarishdan oldin uni ovozning ishtirokisiz qaytarib olishi.

INTERFERENSIYA – ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tiliga ko‘rsatgan har qanday ta’siri va bu ta’sirning natijasi.

KOD – muloqot vositasi bo‘lib, u tabiiy tillar (o‘zbek, rus, ingliz va h.k.) hamda sun’iy tillar: esperanto yoki zamonaviy mashina tillari, morze alifbosi, turli signallar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

KODLASH (encode) – nutqni yaratish.

KOORDINATIV (SOF) BILINGVIZM – ikki til mutlaqo avtonom bo‘lib, har biri o‘zining tushunchalar majmuyiga mos keladi, ikki tilning grammatik kategoriyalari ham mustaqil bo‘ladi.

KOMMUNIKATIV SHAXS – real kommunikatsiyada real harakat qiladigan aniq kommunikativ aktning aniq ishtirokchisidir.

LAKUNA (lot. lacuna “bo‘shliq, chuqurlik, cho‘nqir joy”; frans. lacune “bo‘shliq, bo‘sh joy”) – biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari. Lakunalar qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashi bo‘lmagan so‘zlar bo‘lib, ular, asosan, tillarning qiyosida seziladi.

LISONIY FAOLLIK (linguistic performance) tushunchasi ham N.Xomskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. N.Xomskiy lisoniy faollikni psixologiya sohasiga aloqador qildi va uni til egasi tomonidan yaratiladigan ifodalar sifatida izohladi. N. Xomskiy lisoniy faollikni “aniq sharoitlarda tilning kundalik qo‘llanishi”, - deb tushuntiradi. Lisoniy faollik nutqiy faoliyatda lisoniy qobiliyatni amalga oshirishda yuz beradigan jarayondir. Ya’ni lisoniy faollik ona tilini o‘zlashtirgan kishi egallagan til bilimlarini amalda qo‘llay olishidir.

LISONIY ME’YOR – umumiy kommunikatsiya jarayonida tanlab olingan va mustahkamlangan til sistemasining turg‘un an’anaviy realizatsiyalari majmuyi.

LISONIY SHAXS – muayyan bilimlar va tasavvurlar majmuyiga ega bo‘lgan nutqiy faoliyatni namoyon qiluvchi shaxs.

LINGVISTIK SHOK – ona tili uchun kulgili, g‘alati va odobdan tashqari hisoblangan lisoniy birliklar qo‘llanilgan xorijiy nutqni eshitgan insonning hayratlanish, kulish yoki xijolat bo‘lish holati. Masalan, turk tilida *düşmek* “yiqilmoq”ni, o‘zbek tilida *tushmoq* “yuqoridan, balandlikdan pastga tomon yo‘nalmoq; biron transportdan tushmoq va h.k.” yoki *zor* “juda qiyin”, *zo‘r* “juda yaxshi” ma’nolarni ifodalaydi. Koreys tilida *oppa* akani, o‘zbek tilida bunga qarama-qarshi ma’nodagi so‘zni anglatadi. Tillararo bunday omonimiya hodisasi “tarjimonning aldoqchi do‘stlari” muammosi sifatida tasvirlanadi.

LISONIY QOBILIYAT (linguistic competence) tushunchasi N.Xomskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. N.Xomskiy lisoniy qobiliyatni mazkur tilda so‘zlashish qobiliyatini tashkil qiluvchi sifatida izohlagan. Ma’lumki, kishi tovushlar birikuvi, so‘zlar bog‘lanishi, umuman, tildagi so‘zlar tizimining qo‘llanishini onasidan, tevarak-

atrofidagi yaqinlaridan eshitib o‘z ona tilini o‘zlashtiradi (ayni holat tilshunos yoki tilni o‘rganuvchi har qanday kishida ham kuzatiladi). Bunday tizimdan foydalanish natijasida inson ona tilidagi cheksiz so‘z turkumlari, jumlar va matnlarni hosil qilish qobiliyatini egallab boradi. Shunga ko‘ra, lisoniy qobiliyatni so‘zlovchi va tinglovchi til bilimining potensiali, deb izohlash mumkin. N.Xomskiy “lisoniy qobiliyat birlamchi bo‘lib, u lisoniy faollikni belgilaydi”, - deb hisobladi. Transformatsion grammatika tarafdorlari ham asosiy urg‘uni lisoniy qobiliyatga berishdi.

MATN ATRIBUTSIYASI matnning muallifligini – ma’lum matnni mazkur shaxsga tegishli ekanligi yoki bu shaxsga tegishli emasligini aniqlash. Matnning atributsiyasi faqatgina kriminalistik amaliyotda amalga oshirilmaydi. Matnni aniqlash tarix va filologiya fanlarining yordamchi sohasi hisoblangan, badiiy va boshqa asarlar matnlarining yaratilishi tarixi, taqdirini o‘rganadigan manbashunoslikning ham muhim masalalaridan biridir.

MOTOR AFAZIYA – inson miyasidagi Broka zonasi shikastlanganda maydonga keladi. Afaziyaning bu turida inson nutqni tushuna oladi, lekin gapira olmaydi. Broka markazini 1861-yilda fransuz olimi P.Broka kashf qilgan. U miyaning chap peshona pastki orqa burmasida joylashgan.

MADANIY SHOK – madaniyatlararo to‘qnashuvlarning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u xorijiy tilni o‘rganuvchining ajablanish, hayron bo‘lish yoki tili o‘rganilayotgan madaniyat omillarining qabul qilmaslik holatini ifodalaydi. Madaniy shok til o‘rganuvchining noto‘liq akkulturasiyasi yoki u uchun yangi bo‘lgan madaniyat me’yorlarini bilmasligi, tushunmasligidir.

NEYROLINGVISTIKA (yunon. neuron – tomir, nerv, asab va lot. lingua – til) – nutqiy faoliyatning miya mexanizmlarini va miyaning mahalliy jarohatlanishi tufayli yuzaga keladigan nutqiy jarayondagi o‘zgarishlarni o‘rganadigan fan. Neyrolingvistika mustaqil fan sifatida (biologik) tilshunoslik negizida, neyrologiya, psixologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga keldi va u til sistemasini lisoniy muomalaning miya substrati bilan o‘zaro aloqada o‘rganadi.

NEOBIXEVORIZM (yunon. neos – “yangi” va ingl. behaviour – “xulq, xatti-harakat”)da bixeviorizmning prinsipial S – R sxemasi mohiyatan murakkablashtirilib, S – R orasida nimadir borligi aniqlandi va “oraliq o‘zgaruvchi” tushunchasi paydo bo‘ldi. Gap endi shunchaki

tashqi stimul va reaksiya haqida emas, balki insonda tashqi reaksiya chaqira oladigan va insonning o'ziga xos individual tajribasini aks ettiradigan (shuning uchun ham turli kishilarning reaksiyalari farqli bo'ladi) oraliq o'zgaruvchi, ya'ni organizm ichidagi maxsus *ichki stimul* tushunchasi haqida boradi.

NUTQ – tilning amaliyot shakli, voqelanishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

NUTQ APPARATI – nutq a'zolari majmuyi (lab, tish, til, tanglay, kichik til, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i, bo'g'iz usti bo'shlig'i, o'pka, bronxlar, diafragma, bo'g'iz, nafas yo'li).

NUTQIY FAOLIYAT – faol, aniq bir maqsadga qaratilgan, til vositasida amalga oshiriladigan va holatlardan kelib chiqqan holda insonlar o'rtasida o'zaro ta'sir qilish, muloqot qilish jarayonidir. Nutqiy faoliyat so'zlash va tushunish jarayonlarining umumlashmasi, nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha hodisalardir. Nutqiy faoliyat mustaqil, tugallangan faoliyat akti sifatida kamdan-kam holatlarda namoyon bo'ladi. U odatda, faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadi.

NUTQIY MATN – mazmun jihatdan tugallikka ega bo'lgan, o'z tarkibidagi so'z va iboralarning ma'nolarini belgilashga imkon beradigan nutq parchasi.

NUTQIY ME'YOR – madaniy jamiyat tomonidan ongli ravishda qayd qilingan barqaror va birlashtirilgan lisoniy vositalar va ularni qo'llash qoidalarining majmuyi (masalan, talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika va stilistika qoidalari).

NUTQIY SHAXS – kommunikatsiyada muloqotning u yoki bu strategiya va taktikasini tanlab amalga oshiradigan, u yoki bu lisoniy va nolisoniy vositalardan foydalanadigan shaxs.

NUTQ PATOLOGIYASI (yunon. pathos – azob chekish, kasallik) – nutq me'yoridan chetga chiqish.

OLAMNING LISONIY MANZARASI – lisoniy shakllarda muhrlangan insonning olam haqidagi bilimlari majmuyi. Ya'ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazeologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir. Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o'z-o'ziga) bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks

ettiradi. Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik soʻzlar, oʻxshatishlar, konnotativ soʻzlar, stereotiplar, ramzlar va h.k. vositasida yaratiladi.

ONTOGENEZ – organizmdagi biron narsaning (organ, funktsiya, tuzilish) tugʻilishidan to oʻlguniga qadar boʻlgan izchil rivojlanishi. Psixolingvistikada *ontogenez* termini inson lisoniy qobiliyatlarining shakllanishini anglatadi. Nutq ontogenezi nutqiy faoliyat nazariyasining tarkibiy qismi boʻlib, u individda nutq mahsulining shakllanishi, nutqiy qobiliyat koʻnikmasining paydo boʻlishini oʻrganadi. Nutq ontogenezi bola nutqining tugʻilishdan to 7 (9,11) yoshgacha boʻlgan davrida har tomonlama izchil rivojlanishida namoyon boʻladi. Hozirgi kunda tilni oʻzlashtirish (nutq ontogenezi) nazariyasi keng qamrovli soha hisoblanib, oʻziga xos mustaqil maqomga ega.

OPERANT – yadro gap, yaʼni transformatsiya uchun asos boʻlgan gap.

PERSEPSIYA – sezgilar yordamida qabul qilish, idrok qilish, tushunish.

PSIXOLINGVISTIKA termini birinchi marta amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan 1946-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. “Psixolingvistika” *psixologiya* (yunon. *psyche* “ruh”) va *lingvistika* (lotin. *lingua* “til”) kesishgan nuqtadagi metafan, yaʼni psixologiya va lingvistikaning sintezi hisoblanadi. 1953-yilda AQShning Blumington shahridagi Indiana universiteti huzuridagi Lingvistika va psixologiya qoʻmitasi tomonidan tashkil etilgan universitetlararo seminarda psixolingvistika mustaqil fan sifatida eʼlon qilindi. Psixolingvistika nutqiy faoliyatni nutq akti mazmuni bilan soʻzlovchining maqsad-niyati orasidagi aloqadorlik nuqtayi nazaridan oʻrganadigan fan. U nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni oʻrganadi. Psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. Unga koʻra, soʻzlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, oʻzi oʻylagan niyatini maʼlum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, nutq ifodalarining tashqi shaklida oʻz aksini topgan maʼnoni chiqarib oladi.

REMA – gapning aktual boʻlinishida temadan keyin yangi xabarni bildiradigan qism.

RESIPIYENT – matnni (yoki xabarni) qabul qiluvchi, tinglovchi.

SEMANTIK AFAZIYA – bosh miya quyi qismi faoliyatining shikastlanishi natijasida bemor mantiqiy grammatik munosabatlarni

tushunmaydi. Masalan, “otamning akasi”, “akamning otasi” yoki “yoz bahordan keyin”, “bahor yozdan keyin” kabi soʻz birikmalarini farqlay olmaydi.

TELEGRAF USULI – bemorning toʻliq bir gapni tuza olmasligi, uning grammatik qoidalar – ega va kesimni bogʻlanishiga rioya qilmasligi.

TEMA – gapning aktual boʻlinishida maʼlum (tanish) boʻlgan narsani ifodalovchi, yangi narsani ifodalashga oʻtish uchun asos xizmatini qiluvchi qism.

TOTAL AFAZIYA – miyadagi barcha nutqiy zonalarining shikastlanishi.

TRANSFORMATSIYA – asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida oʻzgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish.

TRASOLOGIK EKSPERTIZA – avtotransport hodisalari izlarini aniqlash ekspertizasi.

VERNIKE ZONASI – eshitish markazi.

YADRO GAP – transformatsiya uchun asos boʻlgan gap, yaʼni operand.

YETAKCHI FAOLIYAT – ong ishtirokida amalga oshiriladigan faoliyat.

YORDAMCHI FAOLIYAT – ong ishtirokisiz amalga oshiriladigan faoliyat.

YOʻNALTIRILGAN ASSOTSIATIV EKSPERIMENT – respondentlarning maʼlum grammatik yoki semantik guruhdagi assotsiatsiyalarni (masalan, otlarga mos sifat topish) berishi.

ZANJIRLI ASSOTSIATIV EKSPERIMENT – respondentlarning bir qancha stimul soʻzlarga (masalan, 20 soniya ichida 10 ta reaksiya soʻz berish) assotsiatsiyalar berishi.

“PSIXOLINGVISTIKA” FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. Psixolingvistika qachon rasman fan sifatida e’lon qilingan?
 - A. 1954-y.
 - B. 1955-y.
 - C. 1949-y.
 - D. 1953-y.
2. Psixolingvistika qaysi ilmiy paradigma doirasiga kiradi?
 - A. sistem-struktur
 - B. antroposentrik
 - C. qiyosiy-tarixiy
 - D. an’anaviy
3. Psixolingvistika qaysi fanlarning sintezi hisoblanadi?
 - A. psixologiya va lingvistika
 - B. psixologiya va sosiolingvistika
 - C. psixologiya va tilshunoslik
 - D. psixologiya va nutq madaniyati
4. «Psixolingvistika» termini ilk bor kim tomonidan qo‘llangan?
 - A. Ch. Osgud
 - B. N. Pronko
 - C. A. Leontev
 - D. A. Luriya
5. “Psixolingvistika” termining sinonimi sifatida qaysi termin qo‘llaniladi?
 - A. “psixologiya”
 - B. “nutq madaniyati”
 - C. “nutq faoliyati nazariyasi”
 - D. “sosiolingvistika”
6. Psixolingvistikaning mustaqil fan sifatida shakllangani qaysi jurnalda e’lon qilingan?
 - A. “Linguistics Studies”
 - B. "Verbal Learning and Verbal Behavior"
 - C. "Verbatim Language Quarterly"

D. "Journal of Memory and Language"

7. Psixolingvistika qanday fan?

- A. eksperimental
- B. ilmiy-nazariy
- C. ruhiy
- D. siyosiy

8. Psixolingvistikaning rivojlanishiga qaysi “inqiloblar” katta ta’sir ko‘rsatdi?

- A. psixik fenomenlar va lingvokuturologiya
- B. kognitiv fenomenlar va diskursiv yondashuvlar
- C. mental fenomenlar va bixevioristik yondashuv
- D. sotsiologik fenomyenlar va sotsiolingvistika

9. J. Kess psixolingvistikaning taraqqiyotini qaysi bosqichlarga ajratadi?

- A. lingvistika; mentalizm; psixologiya; lingvokulturologiya
- B. shakllanish; lingvistika; kognitivizm; hozirgi kognitiv fanlar
- C. psixologiya; lingvistika; strukturalizm; sotsiolingvisika
- D. sotsiologiya, lingvistika; komparativistika; psixologiya

10. Psixolinvistikaning obykti nima?

- A. individlar psixologiyasi
- B. lingvistik bilimlar
- C. individual obyektlar majmui
- D. til va nutq

11. Psixolingvistikaning diqqat markazida nima turadi?

- A. individ va kommunikasiya
- B. til va nutq
- C. til va jamiyat
- D. til va madaniyat

12. Psixolingvistik tadqiqotlarda qaysi masala katta o‘rinni egallaydi?

- A. nutq
- B. so‘zlarning tuzilishi
- C. konseptlar

D. soʻz semantikasi

13. Psixolingvistikaning asosiy masalalarini belgilang.
- A. bilingvizm, til siyosati, bolalar nutqi
 - B. nutqning yaratilishi, nutqning qabul qilinishi, bolalar nutqi
 - C. nutqiy mexanizmlar, afaziya, til strukturasi
 - D. oliy nerv sistemasi, nutq mexanizmlari
14. Psixolingvistika qaysi jarayonlarni oʻrganadi?
- A. matn yaratish va uni tushunish, kodlash va dekodlash, til va tafakkur
 - B. jamiyat va til muammolari
 - C. nutqiy kamchiliklar
 - D. til va nutq munosabati
15. Psixolingvistika qaysi usulga tayanadi?
- A. “kabinet”
 - B. intervyu
 - C. ekperiment
 - D. statistik
16. Qaysi omil psixolingvistikaning asosiy xususiyati hisoblanadi?
- A. til omili
 - B. inson, vaziyat va eksperiment omili
 - C. jamiyat omili
 - D. inson omili
17. Psixolingvistika qaysi tushunchani afzal koʻrdi?
- A. fonema
 - B. morfema
 - C. leksema
 - D. soʻz
